

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
YOSHLAR SIYOSATI VA SPORT VAZIRLIGI

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO‘YICHA MUTAXASSISLARNI
QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

“SHAXS PSIXOLOGIYASI”
MODULI BO‘YICHA

O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

**Kasbiy qayta
tayyorlash yo‘nalishi:**

**Tinglovchilar
kontingenti:**

Sport psixologiyasi

Oliy ma’lumotli sportchilar

Toshkent – 2023

Mazkur oliy ma'lumotli sportchilar uchun "Sport psixologiyasi" bo'yicha qayta tayyorlash maxsus o'quv kursi modulning o'quv-uslubiy majmuasi O'zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya va sport vazirligi tomonidan 2019-yil 16 - aprelda tasdiqlangan namunaviy o'quv reja va o'quv dasturga muvofiq ishchi dastur asosida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar:

- O.E.Hayitov - Institutning "Pedagogika va psixologiya" kafedrası professori, p.f.d.
- J.A. Pulatov - Institutning "Pedagogika va psixologiya" kafedrası mudiri, dotsent (PhD)

Taqrizchilar:

- N.Sh. Umarova - Nizomiy nomidagi TDPU "Amaliy psixologiya" kafedrası mudiri, p.f.d.
- Z. Gapparov - Institutning "Pedagogika va psixologiya" kafedrası professori, p.f.n.

Ushbu o'quv-uslubiy majmua "Pedagogika va psixologiya" kafedrasining 2023 yil 27-maydagi 5-sonli yig'ilishida ko'rib chiqildi va institut ilmiy kengashining 20__yil "___" _____da o'tkazilgan yig'ilish ___-sonli qarori bilan tasdiqqa tavsiya qilingan.

Kafedra mudiri

J.Pulatov

MUNDARIJA

I.	Ishchi dastur	3-13
II.	Modulni o‘qitishda foydalaniladigan interfaol ta’lim metodlari	14-21
III.	Nazariy materiallar	22-83
IV.	Amaliy mashg‘ulot materiallari	84-104
V.	Keyslar banki	105-110
VI.	Glossariy	111-123
VII	Adabiyotlar ro‘yxati	124-127

ISHCHI DASTUR

KIRISH

Hozirgi zamon psixologiyasi fani va amaliyoti shaxs faoliyatini ijtimoiy sohadan ajralgan holda o'rganish murakkab ekanligini alohida e'tirof etmoqda. Shaxs psixologiyasi haqida malumotlar berilishini takidlagan holda bularda asosan shaxs rivojlanishining ijtimoiy jihatdan mavjud qonuniyatlarini o'rganishga ko'proq e'tibor berish talab etiladi.

Yuksak informatsion-texnologiyalar asri bo'lmish XXI asr inson omiliga e'tiborning kuchayishi bilan ham tavsiflanadi. Zero, o'z ruhiy kechinmalarini boshqarish, yaqinlari bilan samimiy sog'lom munosabatlarda bo'lish istagi oddiy fuqarolarda kun sayin ortib bormoqda. Bu borada e'tibor talab jihatlardan biri – bu muomala, o'zaro ta'sir va o'zligini o'zgalarga namoyon eta olish qobiliyatidir.

Davrimiz insonni mustaqil fikrli shaxs sifatida har bir soniyada o'ylashga, fikrlashga, mulohaza yuritib, o'zi uchun xulosalar chiqarishga majbur etmoqda. Ya'ni, bu cheksiz olamda biz o'zimizni o'zgalarsiz, o'z manfaatlarimizni o'zgalalar manfaatisiz tasavvur qila olmaganimiz uchun ham ijtimoiy psixologiyani bilishga majburlamiz. Zero, mustaqil davlatimizning siyosati Inson manfaatini himoya qilish, uning uchun munosib turmush tarzini yaratish ekan, bu ishlarni amalga oshirish uchun bo'lg'usi mutaxassis, pedagog-o'qituvchi ijtimoiy borliq qonuniyatlarini bilishi va undan maromida foydalib, turmush normalariga bo'ysungan holda jamiyatda o'zining munosib o'rnini egallab, fuqarolik burchini ado etishga tayyor bo'lishini darkor. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, talabalar hukmiga havola etilayotgan "Shaxs psixologiyasi" o'quv qo'llanmasi shaxs va jamiyat munosabatlari qonuniyatlarini o'rganishga bag'ishlangandir.

Modulning maqsad va vazifalari

Modulning maqsadi – tinglovchilarda shaxs psixologiyasiga oid bilimlarni shakllantirish, voqeylik va jamiyatdagi voqea-hodisalarning, shaxsning o'zida kechadigan jarayonlar va psixologik bilimlarni shakllantirish, ularni jamiyat hayotidagi hodisalar, holatlar va jarayonlarning mohiyatini tahlil etishga, shaxsning kamoloti va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, uning individual psixologik xususiyatlari, emotsional va irodaviy sifatlarini tahlil etishga o'rgatishdan iborat.

Modulning vazifasi – shaxs tushunchasi mohiyati va mazmuni; inson ruhiyatini psixologik tahlil etish; shaxs psixologiyasi modulining jamiyat va shaxs kamolotidagi o'rnini tinglovchilarga tushuntirish; voqea va hodisalarni psixologik nuqtai nazardan tahlil va tadqiq etish malakasini hosil etish; shaxs psixologiyasini umumiy ilmiy asoslarini o'rgatishni; jamiyat va shaxs orasidagi munosabatning psixologik qonuniyatlari asosida rivojlantirishni; shaxs psixologiyasi moduli bo'limlari bo'yicha psixologik bilimlarni tahlil etish, ularning qonuniyatlarini mashg'ulot jarayonida tahlil etishdan iboratdir.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

Tinglovchi:

psixologik modullar tizimi tuzilishi, ularning rivojlanish istiqbollari;

psixik (fizik) va jamiyat (iqtisodiy va ijtimoiy) psixologiyasining tadqiqot predmeti va ob'ekti;

shaxs psixologiyasining maqsadi, metodologiyasi, metodlari;

psixologik tadqiqotlarni tashkil etish, o'tkazish metodlari va uning vositalaridan foydalana olish;

psixik jarayonlar, hodisalar, holatlar, xususiyatlar, hayot faoliyatidagi insoniy sifatlar ontogenezining qonuniyatlari;

shaxs psixologiyasi muammolarini yechimini topishning asosiy yo'nalishlari;

shaxs nazariyalari;

psixologiyani vujudga kelish va rivojlanishi tarixi;

shaxs psixologiyasining tizimlari, tamoyillari, mexanizmlari, kategoriyalari haqida *tasavvurga* ega bo'lishi;

psixologiya nazariyasi va metodologiyasiga aloqador tizimlar, kategoriyalar, mexanizmlar, qonuniyatlar, asosiy holatlar;

psixologiya va psixologiya moduli tarmoqlarining vujudga kelishi va rivojlanish tarixi;

hayot faoliyatida shaxs shakllanishining metodlari, funksiyalari, tamoyillari;

insonlarning ish qobiliyatini oshirish va funksional holati optimallashtirishni bilishi va ulardan foydalana olishi;

turli xil hayotiy vaziyatlarda shaxsni o'rganishda shaxs psixologiyasining har xil *usullarini* qo'llash;

har xil xarakterdagi empirik materiallarni umumlashtirish va tahlil etish;

odam faoliyatini, xulq-atvorini va muomalasini psixologik baholash; psixologiya metodologiyasi muammolarini;

psixologik, ijtimoiy-etnik va yosh-pedagogiktadqiqotlarning metodlarini qo'llash;

shaxsning bilish jarayonlari xususiyatlari, uning shaxslilik xususiyatlarini shakllantirish vositalarini qo'llash *ko'nikmalariga* ega bo'lishi kerak.

Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

Shaxs psixologiyasi moduli nazariy va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi. Nazariy dars-mashg'ulotlarida shaxs psixologiyasiga oid xorijiy tajribalar, zamonaviy yondashuvlar va ilmiy tadqiqotlar haqida ma'lumotlar beriladi.

Amaliy mashg'ulotlarda zamonaviy yondashuvlar va innovatsion va forsait texnologiyalarning qo'llanilishi, zamonaviy ta'lim vositalaridan foydalanish usullari, mashg'ulotlarga qo'yilgan zamonaviy talablar o'rgatiladi.

Mashg'ulotlarda texnik vositalardan, test so'rovlari (topshiriqlari), psixodiagnostik metodikalar, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash va boshqa interfaol ta'lim usullaridan foydalanish nazarda tutiladi.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan o'zaro bog'liqligi va uzviyligi

Shaxs psixologiyasi moduli o'quv rejadagi turkum modullar, jumladan

psixologiya tarixi, umumiy psixologiya, sportda ijtimoiy psixologiya va trening, sport psixologiyasi, yosh davrlari psixologiyasi, sport psixodiagnostikasi, konsultativ psixologiya va psixokorreksiya modullari bilan yaqin munosabatda bo‘ladi.

Shuningdek, bu modullarning ma’lumotlariga tayanadi va o‘z ma’lumotlari asosida ulardan olingan bilimlarni chuqurlashtiradi.

Modulning uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

Mazkur modul – “Umumiy tayyorgarlik” va “Umumkasbiy tayyorgarlik” bloklaridan keyin, “Psixologiya tarixi”, “Umumiy psixologiya”, “Sportda ijtimoiy psixologiya va trening”, “Sport psixologiyasi”, “Yosh davrlari psixologiyasi” modullari bilan muvofiq ketma-ketlikda o‘rganiladi.

Unda yuqoridagi bloklarda o‘rganilgan mazmun yo‘nalishlari va uslubiy jihatlarini sport ta’limi muassasalari faoliyatiga tatbiq etish imkoniyatlari ochib beriladi.

Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soatlari					
		Hammasi	Auditoriya o‘quv yuklamasi				Mustaqil tayyorgarlik
			Jumladan				
			Jami	Nazariy	Amaliy mashg‘ulo	Ko‘chma mashg‘ulo	
1.	Shaxs haqida tushuncha, odam-inson-individuallik tushunchalari	6	4	2	2		2
2.	Shaxs ijtimoiy ta’sirlar mahsuli sifatida: ijtimoiy normalar, sanksiyalar, rollar	2	2		2		
3.	Chet el psixologiyasida shaxs nazariyalari, endopsixika va ekzopsixika, nativizm va empirizm, biogenetik va sotsiogenetik nazariyalar	4	4	2	2		
4.	Markaziy Osiyo mutaffakirlari ijodida shaxs kamoloti	4	4	2	2		
5.	Shaxs ijtimoiylashuvi va ijtimoiy xulq motivatsiyalari	4	4	2	2		
	Jami:	20	18	8	10		2

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. Shaxs haqida tushuncha, odam-inson-individuallik tushunchalari (2 soat)

Shaxs psixologiyasining ob'ekti, predmeti, maqsadi, vazifalari, psixologiya predmeti haqidagi tasavvurlar rivojlanishining asosiy bosqichlari, shaxs va uning xususiyatlari, qobiliyatlarini shakllantirishda genetik, oilaviy-ijtimoiy omillarni roli va vazifasini bilish, shaxsning shakllanish bosqichlari, "Shaxs", "Xarakter", "Temperament" tushunchalarini bilish, psixik aks ettirish, umumiy psixologiyaning tarkibiy tuzilmasi mohiyati, mazmuni.

2-mavzu. Chet el psixologiyasida shaxs nazariyalari, endopsixika va ekzopsixika, nativizm va empirizm, biogenetik va sotsiogenetik nazariyalar (2 soat)

Chet el psixologiyasida shaxs nazariyalari, endopsixika va ekzopsixika, nativizm va empirizm, biogenetik va sotsiogenetik nazariyalar, psixologiyaning vujudga kelishi, shaxs tushunchasi, ong va ongsizlik tushunchalari, ijtimoiy va individual ong, ongning vujudga kelishida: jamoa, mehnat faoliyati va nutq, endopsixika va ekzopsixika, shaxs faoliyat to'g'risida umumiy tushuncha, uning o'ziga xosligi, interiorizatsiyalashi va eksteriorizatsiyalashi, o'zini-o'zi anglash, komil inson va barkamol inson tushunchalari, shaxs fazilatlarini ajratish, shaxs xususiyatlarini aniqlash, shaxs sifatlarini farqlash, individual-tipologik farqlar yuzasidan mulohaza qilish, ong va faoliyat, oliy psixik funksiyalar va ularning ijtimoiy tabiati, ijtimoiy-tarixiy tajribada shaxs va ongning vujudga kelishi, sub'ekt ijodiy faoliyat natijalari, shaxs rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchlari, faoliyat tizimidagi qarama-qarshilik shaxs rivojlanishini harakatlantiruvchi kuch sifatida ekanligi, shaxs xulq-atvorida o'zaro rivojlanish manbai, funksional tendensiyalar holati haqida, shaxs va xarakter; shaxs strukturasi va uning rivojlanishi harakatga keltiruvchi kuchlar, psixikaning evolyusion taraqqiyoti, shaxs psixologiyasi, ichki regulyatsiya kabilari mohiyati, mazmuni.

3-mavzu. Markaziy Osiyo mutafakkirlari ijodida shaxs kamoloti (2 soat)

Sharqda buyuk sivilizatsiyalar: Misr, Hindiston va Xitoy sivilizatsiyalari. Hindistonda (miloddan avval 2000-yillar) Vedalarning paydo bo'lishi. Falsafiy maktablarning vujudga kelishi: Sankhya, Vedanta, Yoga, Mimansa, Nyaya, Vaysheshika). Ruh haqidagi tasavvurlar. Qadimgi Xitoyda fan va madaniyatning rivojlanishi. Lao-szi, Konfutsiy va Mao szi maktablari, Abu Nasr Farobiyning (873-950 yy.) psixologik qarashlari. Abu Rayxon Beruniy (973-1048 yy.)ning psixologik qarashlari. Mutafakkirning "Mineralogiya", "Geodeziya", "Hindiston", "O'tgan avlodlar obidalari" nomli yirik asarlari ahamiyati. Buyuk qomusiy olim Abu Ali ibn Sinoning (980-1037 yy.) "Donishnoma", "Risolai shik", "Tib qonunlari" asarlarida psixologiya sohalariga oid ma'lumotlar. Abu Ali ibn Sino umr davrlari psixologiyasi asoschisi sifatida. Abu Ali ibn Sinoning tibbiyot psixologiyasiga oid qarashlari va ularning bugungi kun fani uchun ahamiyati. XI asrning atoqli mutafakkiri Yusuf Xos Xojibning psixologik qarashlari. Amir

Temur va ijtimoiy-psixologik fikrlari. Alisher Navoiy asarlarida psixologiya masalalari. Mirzo Bedil tomonidan oldindan belgilangan “taqdirga bayon berish” g‘oyalarining tanqid qilinishi. Imom G‘azzoliy asarlarida psixologiyaga oid qarashlarning ifodalanishi.

4-mavzu. Shaxs ijtimoiylashuvi va ijtimoiy xulq motivatsiyalari (2 soat)

Psixik holatlar, xususan, hissiyot va emotsional holatlar, yuksak hislar, iroda to‘g‘risida umumiy tushuncha, ularning tuzilishi hamda psixofiziologik asoslari, psixik holatlarni o‘rganish, tadqiq etish va xulosalash ko‘nikmalariga ega bo‘lish, shaxs xulq-atvorida o‘zaro rivojlanish manbai, funksional tendensiyalar holati xaqida, emotsional kechinmalarning umumiy aniqligi, emotsional kechinmalar klassifikatsiyasi, affektlar, ehtiros va kayfiyat, emotsiyaning asosiy funksiyalari, emotsiyaning bilish jarayonlariga ta’sir etuvchi funksiyalari, fiziologik jarayonlar bilan bog‘liq funksiyalari. Shaxs ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarning mahsuli, ongli faoliyatning sub’ekti bo‘lmish individdir. O‘spirinlik davrida shaxsning ijtimoiylashuvi. Shaxs autodiologining muhim belgilari. Ijtimoiy institutlar. Ijtimoiylashuv jarayonida shaxs yo‘nalishining shakllanishi. Mas’uliyat tushunchasi. Maqsadlar va ideallar. Qiziqishlar va dunyoqarash. Shaxs dunyoqarashi va e’tiqodini o‘zgartiruvchi omillar. Milliy va ma’naviy qadriyatlar. Ma’naviyat va ma’rifat. Oila. Mafkura. Ijtimoiy ustanovkalar. Shaxs va uning faolligi. Ijtimoiy xulq motivatsiyalari. Shaxsga xos individual psixologik xususiyatlar.

Holat psixik hodisa sifatida va uning xarakteristikasi. Psixik holat turlari. Emotsional hoatlar. Stress tushunchasi va psixik zo‘riqish, stressning tavsifi. Stressni boshqarish. Kayfiyatning umumiy tavsifi va uning tuzilishi. Frustratsiya va bezovtalik emotsioanal holat sifatida.

AMALIY MASHG‘ULOTLARI MAZMUNI

1-mavzu. Shaxs haqida tushuncha, odam-inson-individuallik tushunchalari (2 soat)

Shaxs psixologiyasining ob’ekti, predmeti, maqsadi, vazifalari, psixologiya predmeti haqidagi tasavvurlar rivojlanishining asosiy bosqichlari, shaxs va uning xususiyatlari, qobiliyatlarini shakllantirishda genetik, oilaviy-ijtimoiy omillarni roli va vazifasini bilish, shaxsning shakllanish bosqichlari, “Shaxs”, “Xarakter”, “Temperament” tushunchalarini bilish, psixik aks ettirish, umumiy psixologiyaning tarkibiy tuzilmasi mohiyati, mazmuni.

2-mavzu. Shaxs ijtimoiy ta’sirlar maxsuli sifatida: ijtimoiy normalar, sanksiyalar, rollar (2 soat)

Shaxs, individ, individuallik tushunchalarining ijtimoiy psixologik mohiyati. Shaxsni o‘rganishning ijtimoiy psixologiya uchun o‘ziga xosligi. Individning shaxs sifatida rivojlanishiga oid nazariyalarning mohiyati: biogenetik, sotsiogenetik va biosotsiogenetik nazariyalar. Shaxsning “Men” konsepsiyasi va obrazining

mohiyati. Z.Freyd bo'yicha "Men" obrazi va uning tuzilishi. Super ego – ijtimoiy muhitdagi qadriyatlar va urf-odatlar sifatida shaxsning "Men"ga ta'sir o'tkazishi. Ijtimoiy psixologiyada shaxsning ijtimoiy tiplarini o'rganishning o'ziga xosligi va zarurligi: ekstrovert va introvert tiplar; mobil va rigid tiplar; dominant va tobe tiplar. Ijtimoiy ta'sirlarning shaxs tomonidan qabul qilinishi. Shaxs shakllanishida ijtimoiy muhiting roli. Shaxs hayotida ijtimoiy nazorat shakllarining o'rni. Ijtimoiy norma va uning shaxsga singdirilishi. Ijtimoiy normalarga amal qilish – shaxs va jamiyat munosabatlaridagi muhim jihati sifatida. Ijtimoiy sanksiya tushunchasi. Ijtimoiy sanksiya – shaxs va jamiyat munosabatlarini boshqaruvchi asosiy omil. Ijtimoiy rol – shaxsning jamiyat a'zolari undan kutadigan burch va majburiyatlar tizimidan iborat mexanizm ekanligi. Rollar to'qnashuvining ro'y berishi va uning oqibatlari.

Shaxs ijtimoiy ta'sirlar maxsuli sifatida: ijtimoiy normalar, sanksiyalar, rollar. Shaxsning sub'ektiv xususiyatlarining umumiy tavsifi. "Men" strukturasi va uni har xil yo'nalishlarda tadqiq etish. O'zini o'zi baholash. Men konsepsiyasi. O'z-o'ziga munosabat. Real va ideal "men". U.Djemsning empirik "Men" mavjudligining uch jabhasi to'g'risidagi qarashi: jismoniy shaxs, sotsial shaxs va ma'naviy shaxs. Egoizm, altruizm tushunchalari. Shaxsning o'z-o'zini boshqarish, o'z-o'zini namoyon qilish, o'z-o'zini ifodalash va o'z-o'zini e'tirof etish kabilar mohiyati, mazmuni.

3-mavzu. Chet el psixologiyasida shaxs nazariyalari, endopsixika va ekzopsixika, nativizm va empirizm, biogenetik va sotsiogenetik nazariyalar (2 soat)

Chet el psixologiyasida shaxs nazariyalari, endopsixika va ekzopsixika, nativizm va empirizm, biogenetik va sotsiogenetik nazariyalar, psixologiyaning vujudga kelishi, shaxs tushunchasi, ong va ongsizlik tushunchalari, ijtimoiy va individual ong, ongning vujudga kelishida: jamoa, mehnat faoliyati va nutq, endopsixika va ekzopsixika, shaxs faoliyat to'g'risida umumiy tushuncha, uning o'ziga xosligi, interiorizatsiyalashi va eksteriorizatsiyalashi, o'zini-o'zi anglash, komil inson va barkamol inson tushunchalari, shaxs fazilatlarini ajratish, shaxs xususiyatlarini aniqlash, shaxs sifatlarini farqlash, individual-tipologik farqlar yuzasidan mulohaza qilish, ong va faoliyat, oliy psixik funksiyalar va ularning ijtimoiy tabiati, ijtimoiy-tarixiy tajribada shaxs va ongning vujudga kelishi, sub'ekt ijodiy faoliyat natijalari, shaxs rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchlari, faoliyat tizimidagi qarama-qarshilik shaxs rivojlanishini harakatlantiruvchi kuch sifatida ekanligi, shaxs xulq-atvorida o'zaro rivojlanish manbai, funksional tendensiyalar holati xaqida, shaxs va xarakter; shaxs strukturasi va uning rivojlanishi harakatga keltiruvchi kuchlar, psixikaning evolyusion taraqqiyoti, shaxs psixologiyasi, ichki regulyatsiya kabilar mohiyati, mazmuni.

4-mavzu. Markaziy Osiyo mutaffakirlari ijodida shaxs kamoloti (2 soat)

Sharqda buyuk sivilizatsiyalar: Misr, Hindiston va Xitoy sivilizatsiyalari. Hindistonda (miloddan avval 2000-yillar) Vedalarning paydo bo'lishi. Falsafiy maktablarning vujudga kelishi: Sankhya, Vedanta, Yoga, Mimansa, Nyaya,

Vaysheshika). Ruh haqidagi tasavvurlar. Qadimgi Xitoyda fan va madaniyatning rivojlanishi. Lao-szi, Konfutsiy va Mao szi maktablari, Abu Nasr Farobiyning (873-950 yy.) psixologik qarashlari. Abu Rayxon Beruniy (973-1048 yy.)ning psixologik qarashlari. Mutafakkirning “Mineralogiya”, “Geodeziya”, “Hindiston”, “O‘tgan avlodlar obidalari” nomli yirik asarlari ahamiyati. Buyuk qomusiy olim Abu Ali ibn Sinoning (980-1037 yy.) “Donishnoma”, “Risolai shik”, “Tib qonunlari” asarlarida psixologiya sohalariga oid ma’lumotlar. Abu Ali ibn Sino umr davrlari psixologiyasi asoschisi sifatida. Abu Ali ibn Sinoning tibbiyot psixologiyasiga oid qarashlari va ularning bugungi kun fani uchun ahamiyati. XI asrning atoqli mutafakkiri Yusuf Xos Xojibning psixologik qarashlari. Amir Temur va ijtimoiy-psixologik fikrlari. Alisher Navoiy asarlarida psixologiya masalalari. Mirzo Bedil tomonidan oldindan belgilangan “taqdirga bayon berish” g‘oyalarining tanqid qilinishi. Imom G‘azzoliy asarlarida psixologiyaga oid qarashlarning ifodalanishi.

5-mavzu. Shaxs ijtimoiylashuvi va ijtimoiy xulq motivatsiyalari (2 soat)

Psixik holatlar, xususan, hissiyot va emotsional holatlar, yuksak hislar, iroda to‘g‘risida umumiy tushuncha, ularning tuzilishi hamda psixofiziologik asoslari, psixik holatlarni o‘rganish, tadqiq etish va xulosalash ko‘nikmalariga ega bo‘lish, shaxs xulq-atvorida o‘zaro rivojlanish manbai, funksional tendensiyalar holati xaqida, emotsional kechinmalarning umumiy aniqligi, emotsional kechinmalar klassifikatsiyasi, affektlar, ehtiros va kayfiyat, emotsiyaning asosiy funksiyalari, emotsiyaning bilish jarayonlariga ta’sir etuvchi funksiyalari, fiziologik jarayonlar bilan bog‘liq funksiyalari. Shaxs ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarning mahsuli, ongli faoliyatning sub’ekti bo‘lmish individdir. O‘spirinlik davrida shaxsning ijtimoiylashuvi. Shaxs autodialogining muhim belgilari. Ijtimoiy institutlar. Ijtimoiylashuv jarayonida shaxs yo‘nalishining shakllanishi. Mas’uliyat tushunchasi. Maqsadlar va ideallar. Qiziqishlar va dunyoqarash. Shaxs dunyoqarashi va e’tiqodini o‘zgartiruvchi omillar. Milliy va ma’naviy qadriyatlar. Ma’naviyat va ma’rifat. Oila. Mafkura. Ijtimoiy ustanovkalar. Shaxs va uning faolligi. Ijtimoiy xulq motivatsiyalari. Shaxsga xos individual psixologik xususiyatlar.

Holat psixik hodisa sifatida va uning xarakteristikasi. Psixik holat turlari. Emotsional hoatlar. Stress tushunchasi va psixik zo‘riqish, stressning tavsifi. Stressni boshqarish. Kayfiyatning umumiy tavsifi va uning tuzilishi. Frustratsiya va bezovtalik emotsioanal holat sifatida.

MUSTAQIL TAYYORGARLIK

Mustaqil ish mavzulari

Mustaqil tayyorgarlik yakka tartibda yoki kichik guruhlarda bajariladi. Bunda tinglovchilar o‘zlariga berilgan topshiriqlarni:

- shaxs haqida tushuncha;
- odam-inson-individuallik tushunchalari;
- shaxs ijtimoiy ta’sirlar mahsuli sifatida;
- ijtimoiy normalar, sanksiyalar, rollar;

chet el psixologiyasida shaxs nazariyalari;
endopsixika va ekzopsixika, nativizm va empirizm, biogenetik va
sotsiogenetik nazariyalar;

Markaziy Osiyo mutaffakirlari ijodida shaxs kamoloti;
shaxs ijtimoiylashuvi va ijtimoiy xulq motivatsiyalari mavzularni yoritishda
mustaqil bajarib, taqdimot, himoya qiladilar.

O‘QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:
ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab
olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash, kichik
tadqiqotlar);

davra suhbatlari (ko‘rilayotgan topshiriqlar yechimlari bo‘yicha taklif berish
qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);

bahs va munozaralar (topshiriqlar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli
argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini
rivojlantirish).

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. David G. Myers. Psychology. Tenth Edition // Hope College Holland, Michigan. – NY.: Worth Publishers, 2013. – P. 687
2. Ivanov, P.I. Umumiy psixologiya: Pedagogika va psixologiya bakalavriat ta’lim yo’nalishlari talabalari uchun darslik. / P.I. Ivanov, M.E. Zufarova; Mas’ul muharrir D.M. Mirzajonova; O‘zROO‘MTV. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. – 480 b.
3. Karimova V., Hayitov O., Akramova F., Lutfullayeva N. Umumiy psixologiya: Nopedagogik va nopsixologik oily o‘quv yurtlari uchun darslik // V.M.Karimovanning umumiy tahriri ostida. – T.: TDIU, 2010. – 328 b.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3031-sonli Qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – 23(783)-son. – 455-modda.– B.47–69.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” PF-4947-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – 6(766)-son. – 70-modda. – B.25–151.
6. Umumiy psixologiya: O‘quvqo‘llanma / N.Sh.Umarova, D.N.Arzikulov; Mas’ul muharrir O.E.Hayitov; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. – T.: “Fanvatexnologiya”, 2018. – 220 b.
7. G‘oziev E. Umumiy psixologiya: Psixologiya mutaxassisligi uchun darslik / E.G‘oziev; O‘zR OO‘MTV, M.Ulug‘bek nomidagi O‘zMU. – T.: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2010. – 544 b.
8. Diyanova, Z.V. Psixologiya lichnosti. Zakonomernosti i mexanizmy raxvitiya lichnosti: ucheb. posobie dlya bakalavriata i magistratury / Z.V.Diyanova, T.M.IIegoleva. – 2-ye izd., ispr. i dop. – M.: Izdatelstvo

- Yurayt, 2019. – 173 s.
9. Imomov A. Shaxslararo munosabatlar psixologiyasi. – T.: “Navro‘z” nashriyoti DUK, 2016. – 192 b.
 10. Kavun, L.V. Psixologiya lichnosti: Teorii zarubejnyx psixologov: ucheb.posobie dlya vuzov / L.V.Kavun. – 2-ye izd., ispr. i dop. – M.: Izdatelstvo Yurayt, 2019. – 109 s.
 11. Karimova V.M., Xolyigitova N.X. Psixologiya: O‘quv qo‘llanma. – T.: “IQTISODIYOT”, 2014. – 175 b.
 12. Qoraboev J.F., Mahmudov I.I. Psixodiagnostik ekspert tizimi. – T.: Akademiya, 2014. – 104 b.
 13. Mahmudov I.I., Qoraboev J.F. Rahbar shaxs psixodiagnostikasi. – T.: Akademiya, 2013. – 120 b.
 14. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma‘ruza, 2017 yil 14 yanvar. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 104 b.
 15. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq / Sh.M.Mirziyoev. – Toshkent: “O‘zbekistan” NMIU, 2016. – 56 b.
 16. Morozyuk, S.N. Psixologiya lichnosti. Psixologiya xaraktera: ucheb.posobie dlya akademicheskogo bakalavriati / S.N.Morozyuk. – M.: Izdatelstvo Yurayt, 2019. – 217 s.
 17. Serova, L.K. Psixologiya lichnosti sportsmena: ucheb.posobie dlya akademicheskogo bakalavriati / L.K.Serova. – 2-ye izd., ispr. i dop. – M.: Izdatelstvo Yurayt, 2019. – 124 s.

Elektron ta’lim resurslari

18. <https://president.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti
19. <https://www.gov.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Hukumat Portali
20. <https://strategy.uz> – “Taraqqiyot strategiyasi” Markazi
21. <http://www.openinfo.uz> – Korporativ axborot yagona portali
22. <http://ziyonet.uz>– Ta’lim portali Ziyonet
23. <http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
24. <https://minsport.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi
25. <http://lex.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi
26. <http://senat.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati

27. <http://uza.uz> – O‘zbekiston Milliy axborot agentligi
28. <http://huquqburch.uz> – Huquqiy axborot portali
29. <https://biblio-online.ru/viewer/psihologiya-lichnosti-sportsmena-438413#page/1>
30. <https://biblio-online.ru/viewer/psihologiya-lichnosti-zakonomernosti-i-mehanizmy-razvitiya-lichnosti-438896#page/2>
31. <https://biblio-online.ru/viewer/psihologiya-lichnosti-teorii-zarubezhnyh-psihologov-438035#page/5>
32. <https://biblio-online.ru/catalog/full/pedagogika-psihologiya-socialnaya-rabota/psihologiya/psihologiya-lichnosti>

**MODULNI O‘QITISHDA
FOYDALANILADIGAN INTREFAOL
TA’LIM METODLARI**

“SWOT-tahlil” metodi.

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S – (strength)	кучли томонлари	
W – (weakness)	заиф, кучсиз томонлари	
O – (opportunitu)	имкониятлари	
T – (tnreat)	тўсиқлар	

Namuna: Sportchi shaxsiga xos temperament tipining SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

S	Xolerik temperament tipining kuchli tomonlari • • • •	W	Xolerik temperament tipining kuchsiz tomonlari • • • •
O	Xolerik temperament tipining imkoniyatlari • • • •	T	Xolerik temperament tipining to‘siqlari • • • •

“Xulosalash” (Rezyume, Veer) metodi

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi.

Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda tinglovchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlil qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Metodni amalga oshirish tartibi:



Ўқитувчи тингловчиларни 5-6 кишидан иборат кичик гуруҳларга ажратади.



Дарс мақсади, шартлари ва тартиби билан иштирокчиларни таништиргач, ҳар бир гуруҳга умумий муаммони таҳлил қилиниши зарур бўлган қисмлари туширилган тарқатма материалларни тарқатади.



ҳар бир гуруҳ ўзига берилган муаммони атрофлича таҳлил қилиб, ўз мулоҳазаларини тавсия этилаётган схема бўйича тарқатмага ёзма баён қилади.



навбатдаги босқичда барча гуруҳлар ўз тақдимотларини ўтказадилар. Шундан сўнг, ўқитувчи томонидан таҳлиллар умумлаштирилади, зарурий ахборотлар билан тўлдирилади ва мавзу яқунланади.

Shaxs nazariyalari

endopsixika va ekzopsixika		nativizm va empirizm		biogenetik va sotsiogenetik	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
•	•	•	•	•	•
•	•	•	•	•	•
•	•	•	•	•	•
•	•	•	•	•	•

Xulosa:

“Keys-stadi” metodi

“Keys-stadi” – inglizcha so‘z bo‘lib, (“case” – aniq vaziyat, hodisa, “stadi” – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida

o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi.

Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi”ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> • yakka tartibdagi audio-vizual ish; • keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); • axborotni umumlashtirish; • axborot tahlili; • muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> • individual va guruhda ishlash; • muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; • asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> • individual va guruhda ishlash; • muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish; • har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish; • muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> • yakka va guruhda ishlash; • muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash; • ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; • yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

“FSMU” metodi

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;

har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog'ozlarni tarqatiladi:

ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiiy tartibda taqdimot qilinadi.

Ф	Фикрингизни баён этинг
С	Фикрингизни баёнига сабаб кўрсатинг
М	Фикрингизга мисол келтиринг
У	Фикрларингизни умумлаштиринг, хулосаланг

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga asos bo'ladi.

“Assesment” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod tinglovchilar bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali tinglovchilarning bilish faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashxis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment”lardan ma'ruza mashg'ulotlarida tinglovchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

“Tushunchalar tahlili” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod tinglovchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo'llaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi:

ishtirokchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;

tinglovchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar,

tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);

tinglovchilar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar;

belgilangan vaqt yakuniga yetgach o'qituvchi berilgan tushunchalarning to'g'ri va to'liq izohini o'qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;

har bir ishtirokchi berilgan tug'ri javoblar bilan o'zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o'z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Namuna: "Moduldagi tayanch tushunchalar tahlili"

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma'noni anglatadi?	Qo'shimcha ma'lumot
Individ		
Shaxs		
Odam		
Inson		
Psixika		
Xarakter		
Temperament		

Izoh: Ikkinchi ustunchaga tinglovchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo'shimcha ma'lumot glossariyda keltirilgan.

Venn Diagrammasi metodi


Metodning maqsadi: Bu metod grafik tasvir orqali o'qitishni tashkil etish shakli bo'lib, u ikkita o'zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavvurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko'rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko'rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o'ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralari ichiga yozib chiqish taklif etiladi;

navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to'rt kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiriladi va har bir juftlik o'z tahlili bilan guruh a'zolarini tanishtiradilar;

juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko'rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.



KLASTER usuli

Klaster -axborot xaritasini tuzish yo‘li - barcha tuzilmaning mohiyatini markazlashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g‘oyalarni yig‘ish hisoblanadi.

Bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo‘yicha yangi o‘zaro bog‘lanishli tasavvurlarni erkin va ochiq jalb qilishga yordam beradi.


Tinglovchilar:

1. Yozuv taxtasi yoki katta qog‘oz varag‘ining o‘rtasiga “Rahbar” degan mulohaza uchun mavzu yoziladi. Klasterni tuzish qoidasi bilan tanishadilar.

2. Birikma bo‘yicha asosiy so‘z bilan uning yonida mavzu bilan bog‘liq so‘zlar kichik doirachalar “yo‘ldoshlar” yozib qo‘shiladi. Ularni “asosiy” so‘z bilan chiziqlar yordamida birlashtiradilar. Bu “yo‘ldoshlardan” “kichik yo‘ldoshlar” chiqariladi. Yozuv ajratilgan vaqt davomida yoki g‘oyalar tugagunicha davom etishi mumkin.

3. Muhokama uchun klasterlar bilan almashinadilar.

КЛАСТЕР
(Кластер – тутам, боғлам) – ахборот харитасини тузиш йўли – барча тузилманинг моҳиятини марказлаштириш ва аниқлаш учун қандайдир бирор асосий омил атрофида ғояларни йиғиш.
Билимларни фаоллаштиришни тезлаштиради, фикрлаш жараёнига мавзу бўйича янги ўзаро боғланишли тасаввурларни эркин ва очик жалб қилишга ёрдам беради.



NAZARIY MATERIALLAR

1-MAVZU.
ShAXS HAQIDA TUSHUNCHA.
ODAM-INSON-INDIVIDUALLIK TUSHUNCHALARI

Reja:

- 1.1. *Individ va shaxs tushunchalari*
- 1.2. *Shaxs va ijtimoiy psixologiya.*
- 1.3. *Shaxsning ijtimoiy-psixologik tipologiyasi.*
- 1.4. *Shaxs tomonidan ijtimoiy ta'sirlarning anglanishi*

Tayanch iboralar: shaxs, ijtimoiy munosabat, nativizm, empirizm, ijtimoiy muhit, ijtimoiy stereotiplar, qadriyatlar tizimi, shaxs nazariyalari, biogenetik, sotsiogenetik, psixogenetik, kognitivistik endopsixika, ekzopsixika, men-konsepsiyasi, “men”, “kayvoniy men”, “u”, o‘zlik.

1.1. Individ va shaxs tushunchalari

Bilamiz-ki, “Shaxs” tushunchasi psixologiya fanida eng ko‘p qo‘llaniladigan kategoriyalar sirasiga kiradi. Psixologiyada o‘rganilayotgan barcha fenomenlar aynan ushbu tushuncha atrofida qayd etiladi. Inson ruhiy olami qonuniyatlari bilan qiziqqan har qanday olim yoki tadqiqotchi ham shaxsning ijtimoiyligi va aynan jamiyat bilan bo‘lgan aloqasi masalasini chetlab o‘ta olmaydi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, “Homo sapiens” – “aqli zot” tushunchasini o‘zida ifoda etuvchi jonzotning paydo bo‘lganiga taxminan 40 ming yildan oshibdi. Bu davrda olimlarning e’tirof etishlaricha, 16 ming avlod almashgan. Har bir individni yoki shaxsni o‘rganish masalasi uning bevosita ijtimoiy muhiti va uning ijtimoiy normalari doirasida o‘rganishni taqozo etadi.

Odam dunyoga odam bo‘lib keladi. Sub’ektning odam zotiga mansubligi individ tushunchasida ifoda qilinadi. Hayvon bolasi esa dunyoga kelgan kunidanoq hayotining oxirigacha jonzot deb yuritiladi.

“Individ” tushunchasida kishining nasl-nasabi ham mujassamlashgan. Yangi tug‘ilgan chaqaloqni ham, katta yoshdagi odamni ham, mutaffakkirni ham, aqli zaif ovsarni ham, yovvoyi odamni ham, madaniyatli mamlakat kishisini ham individ deb hisoblash mumkin.

Individ sifatida dunyoga kelgan kishi alohida ijtimoiy fazilat kashf etadi, shaxs bo‘lib yetishadi. Psixologiyada individ tomonidan amaliy faoliyat va munosabatlar jarayonida hosil qilinadigan hamda ijtimoiy munosabatlarning individga ta’sir o‘tkazish darajasi va sifatini belgilaydigan tarzdagi ijtimoiy fazilatlar majmuasi shaxs tushunchasida ifodalanadi.

“Shaxsning o‘zi nima?” Eng avvalo, biz shaxs individning fazilati ekanligini tan oladigan bo‘lsak, bu bilan biz individ va shaxsning birligini tasdiqlagan va ayni paytda bu tushunchalarning bir biriga o‘xshashligini inkor etgan bo‘lamiz. “Shaxs” va “Individ” tushunchalarining bir biriga o‘xshashligini yetakchi psixologlar – B.G. Anan’ev, A.N. Leontev va boshqalar inkor etishadi.

Ijtimoiy munosabatlar tizimini o‘zida mujassamlashtirgan sub’ekt bo‘lish

degan ma'noni anglatadi.

“Individ” va “Shaxs” tushunchalarining o'xshashligi emas balki birligi haqidagi fikr quyidagicha o'rtaga qo'yilishi mumkin bo'lgan savolga javob berilishini taqozo qiladi: Shaxs deb hisoblanmaydigan individning mavjud bo'lishi yoki aksincha individning konkret sohibi sifatida undan tashqarida va usiz mavjud bo'lish fakti ko'rsatilishi mumkinmi? Taxminiy tarzda fikr yuritilgan taqdirda unisi ham, bunisi ham bo'lishi mumkin.

Kishilik jamiyatidan tashqarida voyaga yetgan odam birinchi bor odamlarga duch kelib, biologik xos individual xususiyatlardan bo'lak hech qanday, kelib chiqishi jihatidan hamisha ijtimoiy-tarixiy xarakter kasb etadigan shaxsiy fazilatlarga ega ekanligini namoyon qila olmaydi, balki tevarak atrofdagi odamlar mabodo uni birgalikdagi faoliyat va munosabat jarayoniga “torta olishgan” taqdirda ularni paydo bo'lishi uchun zarur tabiiy shart-sharoitlargagina ega bo'ladi. Hayvonlar orasida tarbiyalangan bolalar tajribasini o'rganish bu vazifani amalga oshirishning g'oyat darajada murakkabligidan dalolat beradi.

“Individ” va “Shaxs” tushunchalarining bir biriga mos kelmasligi va aynan o'xshash emasligi faktidan shu narsa ayonki, shaxs tushunchasi birgalikdagi faoliyatning har bir ishtirokchisi uchun ushbu faoliyatning mazmuni, qadriyatlari va mohiyati orqali namoyon bo'ladigan shaxslararo barqaror bog'lanishlar tizimidagina anglanilishi mumkin. Tashqaridan shunchaki qaraganda bu sub'ek-sub'ekt munosabatidek ko'rinadi, chuqurroq yondoshadigan bo'lsak bevosita sub'ekt-sub'ekt aloqasi shunchaki o'zicha mavjud bo'lishidan ko'ra ko'proq allaqanday ob'ektlar (moddiy yoki xayoliy) vositasida namoyon bo'lishi aniqlanadi. Bu individning boshqa individga munosabati faoliyat ob'ekti (sub'ekt-ob'ekt-sub'ekt) orqali namoyon bo'ladi, demakdir.

Sanalganlarning hammasi shaxsni faoliyatda va munosabatda tarkib topadigan individlararo (sub'ekt-ob'ekt-sub'ektlararo va sub'ekt-sub'ekt-ob'ektlararo) munosabatlarning nisbatan barqaror tizimi sub'ekti sifatida anglab yetish imkonini beradi.

Har bir kishining shaxsi uning individualligini vujudga keltiradigan xislatlar va fazilatlarning faqat unga xos birikuvidan tarkib topgandir. Individuallik o'ziga xosligini, uning boshqa odamlardan farqini aks ettiruvchi psixologik fazilatlar birikmasidir. “Individ” va “Shaxs” tushunchalari bir biriga o'xshash bo'lmagani singari, o'z navbatida shaxs va individuallik ham birlikni tashkil qiladi, lekin ular bir-biriga o'xshash emasdir. Muayyan ijtimoiy birlik uchun yetakchi faoliyatga ko'proq darajada “jalb qilingan” individual fazilatlarga shaxsning xususan o'ziga xos fazilatlari sifatida yuzaga chiqadi.

Misol uchun epcillik va qat'iylik sportchining individualligi belgilari bo'lgani holda, jumladan u sportda tuman birinchiligiga davogar komandaga qo'shilmaguncha yoki uzoq joylarga turistik sayohat paytida u tezoqar va muzdek daryodan kechib o'tilishini ta'minlash vazifasini o'z zimmasiga olmagunga qadar uning shaxsini ta'riflaydigan belgi sifatida yuzaga chiqmay keldi. Aynan shu sababli ham pedagog uchun ahamiyatli bo'lgan o'quvchiga individual yondoshishni amalga oshirish vazifasini ajratib ko'rsatish kerak. Bu esa o'quvchining differensial-psixologik xususiyatlari (xotirasi, diqqati, temperamenti,

u yoki bu qobiliyatlarining rivojlanganligi va hokazo)ni hisobga olishni, ya'ni o'quvchining o'z tengdoshlaridan nimasi bilan farq qilishi va shu munosabat bilan tarbiyaviy ishni qanday tashkil etish kerakligini aniqlashni taqozo qiladi.

Sportchining tafakkuri, irodasi, xotirasi, his-tuyg'ularining individual xislatlarini hisobga olish bilangina cheklanmasdan, balki individning jamoadagi va jamoaning esa uning shaxsidagi mavqeini aniqlashga yo'naltirilgan yondoshuvgina insonning ijtimoiy bog'lanishlar tizimining shaxsda namoyon bo'lishi sifatidagi mohiyatini ilmiy anglab olishga mos keladigan shaxsiy yondoshuv tarzida talqin qilinishi mumkin.

O'quvchining haqiqiy munosabatlar tizimiga kiradigan shaxsi hamisha pedagogning diqqat markazida turishi kerak. O'quvchining ma'naviy dunyosini boyitish esa pedagogning doimiy vazifasi bo'lib qolishi kerak.

Psixologiyada **individuallik**ning ko'pgina xislatlari – moslashuvchanlik, tajovuzkorlik, moyillik, xavotirlanish va shu kabilar aniqlangan. Bular jamlanib, individning o'ziga xosligini ko'rsatadi. Bu psixologik hodisalar o'z mohiyatiga ko'ra o'zaro munosabatda bo'lib, oshkora yoki oshkora bo'lmagan holda allaqanday muhitning mavjudligini taqozo etadi. Shaxs aynan ana shunday muhitga nisbatan moslashuvchanlik, tajovuzkorlik, xavotirlanish va hokazolarni namoyon qiladi.

Shunday qilib, inson shaxsining tuzilishi individuallikning tuzilishiga qaraganda keng ekanligi shubhasizdir. Shu boisdan bunga birinchi navbatda, uning individualligini ko'rsatadigan va faqat extirosda, ichki qiyofada, qobiliyatlarda va hokazolarda ancha keng ifodalanadigan fazilatlar va umumiy tuzilishigina emas, balki shaxsning rivojlanish darajasi har xil bo'lgan guruhlarda, ana shu guruh uchun yetakchi hisoblangan faoliyat orqali ifodalanadigan individlararo munosabatlarda o'zini namoyon etishini ham qo'shish shart. Individual-tipik xususiyat shaxs yashayotgan va shaqllanayotgan birlikning rivojlanishiga va individlararo munosabatlarning bilvosita ifodasi hisoblangan faoliyatning xarakteri, qadriyatlar va maqsadlariga bog'liq tarzda jiddiy ravishda turli xil ko'rinishda namoyon bo'ladi.

Individ rivojlanishining tabiiy shart-sharoitlari, uning jismoniy tuzilishi, nerv va ichki sekresiya bezlari tizimi, jismoniy tuzilishdagi afzalliklari va nuqsonlari uning individual psixologik fazilatlarini shaqllanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Lekin biologik xususiyat kishi shaxsini tarkibiga singib, ijtimoiy omilga aylanib qoladi va keyinchalik ijtimoiy shaklda (psixologik jihatdan) mavjud bo'ladi. Jumladan, miya patologiyasi individda, uning tuzilishida, uning biologik jihatlari bilan bog'liq, lekin shaxsiy belgilari hisoblanmish individual psixologik xislatlarni keltirib chiqaradi. Ular ijtimoiy sababiyatlarga (determinatsiyaga) ko'ra shaxsning konkret fazilatlariga aylanib qolishi ham, aylanmasligi ham mumkin.

Tabiiy, tarkibiy jihatlar va belgilar kishi shaxsining individualligi tuzilishida uning ijtimoiy jihatdan taqozo etilgan qismlari sifatida mavjud bo'ladi. Tabiiy (anatomik, fiziologik va boshqalar) fazilatlar va ijtimoiy xislatlar birlikni tashkil toptiradi va shaxsning mustaqil kichik tuzilishi sifatida bir-biriga o'zidan-o'zi qarama-qarshi qo'yilishi mumkin emas.

Shaxs tuzilishining uch tarkibiy qismi mavjud:

1. Shaxs tuzilishiga birinchi navbatda uning individualligining tizimli tuzilishi kiradi. Shu tariqa shaxs tuzilishining birinchi tarkibiy qismi – uning individ ichkarisidagi (intraindivid) kichik tizimining alohida namoyon bo‘lishidir.

2. Shaxs tuzilishining ikkinchi tarkibiy qismi – uning shaxslararo bo‘shlikdagi individlararo munosabatlarda, aloqalarda mavjud bo‘lishidir, ya’ni individning organik tarzidagi gavdasidan tashqaridagi “bo‘shliqda”, “fazoda” namoyon bo‘lishdir.

3. Shaxs tuzilishini tarkib toptiradigan uchinchi bir qismi – metaindivid (individning ustki ko‘rinishi) kichik tuzilishini ham alohida ko‘rsatish imkoniyatidir. Bunda shaxs individning organik gavdasidan tashqariga chiqarilib qolmasdan, balki uning boshqa individlar bilan “shu yerda va endilikda” mavjud bo‘lgan aloqalaridan ham tashqarida joylashtiriladi.

Shunday qilib, inson shaxsining tuzilishi uchta tarkibiy qismdan, uchta kichik tizimdan iboratdir: shaxsning individualligi, uning shaxslararo munosabatlar tizimida gavdalanishi hamda shaxsning o‘zi kelib chiqishiga ko‘ra individlararo, ijtimoiy aloqalar va munosabatlar sube’kti sifatida mavjud bo‘lishidir.

Har uchchala kichik tuzilish birligi shaxs obro‘-e’tiborida namoyon bo‘ladi.

Individning shaxs darajasiga ko‘tarilishi ehtiyoji konkret tarixiy shaqlda mavjud bo‘lib, sinfiy mazmunga egadir. Jamiyatda yashayotgan kishida ta’lim-tarbiya berish ishlari to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan taqdirda ijtimoiy foydali faoliyatda shaxs darajasiga ko‘tarilish ehtiyojining shaqllanishi va qondirilishi uchun zarur barcha shart-sharoitlar tarkib topadi.

1.2. Shaxs va ijtimoiy psixologiya

Ijtimoiy psixologiyada shaxs muammosi. Shaxsning ijtimoiy-psixologik tizimi. Shaxsni tarbiyalovchi makro- va mikro muhit tushunchasi. Ma’lumki, shaxsni ko‘plab fanlar turli xil tomondan o‘rganadi. Bir yo‘nalish biologik bo‘lsa, boshqasi – sotsiologik, yana bir turi individual psixologik va nihoyat, yana bir yondashuv ijtimoiy-psixologikdir. **Biologik** nuqtai nazardan shaxs taraqqiyoti individ nasliy jihatdan orttirgan genetik dasturlarning amalda ro‘yobga chiqishi tarzida tasavvur etiladi. **Sotsiologik** yondashuv shaxsning madaniy-tarixiy muhit ta’sirida kamol topishini tan oladi. Ulardan farqli **individual-psixologik** yondashuv shaxsning rivojlanishiga uning tana tuzilishi yoki konstitutsional jihatlari va asab tizimi tipining ta’siri borligini ta’kidlab, o‘rganadi.

Shaxsni o‘rganishning **ijtimoiy-psixologik yondashuvi** uni ijtimoiylashuning bevosita mahsuli sifatida qarab, uning ijtimoiy-psixologik tizimini bevosita o‘rab turgan ijtimoiy muhit ta’sirida o‘rganadi. Bu borada bir qancha olimlarning o‘ziga xos nuqtai nazarlari ham mavjud. Masalan, K.K.Platonov shaxs tizimida to‘rtta asosiy jabhani ajoyib:

1. **Shaxsning yo‘nalganligi va munosabatlari tizimi:** uning mayllari, xohish-istaklari, qiziqishlari, layoqati, ideallari, dunyoqarashi, e’tiqodi kabilarni o‘z ichiga oladi. Bu tizimdagi xususiyatlar ijtimoiy xarakterga ega bo‘lib, ular insonning jamiyatda yashashi, undan oladigan tarbiya shakllari, mafkuraviy muhit

asosida shakllanadi.

2. Shaxsning individual ijtimoiy tajribasi: bu jabhadagi sifatlar inson hayoti mobaynida orttiradigan bilimlari, malaka va ko'nikmalari asosida namoyon bo'ladi. Bu sifatlar ijtimoiy xarakterli bo'lib, ko'proq ta'lim jarayonida shakllanadi.

3. Inson psixik jarayonlarining individual xususiyatlari: xotira, idrok, sezgilar, tafakkur, qobiliyatlar kabi bir qarashda tug'ma omillarga bog'liq xususiyatlar inson umri davomida takomillashishi va uning boshqa ijtimoiy sifatleri ta'sirida individual o'ziga xoslik kasb etishi mumkin.

4. Biologik xususiyatlarga bog'liq shaxs sifatleri: bunga shaxsning tipologik, yoshiga oid, jinsiy xususiyatlari kiradi va u ko'pincha bioijtimoiy omillar sifatida qaraladi.

A.N.Suxov va A.A.Derkachlarning ta'kidlashlarida shaxsning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari haqida gap ketganda, avvalo uning fikrlash tarzi, qadriyatleri tizimi, motivatsion belgileri (yo'nalganlik, hayotiy maqsadlar, rejalar, hayot tarzi), kognitiv sifatlar (ijtimoiy tasavvurlar, hayot manzaralari to'g'risidagi fikrlari), "Men"-konsepsiyasi, "Men"-obrazi, o'ziga munosabati, o'ziga nisbatan bahosi; o'zini nazorat qilish lokusi, psixologik bilimdonligi, rolli maqomleri, ijtimoiy his-tuyog'ulari va boshqalar nazarda tutiladi.

Ijtimoiy psixologiya uchun har bir shaxsning qay tarzda o'z hayot yo'lini belgilashi va jamiyatda shaxslararo munosabatlardagi **maqomi – statusi** muhimdir. Bu borada uni o'rab turgan katta – makro ijtimoiy borliq hamda mikro – kichik ijtimoiy borliqning ta'sirlarini o'rganish katta ahamiyatga ega.

Shaxsga ta'sir etuvchi **makro muhit** – bu inson umri o'tadigan va hayoti mobaynida unga ta'sir etadigan tabiiy, ijtimoiy va ijtimoiy shart-sharoitlar majmuidir. Ya'ni, bizni o'rab turgan jami borliq o'zining o'zgaruvchan va nisbatan barqaror shart-sharoitleri bilan bizning dunyoqarashimiz, fikrlash tarzimiz, qadriyatlarimizning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, qadimiy shaharlar – Samarqand, Xiva, Buxoro kabilar o'zlarining tarixiy obidalari bilan ma'naviy qadriyatlarimiz tizimini belgilasa, Farg'ona vodiysi, Qashqadaryo vohasi, betakror Boysun tabiati estetik didlarni tarbiyalash bilan birgalikda shaxsning olam va odam, hayot ma'nosi va qadriyatleri kabi tushunchalarini kengaytiradi, uning ijtimoiy tasavvurlarini takomillashtiradi.

Makro muhit hakida gap ketganda, olimlar uning global mifyosdagi hamda hududiy ta'sirlarini farqlaydilar. Bugunni ochiq axborot makonida barchamiz butun dunyoda yuz berayotgan voqea va hodisalarni idrok etish va ularga nisbatan muayyan pozitsiyamizni shakllantirishga muvaffaq bo'lgan bo'lsak, bu global makro muhit ta'sirlari maydonini tashkil etadi. Bunda OAV orqali berilayotgan ma'lumotlar, teleseriallar, reklama rolikleri, turli shou-ko'rsatuvlar, kompyuter o'yinlarining roli sezilarlidir. Ayniqsa, yoshlarning didi, talablari, orzu-havasleri, modaga munosabati paydo bo'lishida shu kabi global ta'sirlarning sezilarli ekanligiga barchamiz guvohmiz.

Hududiy jabhada makro muhitning ta'siri quyidagi omillar orqali kechadi:

- **demografik omil** – bu aholi zichligi, tug‘ilish va o‘limning dinamikasi, umr davomiyligi, migratsiya jarayonlari va b.q.; masalan, aholi reproduktiv madaniyatining o‘zgarib borayotganligi, oilada tug‘ilayotgan bolalar soning kamayishi, odamlarning sog‘lom turmush tarzi to‘g‘risidagitasavvurlarining o‘zgarib borayotganligi, zamonaviy tibbiyotning inson umrini uzaytirish borasida qo‘lga kiritayotgan olmasumul yutuqlari, tabiiy, har bir alohida olingan shaxs psixikasida muayyan davr va hududga nisbatan o‘zgarishlarnisodir etishi tabiiydir;

- **tabiiy-ekologik omil** – yashash joyining qaerda va qancha territoriyada joylashganligi, havo harorati, foydali qazilmalarning mavjudligi, ekologik vaziyat va shu kabilar; masalan, Yer kurasida global harorat isishi jarayoni ko‘plab hududlarda istiqomat qiladigan odamlarning turmush tarziga o‘zgartirishlar kiritishi bilan birgalikda ularning dunyoqarashini, hayotiy pozitsiyalarini ham o‘zgartiradi, albatta;

- **ilmiy-texnika omili** – hududdagi fan va texnologiyalarning qay darajada rivojlanganligi, kompyuterlashtirish darajasi, texnika taraqqiyoti va boshqalar ayniqsa, bolalar psixologiyaga bevosita ta‘sir ko‘rsatmoqda; bugun olimlar, psixologlar yosh bolalarni qanday qilib, kompyuterdan, Internet tarmog‘idan biroz bo‘lsa-da, chalg‘itish, ular qiziqishlar olamiga boshqa texnik vositalarni taqdim etishni o‘ylamoqdalar, chunki doimiy texnika bilan muloqot insoniy munosabatlarning qadriyat sifatida chekinishiga olib kelishi, o‘z navbatida shaxs tizimida ayrim salbiy xususiyatlarni shakllantirishi mumkin;

- **iqtisodiy omil** – axoli daromadlari manbai, inflyatsiya darajasi, ishsizlik va aholining ish bilan bandligi va xokazolar ham shaxsga ta‘sir etuvchi muhim omillar bo‘lib, aholi daromad manbalarining ortib borayotganligi shaxsning o‘z imkoniyatlari, professional qobiliyatlari darajasining yuqori bo‘lishini taqozo etadi;

- **siyosiy-huquqiy omillar** – mamlakatdagi siyosiy tuzilma, rasmiy mafkuraning bor yoki yo‘qligi, qonunchilik tizimining mukammalligi, inson huquqlarining himoya qilinishi darajasi va boshqalar ham shaxsga ta‘sir etadi. Masalan, O‘zbekistonda xotin-qizlarning davlat va jamiyat qurilishidagi rolini kuchaytirishga qaratilgan qator Prezident Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari ularning saylovlardagi ishtirokini, davlat organlariiva qaror chiqaruvchi organlar faoliyatidagi ishtiroklari uchun ravon yo‘llarni ochib berdi. Shu bois bugun mamlkat Parlamentining quyi Palatasida ham, yuqori palatasi – Senatda ham xotin-qizlarning ulushi sezilarli darajada oshdi;

- **ijtimoiy-madaniy omillar** – xalq ma‘naviyati, madaniyati, an‘analari, udumlarining saqlanganligi, dinga munosabatning ijobiy tomonga o‘zgarganligi, buyuk shaharlar yubileylarining, turli xalqaro va respublika miqyosidagi san‘at anjumanlarining muntazam o‘tkazilib kelinayotganligi, shahar va qishloqlar qiyofasining keskin o‘zgarib, obodoshlashgani, yoshlar Forumlari, sport musobahalari, Universiada, Brkamol avlod sport musobahalari kabilar milliy psixologiyada ham shaxs psixologiyasida ham faqat ijobiy fazilatlarning namoyon bo‘lishiga real zamin yaratdi.



1.1-rasm. Shaxs ijtimoiylashuviga ta'sir qiluvchi bosqichlari

Shaxsning **mikro muhiti** – bu umumiy ijtimoiy muhitning bir bo‘lagi bo‘lib, u bu muhitni tashkil etuvchilar bilan kundalik ijtimoiy faoliyatida bevosita muloqotda bo‘lish imkoniyatiga egadir. Ushbu muhitdagi ijtimoiy munosabatlar shaxslararo o‘zaro hamkorlik, hamjihatlik, birgalikdagi faoliyatni amalga oshirish tarzida kechadi. Bu munosabatlarda bevosita makro muhit ta’sirlari bo‘lishi, unda har bir shaxsning yosh, jins, guruhiy xususiyatlari, qaysi oilada tarbiyalanganligi kabi jihatlar o‘z in’ikosini topadi. Ya’ni, mikro muhit har bir alohida holatlarda shaxsni o‘rab turgan ijtimoiy guruh bo‘lib, uning har bir vaziyatdagi o‘rni, yo‘nalganligi, maqsad-muddaolari bo‘lishi tabiiydir.

Ijtimoiy muhit – bu insonning aniq maqsadlar va rejalar asosida faoliyat ko‘rsatadigan dunyosidir. Mazmunan har bir insonning shu ijtimoiy olam bilan aloqasi uning insoniyat tajribasi, madaniyati va qabul qilingan, tan olingan ijtimoiy xulq normalari doirasidagi harakatlarida namoyon bo‘ladi.

Demak, har bir shaxsning fe‘l-atvoriga atrofda referent guruhning (do‘stlari, oilasi), tarixiy zamon, davr, davlat tuzumi va o‘sha jamiyatdagi siyosat, iqtisodiyot va mafkuraning ta’siri bo‘lib, bu ta’sir uning yaxlit dunyoqarashi, fikrlash tarzi, tafakkurida o‘z aksini topadi. Bunday ta’sirlarning ikki xili farqlanadi.

Bir qarashda ikkinchi bosqich ta’sirlarigina shaxsning insoniy qiyofasi hamda fe‘l-atvorini belgilaydiganday tuyuladi. Chunki xalqimizda “qush uyasida ko‘rganini qiladi”, degan naql ham bor. Ayniqsa, bizning “o‘zbekchiligimiz”da odamning tug‘ilib o‘sgan oilasi, mahallasi, kimning avlodi-yu, kimning zurriyodi yekanligi, ta’lim olgan dargohiga katta ye’tibor beriladi. Ko‘pincha xalqda: “Hovli olma, qo‘shni ol”, degan maqol ham ishlatiladiki, bu ham farzandlar kamoli va oilaning tinchligida yon-atrofning ahamiyatiga ishoradir. Lekin makro bosqichdagi ta’sirlarning ahamiyatini kamsitish ham to‘g‘ri bo‘lmaydi.

Psixologiya ilmining namoyondalari bo‘lmish olimlarning butun bir avlodi ana shu shaxs va jamiyat aloqalari tizimida, makro hamda mikro bosqichlardagi

ta'sirlarning tub mohiyatini anglash, uning rivojlanishi va kamol topishi qonuniyatlarini izladilar. Abu Nasr Farobiy, A.Navoiy, Ibn Sino, Beruniy kabi yuzlab Sharq allomalari ham bu o'zaro bog'liqlikning falsafiy va ijtimoiy sirlarini ochishga o'zlarining yeng durdona asarlarini bag'ishlaganlar. Barcha qarashlarga umumiy bo'lgan narsa shu bo'lganki, odamni, uning mohiyatini anglash uchun avvalo uning shu jamiyatda tutgan o'rni va mavqeiini bilish zarur. Shaxsni o'rganishning birlamchi mezoni ham shundan kelib chiqqan holda, uning ijtimoiy mavqei, ijtimoiy munosabatlar tizimidagi o'rni bilan belgilanishi kerak.

1.3. Shaxsning ijtimoiy-psixologik tipologiyasi

Shaxsni ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan tiplarga bo'lish ko'p holatlarda uning odamlar bilan o'rnatadigan munosabatlari xarakteriga qarab amalga oshiriladi. Amerikalik psixolog A.Maslou bir inson boshqasiga xuddi o'ziga munosabatda bo'lganday qarasa, u ikkinchi boshqalarga kibr bilan, xuddi buyum yoki hodisaga qaraganday munosabat bildirishi mumkin, deb odamlar o'rtasidagi farqning muqarrarligini isbotlagan edi. E.Shostrom A.Maslou fikrini rivojlantirib, birinchisini aktualizator, ikkinchisini manipulyator, ya'ni, o'z manfaatiga bo'ysundiruvchi, boshqaruvchi deb ta'riflaydi. Shu kabi turli insoniy munosabatlarni tahlil etgan olimlar shaxsning tipologiyasiga o'zgacha qaraydigan.

E.Shpranger taklif etgan tipologiyada shaxs turli hayotiy qadriyatlar doirasida ta'riflanadi: iqtisodiy, estetik, ijtimoiy, siyosiy, diniy.

Amerikalik Xorni esa shaxsni boshqalar bilan muloqot ob'ekti sifatida qarab, uning uch toifasini farqlaydi:

Yopishqoq, kirishimli shaxs – unda o'zgalar bilan muloqotga kirishish ehtiyoji o'ta kuchli, kimni ko'rsa u bilan do'stlashib ketgisi, o'zini yoqtirtirgisi, suyakli bo'lishni xohlaydi va unga doimoy e'tiborli bo'lishlari, g'amxo'rlik ko'rsatishlarini istaydi, uning shiori: “U meni sevishi va menga g'amxo'rlik ko'rsatishi kerak”.

Agressiv tip – o'zgalar bilan muloqotdan hamisha manfaatdor bo'lish kerak, boshqalardan doimo ustun bo'lishlari kerak, aks holda janjallashishdan ham toymaydi, uning shiori: “Menga bu odamdan foyda, naf chiqarmikin?”.

Begonalashgan tip – uchun o'zgaardan uzoqroq yurish ma'qul, chunki shaxslararo muloqot, ularning fikricha hech qachon yaxshilikka olib kelmaydi, guruhlarda ishlashdan ko'ra yolg'iz ishlashni, o'qishni afzal ko'radi. “Meni tinch qo'yisharmikin?” uning doimiy shiori.

Norakidze inson xulqi va unga undovchi ichki motivlarga ko'ra shaxsning quyidagi turlarini farqlaydi:

Barkamol shaxs – unda ichki tuyg'ular, motivlar, istaklar bilan tashqi xatti-harakatda ziddiyat bo'lmaydi, dilidagi bilan tilidagi mos, aytganini qiladigan, lavzli, vijlonli, imon-e'tiqodli inson. Butun aqliy salohiyati va vijdoni bilan o'zgalarning manfaatini o'ylaydigan va shu bilan birgalikda hamisha o'z ustida ishlaydigan inson barkamollik yo'lida bo'ladi.

Ziddiyatli, nizoli shaxs – xulqi bilan motivlari o'rtasida doimo qarama-qarshilik kuzatiladi, u odamlardan ko'proq kamchilik qidirib, o'zidagi nuqsonlarni

tan olmaydi.

Impulsiv shaxs – hamisha hissyotlarga beriladi, o‘ylamay gapirish, birovlarini dilini og‘ritib qo‘yish keyin afsuslanish unga xosdir. Ko‘pchilik orasida ularni fikridan ko‘ra o‘zini ma‘qullatishni istaydi, lekin hamisha ham o‘z hukmini o‘tkazolmay, odamlardan xafa bo‘lib yuradi.

Bu kabi shaxslar oramizda ko‘p, lekin har bir shaxsning kimligi, qanday inson ekanligi albatta vaziyatga, tarbiyalangan ijtimoiy muhitiga, bajarayotgan amallarining, xizmat burchlarining qanday vijdonan ado etilayotganligiga bog‘liq. Muhimi – har bir shaxs jamiyatda o‘zining munosib o‘rnini topish, o‘z g‘alar manfaatini o‘z manfaatlari doirasida tasavvur eta olishi kerak.

1.4. Shaxs tomonidan ijtimoiy ta’sirlarning anglanishi

Shunday qilib, shaxs ijtimoiy-psixologik mavjudot sifatida hamisha ijtimoiy muhit ta’siridabo‘ladi va ularni anglaydi. Ijtimoiy normalar, sanksiyalar, rollar ijtimoiy mexanizmlar sifatida shaxs xulq-atvorini ma‘lum ma’noda boshqarib, muvofiqlashtirib turishga yordam beradi. Lekin insonning komilligi, uning axloqi, ijtimoiy normalar doirasidagi maqbul harakati uning o‘ziga ham bog‘liqdir. Odanning o‘z-o‘zini anglashi, bilishi va o‘z ustida ishlashi avvalo uning diqqati, ongi bevosita o‘ziga, o‘z ichki imkoniyatlari, qobiliyatlari, hissiy kechinmalariga qaratilishini taqozo etadi. Ya’ni, **ijtimoiy xulq** – shaxs tomonidan uni o‘rab turgan odamlar, ularning xulq-atvoriga e’tibor berishdan tashqari, o‘zining shaxsiy harakatlari va ularning oqibatlarini muntazam tarzda tahlil qilib borish orqali, rollarni muvofiqlashtirishni ham taqozo etadi.

Shaxsning o‘zi, o‘z xulq-atvori xususiyatlari, jamiyatdagi mavqeini tasavvur qilishidan hosil bo‘lgan obraz – “Men” – obrazi deb atalib, uning qanchalik adekvatligi va reallikka yaqinligi shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeini belgilaydi va uning barkamolligi mezonlaridan hisoblanadi.

“Men” – obrazining ijtimoiy-psixologik ahamiyati shundaki, u shaxs tarbiyasining va tarbiyalanganligining muhim omillaridan hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, **tarbiya – shaxsning o‘zi va o‘z sifatleri to‘g‘risidagi tasavvurlarining shakllanishi jarayonidir**, deb ta’rif berish mumkin. Demak, har bir inson o‘zini, o‘zligini qanchalik aniq va to‘g‘ri bilsa, tasavvur qilolsa, uning jamiyat normalariga zid harakat qilish ehtimoli ham shunchalik kam bo‘ladi, ya’ni u tarbiyalangan bo‘ladi.

O‘z-o‘zini anglash, o‘zidagi mavjud sifatlarni baholash jarayoni ko‘pincha konkret shaxs tomonidan og‘ir kechadi, ya’ni, inson tabiati shundayki, u o‘zidagi o‘sha jamiyat normalariga to‘g‘ri kelmaydigan, no‘maqul sifatlarni anglamaslikka, ularni “yashirishga” harakat qiladi, hattoki, bunday tasavvur va bilimlar ongsizlik sohasiga siqib chiqariladi (bu fikr avstriyalik olim Z.Freyd nazariyasiga ham mos keladi). Bu ataylab qilinadigan ish bo‘lmay, u har bir shaxsdagi o‘z shaxsiyatini o‘ziga xos himoya qilish mexanizmidir. Bunday himoya mexanizmi shaxsni ko‘pincha turli xil yomon asoratlardan, salbiy, o‘zi uchun yoqimsiz hissiy kechinmalardan asraydi. Lekin shuni alohida ta’kidlash lozimki, “Men” – obrazining ijobiy yoki salbiyligida yana o‘sha shaxsni o‘rab turgan tashqi muhit, o‘z g‘alar va ularning munosabati katta rol o‘ynaydi. Odam o‘z g‘alarga qarab,

go'yoki oynada o'zini ko'rganday tasavvur qiladi. Bu jarayon psixologiyada refleksiya deb ataladi. Uning mohiyati – aynan o'ziga o'xshash odamlar obrazi orqali o'zi to'g'risidagi obrazni shakllantirish, jonlantirishdir. Refleksiya “Men” – obrazi egasining ongiga taalluqli jarayondir. Masalan, ko'chada bir tanishingizni uchratib qoldingiz. Siz tinmay unga o'z yutuqlaringiz va mashg'ulotlaringiz haqida gapirmoqdasiz. Lekin gap bilan bo'lib, uning qaergadir shoshayotganligiga e'tibor bermadingiz. Shu narsani siz uning betoqatlik bilan sizni tinglayotganligidan, hayoli boshqa yerda turganligidan bilib qolasiz va shu orqali ayni shu paytda “mahmadona, laqmaroq” bo'lib qolganingizni sezasiz. Keyingi safar shu o'rtog'ingiz bilan uchrashganda, oldingi xatoga yo'l qo'ymaslik uchun “o'rtoq, shoshmayapsanmi?” deb so'rab ham qo'yasiz. Ana shu ilgarigi refleksiyaning natijasidir. Ya'ni, suhbatdosh o'rniga turib, o'zingizga tashlangan nazar (“men unga qanday ko'rinyapman?” deyish) – refleksiyaadir.

Shaxsning o'zi haqidagi obrazi va o'z-o'zini anglashi yosh va jinsiy o'ziga xoslikka ega. Masalan, o'ziga nisbatan o'ta qiziquvchanlik, kim ekanligini bilish va anglashga intilish ayniqsa, o'smirlik davrida rivojlanadi. Bu davrda paydo bo'ladigan “kattalik” hissi qizlarda ham, o'smir yigitchalarda ham nafaqat o'ziga, balki o'zgalar bilan bo'ladigan munosabatlarini ham belgilaydi. Qizlardagi “Men” – obrazining yaxshi va ijobiy bo'lishi ko'proq bu obrazning ayollik sifatlarini o'zida mujassam eta olishi, ayollik hislatlarining o'zida ayni paytda mavjudligiga bog'liq bo'lsa, yigitlardagi obraz ko'proq jismonan barkamollik mezonlari bilan nechog'lik uyg'un ekanligiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham o'smirlikda o'g'il bolalardagi bo'yning pastligi, muskullarning zaifligi va shu asosda qurilgan “Men” – obrazi qator salbiy taassurotlarni keltirib chiqaradi. Qizlarda esa tashqi tarafdin go'zallikka, kelishganlik, odob va ayollarga xos qator boshqa sifatlarning bor-yo'qligiga bog'liq holda “Men” obrazi mazmunan idrok qilinadi. Qizlarda ham ortiqcha vazn yoki terisida paydo bo'lgan ayrim toshmalar yoki shunga o'xshash fiziologik nuqsonlar kuchli salbiy emotsiyalarga sabab bo'lsa-da, baribir, chiroyli kiyimlar, taqinchoqlar yoki sochlarning o'ziga xos turmagi bu nuqsonlarni bosib ketadigan omillar sifatida qaraladi.

Ijtimoiy norma – shaxs hayotida shunday kategoriyaki, u jamiyatning o'z a'zolari xulq-atvoriga, ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan harakatlarga nisbatan talablaridir. Masalan, o'zbeklar uchun biror xonaga kirib kelgan insonning kim bo'lishidan qat'iy nazar, “Assalomu alaykum” deb kelishi – norma; o'quvchining o'qituvchi bergan topshiriqlarni bajarishi lozimligi – norma; xotinning er hurmatini o'rniga qo'yishi, qaynonaga gap qaytarmaslik – norma, avtobusda yoki boshqa jamoat transportida kichikning kattalarga, nogironlarga o'rin bo'shatishi – norma va hokazo. Bu normalarni ayrim – alohida odam ishlab chiqmaydi, ular bir kun yoki bir vaziyatda ham ishlab chiqilmaydi. Ularning paydo bo'lishi ijtimoiy tajriba, hayotiy vaziyatlarda ko'pchilik tomonidan e'tirof etilganligi fakti bilan xarakterlanadi, har bir jamiyat, davr, millat va ijtimoiy guruh psixologiyada muhrlanadi.

Ijtimoiy normalarning u yoki bu davrda, u yoki bu toifa vakili bo'lmish shaxs tomonidan qay darajada bajarilishi yoki unga amal qilinayotganligi ijtimoiy sanksiyalar orqali nazorat qilinadi. **Ijtimoiy sanksiyalar** – normalarning shaxs

xulqida namoyon bo'lishini nazorat qiluvchi jazo va rag'batlantirish mexanizmlari bo'lib, ularning borligi tufayli biz har bir alohida vaziyatlarda ijtimoiy xulq normalarini buzmaslikka, jamoatchilikning salbiy fikri ob'ektiga aylanib qolmaslikka harakat qilamiz. Masalan, yuqoridagi misolda, agar jamoat transportida katta mo'ysafid kishiga o'rin bo'shatishni norma deb qabul qilmagan o'smirga nisbatan ko'pchilikning ayblov ko'z bilan qarashi, yoki og'zaki tanbeh berishi, juda kam hollarda o'zini bebosh tutayotgan o'smirning qo'lidan tutib, nima qilish kerakligini o'rgatib, "ko'zini moshday qilib ochib qo'yish" ijtimoiy sanksiyaning hayotdagi bir ko'rinishidir.

Har bir alohida shaxs jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan va qabul qilingan ijtimoiy normalar va sanksiyalarni u yoki bu ijtimoiy rollarni bajarishi mobaynida xulqida namoyon etadi. **Rol** – shaxsga nisbatan shunday tushunchaki, uning aniq bir hayotiy vaziyatlardagi xuquq va burchlaridan iborat harakatlari majmuini bildiradi. Masalan, talaba rolini oladigan bo'lsak, uni bajarish – u yoki bu oliy o'quv yurtida tahsil olish, uning moddiy bazasidan foydalanish, kutubxonasiga a'zo bo'lish, stipendiya olib, ma'muriyatning ijtimoiy himoyasida bo'lish kabi qator huquqlar bilan birgalikda o'sha oliygoh ichki tartib-intizomi normalariga so'zsiz bo'ysunish, darslarga o'z vaqtida kelish, reyting baholov talablari doirasida kundalik o'zlashtirish normalarini bajarish, amaliyotda bo'lish, dekanatning bergan jamoatchilik topshiriqlarini ham bajarish kabi qator burchlarni ham o'z ichiga oladi. Bu rol uning uyga borgach bajaradigan "farzandlik" roli (ota va ona, yaqin qarindoshlar oldida) talab va imtiyozlaridan farq qiladi, ya'ni aniq bir shaxsning o'ziga xosligi va qaytarilmasligi u bajaradigan turli-tuman ijtimoiy rollarning xarakteridan kelib chiqadi. Shunga ko'ra, kimdir "tartibli, ba'mani, fozil, axloqli va odobli" deyilsa, kimdir – be'mani, bebosh, o'zgaruvchan, ikkiyuzlamachi (ya'ni, bir sharoitda juda qobil, boshqa yerda – betartib) degan hayotiy mavqega ega bo'lib qoladi.

Hayotda shaxs bajaradigan ijtimoiy rollar ko'pligi sababli ham turli vaziyatlardagi uning mavqei – statusi ham turlicha bo'lib qoladi. Agar biror rol shaxs ijtimoiy tasavvurlari tizimida uning o'zi uchun o'ta ahamiyatli bo'lsa (masalan, talaba roli), u boshqa rollarni unchalik qadrlamasligi va oqibatda, o'sha vaziyatda boshqacharoq, noqulay va noboproq mavqeni egallab qolishi mumkin. Qolaversa, rollarning ko'pligi ba'zan rollar ziddiyatini ham keltirib chiqarishi mumkinki, oqibatda – shaxs ichki ruhiy qiyinchiliklarni ham boshdan kechirishi mumkin. Masalan, sirdan taxsil olayotgan talaba sessiya paytida ishlab turgan korxonasiga komissiya kelishi va uning faoliyatini tekshirayotganligini bilib, ruhiy azobga tushadi – bir tomondan, talabalik va uning talablari, ikkinchi tomondan – kasbdoshlar oldida uyalib qolmaslik uchun har kuni ishxonaga ham borib kelish.

Hozirgi ijtimoiy–iqtisodiy vaziyat va bozor munosabatlari sharoitidagi raqobat muhiti shaxsdan bir vaqtning o'zida qator qobiliyatlar va malakalarni talab qilmoqdaki, ayniqsa, yoshlar o'zgaruvchan sharoitlarga tezroq moslashish uchun ba'zan bir-biriga zid hislatlarni ham xulqida namoyon qilishga majbur bo'lishmoqda. Masalan, yosh oila boshlig'i, talaba, ota-onalarga moddiy jihatdan qaram bo'lmaslik uchun, bir vaqtning o'zida ham itoatkor, intizomli talaba va ishdan keyin esa – chaqqon va uddaburon, tadbirkor, tijoratchilik bilan

shugʻullanishga majbur boʻlishi mumkin. Bu holat tabiiyki, shaxsdan kuchli iroda, doimiy intiluvchanlik va oʻz ustida muttasil ishlashni talab qiladi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. “Homo sapiens” tushunchasini izohlab bering.
2. Individ tushunchasini izohlab bering.
3. Shaxs tushunchasini izohlab bering.
4. Shaxs tuzilishining qanday tarkibiy qismlari bor?
5. K.K. Platonov shaxs tizimida qanday asosiy jabhalarni ajratgan?
6. Shaxsga taʼsir etuvchi makro muhitni tavsiflab bering.
7. Shaxsga taʼsir etuvchi mikro muhitni tavsiflab bering.
8. Xorn shaxsni boshqalar bilan muloqot obʼekti sifatida qarab, uning qanday toifalarini farqlagan?
9. Norakidze inson xulqi va unga undovchi ichki motivlarga koʻra shaxsning qanday tiplarini ajratgan?
10. “Men” – obrazi qanday obraz?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Diyanova, Z.V. Psixologiya lichnosti. Zakonomernosti i mexanizmy raxvitiya lichnosti: ucheb. posobie dlya bakalavriata i magistratury / Z.V. Diyanova, T.M. IJegoleva. – 2-ye izd., ispr. i dop. – M., 2019.
2. Kavun, L.V. Psixologiya lichnosti: Teorii zarubejnyx psixologov: ucheb.posobie dlya vuzov / L.V.Kavun. – 2-ye izd., ispr. i dop. – M., 2019.
3. Morozyuk, S.N. Psixologiya lichnosti. Psixologiya xaraktera: ucheb.posobie dlya akademicheskogo bakalavriati / S.N. Morozyuk. – M., 2019.
4. Serova, L.K. Psixologiya lichnosti sportsmena: ucheb.posobie dlya akademicheskogo bakalavriati / L.K. Serova. – 2-ye izd., ispr. i dop. – M., 2019.
5. Umumiy psixologiya: Oʻquvqoʻllanma / N.Sh. Umarova, D.N. Arzikulov; Masʼul muharrir O.E. Hayitov; Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi. – T., 2018.
6. Karimova V.M., Xolyigitova N.X. Psixologiya: Oʻquv qoʻllanma. – T., 2014.
7. David G. Myers. Psychology. Tenth Edition // Hope College Holland, Michigan. – NY., 2013.
8. Gʻoziev E. Umumiy psixologiya: Psixologiya mutaxassisligi uchun darslik / E. Gʻoziev; OʻzROOʻMTV, M.Ulugʻbek nomidagi OʻzMU. – T., 2010.
9. Karimova V., Hayitov O., Akramova F., Lutfullayeva N. Umumiy psixologiya: Nopedagogik va nopsixologik oily oʻquv yurtlari uchun darslik // V.M.Karimovaning umumiy tahriri ostida. – T., 2010.
10. Ivanov, P.I. Umumiy psixologiya: Pedagogika va psixologiya bakalavriat taʼlim yoʻnalishlari talabalari uchun darslik. / P.I. Ivanov, M.E. Zufarova; Masʼul muharrir D.M. Mirzajonova; OʻzROOʻMTV. – T., 2008.

1. <http://ziyonet.uz>
2. <https://biblio-online.ru/viewer/psihologiya-lichnosti-sportsmena-438413#page/1>
3. <https://biblio-online.ru/viewer/psihologiya-lichnosti-zakonomernosti-i-mehanizmy-razvitiya-lichnosti-438896#page/2>
4. <https://biblio-online.ru/viewer/psihologiya-lichnosti-teorii-zarubezhnyh-psihologov-438035#page/5>
5. <https://biblio-online.ru/catalog/full/pedagogika-psihologiya-socialnaya-rabota/psihologiya/psihologiya-lichnosti>

3-MAVZU.

CHET EL PSIXOLOGIYASIDA SHAXS NAZARIYALARI: ENDOPSIXIKA VA EKZOPSIXIKA, NATIVIZM VA EMPIRIZM, BIOGENETIK VA SOTSIIOGENETIK NAZARIYALAR

Reja:

3.1. Chet el psixologiyasida shaxs nazariyalari.

3.2. Nativizm va empirizm.

3.3. Biogenetik va sotsiogenetik nazariyalar.

3.4. Endopsixika va ekzopsixika.

Tayanch iboralar: shaxs nazariyalari, nativizm, empirizm, biogenetik nazariya, sotsiogenetik nazariya, endopsixika va ekzopsixika

3.1. Chet el psixologiyasida shaxs nazariyalari

3.1-jadval

Xorijiy shaxs nazariyalarining talqini

Shaxs nazariyalarining nomlanishi	Shaxs nazariyalarining qisqacha mazmuni
<i>Biogenetik</i>	Insonning biologik yetilishi bosh omil sifatida qabul qilingan bo‘lib, qolgan jarayonlarning taraqqiyoti ixtiyoriy xususiyat kasb yetib, ular bilan o‘zaro shunchaki aloqa tan olinadi, xolos deb qaraladi. Biogenetik qonunni F.Myuller va E.Gekkellar kashf qilishgan.
<i>Sotsiogenetik</i>	Bu nazariyaga ko‘ra individ o‘zgarmas genlar orasidag vaqtinchalik qobiq vazifasini bajaradi. Unga ko‘ra individning hayotdagi asosiy vazifasi ajdodlariga xos bo‘lgan narsalarni asrab-avaylashi va ularni kelajak avlod yetkazishdir deb qarashadi. Shuni alohida ta’kidlash kerak-ki, evolyusion va barcha individul yutuqlar ushbu muammoning yechimidagi vosita hisoblanadi.
<i>Psixogenetik</i>	U biogenetik, sotsiogenetik omillarning qimmatini kamsitmaydi, balki psixik jarayonlar taraqqiyotining birinchi darajali ahamiyatga ega deb hisoblaydi. Ushbu yondashishning uchta mustaqil yo‘nalishga ajratib tahlil qilish mumkin, chunki ularning har biri o‘z mohiyati, mahsuli va jarayon sifatida kechishi bilan o‘zaro tafovutlanadi.
<i>Kognitiv</i>	Kognitiv lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, o‘zbek tilida bilish degan ma’noni anglatadi. Psixologlar ushbu yondashuvni tasdiqlashlariga asosiy ichki omillar yoki tashqi olamdagi hodisalarga ko‘r-ko‘rona va mexanik javob beradigan mashina emasligini tasdiqlaganligi sababli ushlab turibdilar. Kognitiv yo‘nalishning

	<p>asoschilari qatoriga J.Piaje, Dj.Kelli va boshqalarni kiritish mumkin.</p>
<i>Psixoanali</i>	<p>Psixoanaliz nazariyasi eng avvalo Z.Freyd nomi bilan bog'liqdir. Ushbu nazariya nevroz holatini davolash metodi sifatida qo'llanilgan bo'lib, undan so'ng psixologik nazariya sifatida yuzaga keladi. Psixoanaliz nazariyasi shaxs dinamikasini tushuntirib berishga qaratilgan ilk psixologik qarashdir. Bu nazariya asosida psixologiya fanida tub burilish yuzaga keladi.</p>
<i>Analitik psixologiya</i>	<p>Karl Gustav Yung – shvesariyalik psixolog va faylasuf ushbu nazariyaning asoschisidir. U “o'zlik”ni – individuallikka intilish deb qaragan. Xarakterni shaxsning yetakchi vazifasi deb hisoblab unga bog'langan holda shaxs tipologiyasini ishlab chiqqan.</p>
<i>Bixeviorizm</i>	<p>Biogenetik nazariyaning yirik namoyandalaridan biri bo'lmish amerikalik psixolog S.Xoll va nemis psixologi Ye.Krechmerdir. Ularning fikricha, ontogenezdagi individual taraqqiyot filogenezning muhim bosqichlarini takrorlaydi. Olimlarning talqiniga binoan, go'daklik hayvonlarga xos taraqqiyot pallasini qaytarishdir va shaxs (psixologiyasi) tipologiyasi negiziga bir qancha biologik omillardan tashkil topgan, insonning jismoniy tipi bilan o'sishining xususiyati o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud, deb taxmin qilishadi</p>
<i>Sotsial madaniy nazariya</i>	<p>K.Xorni ushbu nazariyaning asoschilari hisoblanadi. Xorning ta'kidlashicha, bolaning rivojlanishida ular va ota-onalari o'rtasidagi sotsial munosabatlar hal etuvchiligini aniqladi. Bolalik davrida ikkita ehtiyoj xos, qoniqish va xavfsizlikka ehtiyoj. Birinchisi, barcha biologik ehtiyojlarni qamrab olsa, ikkinchisi esa bolaning rivojlanishi uchun zarur. Bu sevimli, ardoqli va tashqi olamdagi xavf-xatar yoki dushmanliklardan himoyalanihga intilish sanaladi.</p>
<i>Gumanistik psixoanaliz</i>	<p>E.Fromm nazariyasining asosiy holati quyidigacha: Inson mavjudligining bosh ziddiyati – tevarak olamdan mustaqillik va yerkinlikka intilish, xavfsizlikka va sotsiumga mansublikka intilish o'rtasidagi ziddiyatdir deb ta'kidlaydi</p>
<i>Individual psixologiya</i>	<p>Alfred Adler individual psixologiyaning asoschisi hisoblanadi. Inson – yagona va o'zini o'zi muvofiqlashtiruvchi organizm; <i>individuum</i> (lot.) – bo'linmas. Inson hayotiy faolligining hech bir namoyon bo'lishini izolyatsiyada ko'rib bo'lmaydi, lekin faqat shaxsga munosabatda to'liq ko'rib chiqish mumkin.</p>

3.2. Nativizm va empirizm

Shaxs bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqalar masalasida birdaniga, bir xil yechimga kelinmagan. Bu o'zaro munosabatlar asosan ikki nuqtai nazardan kelib chiqadi.

Nativizm yo'nalishining tarafdorlari insonlardagi barcha xususiyatlarni tug'ma xarakterga ega, deb e'tirof etadilar (*Lens, Gruber* va boshqalar).

Empirizm tarafdorlarining fikricha, yangi tug'ilgan bola go'yoki "top-toza taxta" (*tabula rasa*), unga hayot va undagi talablar o'zining qonuniyatlarini yozadi va bola ularga so'zsiz bo'ysunishga majbur. Bu yo'nalishning asoschilaridan biri *J.Lokk* bo'lib (1632–1704), uning fikricha, tug'ma fikrlar yoki g'oyalalar bo'lishi mumkin emas, ular xohish-tilak va og'riq kabi elementar sezgilarning qayta ishlanishi natijalaridir. Hayotda ana shunga o'xshash turli xil sezgilar va g'oyalarning assotsiatsiyasi ro'y beradi.

G.Leybnis (1646–1716) Lokka e'tiroz bildirib, hayotda umuman toza, sof doskaning o'zi bo'lmaydi, hattoki, eng yaxshi silliqlangan marmar yuzasida ham sezilarli teshiklar, do'ngliklar yoki tug'ma asoratlar bo'ladi-ki, ular odamning sezish va bilish organlari vositasida anglanishi mumkin. Xuddi shunday, inson bolasi ham tug'ilishdan muayyan belgilar, xususiyatlar bilan tug'iladi-ki, ularni biz layoqatlar, iqtidor, genetik xususiyatlar, deb ataymiz. Aynan shu tug'ma belgilar inson taqdirida ma'lum rol o'ynaydi, lekin yetakchi, sezilarli ta'sirlar hayotning keyingi bosqichlarida, turli faoliyatlarni (o'yin, o'qish, mehnat va muloqot) amalga oshirish jarayonida bilinib, shaxs sifatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shaxsga taalluqli bo'lgan eng muhim tasnif ham uning jamiyatdagi murakkab ijtimoiy munosabatlarga bevosita aloqadorlik, ijtimoiy faoliyatga nisbatan ham ob'ekt, ham sub'ekt bo'lishlikdir.

Shaxsga taalluqli bo'lgan fazilatlardan eng muhimi shuki, u shu tashqi, ijtimoiy ta'sirlarni o'z ongi va idroki bilan qabul qilib (ob'ektni), so'ngra shu ta'sirlarning sub'ekti sifatida faoliyat ko'rsatadi. Oddiy qilib aytganda, inson bolasi ilk yoshlikdanoq "mening hayotim", "bizning dunyo" degan ijtimoiy muhitga tushadi. Bu muhit o'sha biz bilgan va har kuni his qiladigan siyosat, huquq, axloq olamidir.

Shaxs ijtimoiy xulqiga turli tashqi kuchlar, ijtimoiy munosabatlar majmui ta'sir qiladi: siyosiy, mafkuraviy, iqtisodiy, ma'naviy, axloqiy va boshqalar. Bu ta'sirotlar mohiyatan aslida jamiyat a'zolari bo'lmish shaxslar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ayrim alohida yo'nalishlarini belgilab beradi.

Shunday qilib, shaxs turli ijtimoiy munosabatlar tizimi ta'sirida bo'ladi va ko'plab ijtimoiy institutlar (oila, mahalla, o'quv maskanlari, mehnat yoki sport jamoalari, norasmiy tashkilotlar, din, san'at, madaniyat va boshq.) bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, shaxsdagi turli g'oyalalar, fikrlar va e'tiqodiy dunyoqarashlar mafkuraviy munosabatlar tizimi ta'sirida shakllanib, ular bevosita oila, bog'cha, maktab va boshqa o'quv va tarbiya muassasalari orqali ongga singdiriladi. Agar bu ta'sir uning e'tiqodi darajasida ko'tarilsa, va unda yana yangidan-yangi fikrlar va g'oyalarning paydo bo'lishi va o'sishiga olib kelsa, u shaxsning maslagiga aylanadi hamda u hayoti jarayonida shunday faoliyat sohasini tanlaydiki, o'z

qobiliyatlari, malaka va ko'nikmalarini rivojlantira borib, ziyoli sifatida yo o'qituvchi, yoki vrach, yoki olim, kashfiyotchi, muhandis bo'lib, elu-yurtiga xizmat qiladi.

Hozirda fan-texnika rivojlanayotgan bir vaqtda insoniy munosabatlarni boshqarish masalasi dolzarb bo'lib turibdi.

3.3. Biogenetik va sotsiogenetik

Ayni vaqtda dunyo miqyosida global tarzda *ijtimoiy stereotiplar* barham topib, o'zgarib boshladi. Kechagina mumkin bo'lmagan narsalarga bugun ruxsat bor, kecha umuman erkinlik, demokratiya tushunchalarini g'arb, G'arb madaniyati deb e'tirof etgan bo'lsak, bugun butun jamiyat bu jarayonlar bilan yashay boshladi, buning natijasida inson ongi, uning boshqalarga munosabatlari ham o'zgaribdi.

Bugungi kunda shaxsni o'rganishga turlicha yondashuvlar mavjud.

Masalan, Z.Freydda **shaxs tuzilmasi**, A.Adler, K.Xornida **individual psixologiya**, E.Frommda **shaxs destruktivligi** masalalari va boshqalar.

Gumanistik psixologiya, bixeviorizm maktabi olimlari shaxsini o'rganishda turlicha yondashuvlarga murojaat qiladilar va muammo mohiyatini yoritishda o'ziga xos pozitsiyaga egadirlar.

Va yana shular qatorida shaxsning biogenetik, sotsiogenetik, psixogenetik, kognitivistik kabi nazariyalarini ham sanash mumkin.

Biogenetik nazariyada insonning biologik yetilishi bosh omil sifatida qabul qilingan bo'lib, qolgan jarayonlarning taraqqiyoti ixtiyoriy xususiyat kasb etib, ular bilan o'zaro shunchaki aloqa tan olinadi, xolos. Mazkur nazariyaga binoan, taraqqiyotning bosh *maqsadi* – biologik determinantlariga (aniqlovchilariga) qaratiladi va ularning mohiyatidan sotsial-psixologik xususiyatlar keltirilib chiqariladi.

Taraqqiyot jarayonining o'zi, dastavval biologik yetilishning universal bosqichi sifatida sharhlanadi va talqin qilinadi. Biogenetik qonunni **F.Myuller** va **E.Gekkellar** kashf qilishgan. Biogenetik qonunga ko'ra, shaxs psixologiyasining individual taraqqiyoti (ontogenez) butun insoniyat tarixiy taraqqiyotining (filogenez) asosiy bosqichlarini qisqacha takrorlaydi, degan g'oya yotadi. Bu esa noto'g'ri g'oyaning shakllanishiga olib kelgan.

Biogenetik nazariya qarama-qarshi bo'lgan yana bir nazariya yuzaga keladi bu – **sotsiogenetik** nazariya hisoblanadi. Bu yondashuvga asosan, shaxsda ro'y beradigan o'zgarishlar jamiyatning tuzilishi, uning ijtimoiylashuvi, uni qurshab turgan damlar bilan o'zaro munosabatidan kelib chiqqan holda tushuntiriladi. Ushbu nazariyaga ko'ra, inson biologik tur sifatida tug'ilib, hayotning ijtimoiy shart-sharoitlarining bevosita ta'siri ostida shaxsga aylanadi.

3.4. Endopsixika va ekzopsixika

V.M.Bexterevning ta'kidlashicha **shaxs** – organik va sotsial sohaning chambarchas birligi hisoblanadi va ikki sohani mukammal o'zlashtirgandagina to'laqonli shaxsga aylanadi.

A.F.Lazurskiyning **shaxs konsepsiyasi**da – shaxsning sotsial muhitga moslashuvi bo‘lib, u keng ma’noga tushuniladi (tabiat, narsalar, insonlar, insoniy munosabatlar, g‘oyalar, estetik, axloqiy, diniy qadriyatlar va boshqalar). Shaxsning atrof muhitga moslashuvi har xil psixik darajada bo‘ladi: **yuqori, o‘rta, quyi**. Bu darajalar shaxsning psixik rivojlanish darajasini ifodalaydi. Lazurskiy shaxsni ikkita psixik mexanizmni birligi sifatida talqin qilgan, endopsixika va ekzopsixika.



3.1-rasm. Shaxsning psixik mexanizmi (Lazurskiy bo‘yicha)

Bu ikki jihat bir biri bilan o‘zaro bog‘liq, bir-biriga ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, xayolning rivojlanganligi ijodiy faoliyatni sharlovchi, yuqori sezgirlik va qo‘zg‘aluvchanlik – san’atga mashg‘ul bo‘lishga imkon beradi.

V.N.Myasiщev shaxs konsepsiyasini shaxsning tuzilmasini tahlil qilishga e’tibor qaratgan. Shaxs konsepsiyasining asosiy elementi – **munosabat**. Shaxs munosabatlari – bu shaxsning voqelikni har xil tomonlari bilan shaxsni faolligi, ongli, integral, tanlovchanlikka asoslangan tajribasiga bog‘liqligidir.

Myasiщevning munosabat tuzilmasi:

1. emotsional (emotiv);
2. baholovchi (kognitiv);
3. xulqiy (konativ).

A.G.Kovalevning shaxs konsepsiyasiga ko‘ra shaxs psixik jarayonlar, xususiyatlar va holatlarning integral tuzilmasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bilamizki, inson psixik faoliyatining poydevorini psixik jarayonlar tashkil etadi. Psixik jarayonlar psixik faoliyatning funksional darajasini xarakterlovchi psixik holatlarni shakllantiradi.

A.N.Leontev shaxs tuzilmasini tadqiq qilishi davomida shaxsning uchta asosiy parametrini ajratib ko'rsatadi:

1. insonning olam bilan aloqalarining kengligi;

2. ma'no hosil qiluvchi motivlarning o'zlashtirish ierarxiyasida bu aloqalarning ierarxialashgan darajasini aks ettirishi;

3. bu aloqalarning umumiy tuzilmasi, aniq motivlar va maqsadlar majmui.

S.L.Rubinshteyn shaxsga yondashuvlarini:

1. *Yo'nalganlik* – ehtiyojlar, qiziqishlar, ideallar, e'tiqodlar, faoliyat va xulqning ustuvor motivlari hamda dunyoqarashlarida;

2. *Bilimlar, ko'nikmalar, malakalar* – hayot va faoliyat jarayonida egallanishida;

3. *Intividual tipologik xususiyatlar* – temperament, xarakter, qobiliyatlarga aks etishida deb ta'kidlaydi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Xorijiy shaxs nazariyalarining mohiyatini tushuntirib bering.
2. Nativizm va empirizm mohiyatini tushuntirib bering.
3. Biogenetik va sotsiogenetik nazariyalar mohiyatini tushuntirib bering.
4. Endopsixika va ekzopsixika mohiyatini tushuntirib bering.
5. V.N. Myasincev shaxs konsepsiyasini mazmuni qanday?
6. A.G. Kovalevning shaxs konsepsiyasi haqida nimalarni bilasiz?
7. A.N. Leontevning shaxs tuzilmasi haqida nima deya olasiz?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Diyanova, Z.V. Psixologiya lichnosti. Zakonomernosti i mexanizmy raxvitiya lichnosti: ucheb. posobie dlya bakalavriata i magistratury / Z.V.Diyanova, T.M.Щегoleva. – 2-ye izd., ispr. i dop. – M., 2019.
2. Kavun, L.V. Psixologiya lichnosti: Teorii zarubejnyx psixologov: ucheb.posobie dlya vuzov / L.V.Kavun. – 2-ye izd., ispr. i dop. – M., 2019.
3. Morozyuk, S.N. Psixologiya lichnosti. Psixologiya xarakter: ucheb.posobie dlya akademicheskogo bakalavriati / S.N.Morozyuk. – M., 2019.
4. Serova, L.K. Psixologiya lichnosti sportsmena: ucheb.posobie dlya akademicheskogo bakalavriati / L.K.Serova. – 2-ye izd., ispr. i dop. – M., 2019.
5. Umumiy psixologiya: O'quvqo'llanma / N.Sh.Umarova, D.N.Arzikulov; Mas'ul muharrir O.E.Hayitov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T., 2018.
6. Karimova V.M., Xolyigitova N.X. Psixologiya: O'quv qo'llanma. – T., 2014.
7. David G. Myers. Psychology. Tenth Edition // Hope College Holland, Michigan. – NY., 2013.
8. G'oziev E. Umumiy psixologiya: Psixologiya mutaxassisligi uchun darslik /

- E.G'oziev; O'zR OO'MTV, M.Ulug'bek nomidagi O'zMU. – T., 2010.
9. Karimova V., Hayitov O., Akramova F., Lutfullayeva N. Umumiy psixologiya: Nopedagogik va nopsixologik oily o'quv yurtlari uchun darslik // V.M.Karimovanning umumiy tahriri ostida. – T., 2010.

Elektron ta'lim resurslari

6. <http://ziyonet.uz>
7. <https://biblio-online.ru/viewer/psihologiya-lichnosti-sportsmena-438413#page/1>
8. <https://biblio-online.ru/viewer/psihologiya-lichnosti-zakonomernosti-i-mehanizmy-razvitiya-lichnosti-438896#page/2>
9. <https://biblio-online.ru/viewer/psihologiya-lichnosti-teorii-zarubezhnyh-psihologov-438035#page/5>
10. <https://biblio-online.ru/catalog/full/pedagogika-psihologiya-socialnaya-rabota/psihologiya/psihologiya-lichnosti>.

4-MAVZU. MARKAZIY OSIYO MUTAFFAKIRLARI IJODIDA SHAXS KAMOLATI

Reja:

- 4.1. Markaziy Osiyo mutaffakirlari ijodida shaxs kamoloti masalasi
- 4.2. Abu Rayhon Beruniyning shaxs kamolotiga oid qarashlari.
- 4.3. Abu Ali ibn Sinoning shaxs kamolotiga oid qarashlari.
- 4.4. Abu Nasr Farobiy, Abu Abdulloh al Xorazmiy va Yusuf xos Hojiblarning shaxs kamolotiga oid qarashlari.

Tayanch iboralar: shaxs kamoloti, sharq mutafakkirlari, Beruniy, ibn Sino, Farobiy, al Xorazmiy.

4.1. Markaziy Osiyo mutaffakirlari ijodida shaxs kamoloti masalasi

Barkamol inson deganda ma'naviy jihatdan yetuk, o'z Vatanining tarixi, buguni va kelajagi uchun qayg'uradigan, shuningdek jamiyatning iqtisodiy taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shish ishtiyoqida yonib yashaydigan shaxsni tushunish bugungi kun talabiga mos keladi. Lekin ushbu tushunchaga tahliliy yondashilsa, uning naqadar serqirra, murakkab va har tomonlama umuminsoniy qadriyatlarga mos kelishini idrok etish mumkin. Aytish mumkinki, barkamol insonning shakllanishi uning munosib kasb-hunar egallashi, jamiyat taraqqiyoti uchun baholi qudrat o'z hissasini qo'shib yashashi va shu orqali jamiyatda o'zligina namoyon etishi, ya'ni shaxs sifatida kamol topishi nazarga olinadi. Komillik sari intilish shaxsning kasbiy shakllanishi bilan birgalikda yaxlit holda kechadigan va deyarli bir umr davom etadigan murakkab jarayondir. Keng ma'noda kasbiy shakllanish deganda insonning o'z aqliy qobiliyatlari, jismoniy imkoniyatlari u yoki bu sohaga bo'lgan layoqatlari, qiziqish va intilishlari, shuningdek, qadriyat va dunyoqarashlariga ko'ra birorbir kasb sohasida ta'lim olishi, keyinchalik shu sohaga kirishib moslasha borishi va nihoyat yillar davomida yetuk va malakali mutaxassis bo'lib yetishishi tushuniladi. Haqiqatdan ham bu cheksiz, murakkab, orqaga qaytarilmaydigan muhim jarayon bo'lib, unda inson manfaatlari yo'lida unumli foydalanishni tashkil etish bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir. Kasbiy shakllanish jarayonining dastlabki va ayni damda o'ta muhim bosqichi bo'lajak kasbni tanlash, ya'ni aniq bir kasbiy qarorga kelishigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Ma'lumki, yoshlarning kasb tanlashga tayyorgarlik darajasi faqatgina yosh xususiyatga bog'liq emas, u ma'lum yoshga kelib o'z-o'zidan shakllanib qolmaydi. Yoshlarning kasb tanlashini adekvat (to'g'ri) shakllantirishda Sharq mutafakkirlari qarashlaridan foydalanish ham muhimdir. Sharqda yoshlarga ta'lim va tarbiya berish, ularga kasb-hunar o'rgatish qadimiy an'analardan hisoblanadi.

IX-XII asrlarda yashab ijod etgan allomalarimizning shaxs kamolotiga oid tarbiyaviy qadriyatlar mazmuni aks etgan asarlari sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

Abu Nasr Farobiyning "Fozil odamlar shahri", "Buyuk aql haqida so'z" ("Kalom fi-l aql al-kabir"), "Quyi aql darajasi haqida so'z" ("Kalom fil aql as-

sag'ir"), "Ilmlarning kelib chiqishi va ta'rifi" ("Kitob fi ixso alulum va at-ta'rif", qisqacha nomi "Ixso al-ulum"), "Musiqqa haqida katta kitob" ("Kitob ul-musiqo al-kabir"), "Baxt-saodatga erishuv yo'llari haqida risola" ("Risola fi-t tanbih ala asbob as-saodat") asarlari;

Abu Ali ibn Sinoning "Kitob ash-shifo", "Tib qonunlari", "Donishnoma", An-Najot, Xay ibn Yakzon, Salomon va Ibsol, "Risolai fil-ishq" asarlari;

Imom Buxoriyning "Al-Jome' as-Sahih", "Adab ul-mufrad", "Tarix ul-kabir", "Musnad ul-kabir", "Kitobu asmoi sahoba", "Tafsir ul-kabir", "Sulosiyatul Buxoriy", "Hadis un-Nabaviy", "Tarix us-sag'ir", "Zuafu us-sag'ir" asarlari;

Imom G'azzoliyning "Ey farzand", "Kimyo saodat", "Ihyo-ul-ulum id-din", "Oxiratnoma" kabi asarlari shular jumlasidandir.

Xalqimizning yosh avlod tarbiyasiga qay darajada e'tibor berishini ko'rsatuvchi turli-tuman naqlar, rivoyatlar va maqollarning asrlar osha to'planib kelganligini ham alohida qayd etish o'rinlidir. Jumladan, "Ustozdan o'zmagan shogird, shogird emas", "Hunarli kishi xor bo'lmas" yoki "Bir yigitga yetmish hunar oz" kabi ko'plab hikmatli so'zlar borki, ular qadim-qadimdan otabobolarimiz yosh avlodni ruhan va jismonan barkamol hamda o'ziga munosib biror-bir kasb-hunar egasi bo'lib yetishishlariga da'vat etib kelganlarining yaqqol isbotidir. Sharq mutafakkirlari ta'limotida yoshlarga ta'lim va tarbiya berish bilan birga ularni kasb-hunarga o'rgatish g'oyasi ham muhim o'rin egallaydi. Jumladan, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Ahmad Donish, Davoniy va boshqalar tomonidan yozilgan asarlarda muammo atroflicha talqin qilingan.

4.2. Abu Rayhon Beruniyning shaxs kamolotiga oid qarashlari

Mustaqil O'zbekiston o'zining dadil qadamlarini qo'yayotgan hozirgi davrda ko'pgina sohalarda ulkan o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Milliy ma'naviyatlarimizni o'rganishga bo'lgan qiziqish, intilish tobora o'sib bormoqda. Xalqning o'z milliy tarixini o'rganishga bo'lgan intilishi, qiziqishi hozir shu sohada ko'proq izlanishlarga undamoqda. Ko'pgina fanlar qatori psixologiya fani ham o'zining rivojlanish, taraqqiyot bosqichlariga qayta-qayta murojaat qilmoqda. O'tmish mutafakkirlarining psixologiya haqidagi fikrlar, bu hozirgi fan taraqqiyotini, har taraflama uning oldida turgan muammolarni ob'ektiv yondoshish asosida, to'g'ri ochib berish uchun muhim omil bo'la oladi. Ayniqsa Sharq mutafakkirlarining inson ruhiyati, uning holati, xatti-harakati haqidagi fikrlari hozirda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan holda qiziqish uyg'otmoqda.

Inson qaerda mehnat qilmasin va hatto o'zi-o'zi bilan yakka qolganda ham unda psixologik kechinmalar yuz beradi. Insoniyatning rivojlanishi, taraqqiyoti ko'pgina hollarda aynan mana shu ruhiy kechinmalarga bog'liqdir. Uning tafakkuri, ongi, irodasi, xotirasi, sezgisi qo'yingki hamma psixologik kechinmalari, holatlari va xususiyatlari albatta uning hayotining ajralmas qismidir. Shuning uchun ham bizda qadimda, ayniqsa Sharq mamlakatlarida inson ruhiyati haqida qanday fikrlar bo'lganligini bilish juda ham muhimdir.

Psixologiya tarixi fanining o'rganish ob'ektlaridan biri bo'lgan Sharq mamlakatlari, o'zining qadimiyligi bilan, davlatchilik sohasida, fan bilan bog'liq

ilk fikrlarning paydo bo'lishi sohasida Yer kurrasining rivojlanish paydo bo'lgan eng muhim joylaridandir.

O'rta Osiyoda psixologik fikrlarning vujudga kelishida va bu fikrlarning rivojlanishida qadimiy Sharq mutafakkirlarining falsafiy qarashlari nihoyatda katta rol o'ynagan. Bunday mutafakkirlarga Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sinoni, Abu Rayhon Beruniy va boshqalarni kiritish mumkin.

Sharq allomalari inson aqlini yuksakka ko'tardi va uning qobiliyatiga ishonadi. Barkamol avlodni tarbiyalash insoniyatning eng yorqin orzusi bo'lib kelgan.

Abu Rayhon Beruniy (Abu Rayxon Muxammad ibn Axmad al-Beruniy) jahon fanining taraqqiyotiga g'oyat ulkan hissa qo'shgan zo'r iste'dod egasi va zahmatkash tadqiqotchi edi. Uning o'lmas ilmiy asarlari jahon sivilizatsiyasida yuksak ahamiyatga ega.


Abu Rayhon Beruniy 973 yil 4 sentabr (hijriy 362 yil 2 zulxijja) kuni Xorazmning qadimgi poytaxti Kat shahrida dunyoga keldi.

Olimning to'liq ismi Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad-al Beruniydir.

Beruniy Xorazmdalik paytida zamondoshi, buyuk tabib va faylasuf Abu Ali ibn Sino bilan ilmiy yozishmalar olib boradi.

Quyida biz olimning shaxs kamolotiga qarashlarining ayrimlarini keltirmoqchimiz.

Abu Rayhon Beruniy butun umrini ilmga bag'ishladi, o'zi hayot ekan paytidayoq o'sha davrning eng buyuk olimi va mutafakkiri sifatida tanildi. Beruniy



ilm-fan rivojiga g'oyat katta hissa qo'shdi. "Aql va ma'rifatda hali unga o'xshash biror kishini davron yarata olgani yo'q", - deb yozgan edi XIII asr tarixshunosi Yoqut.

Beruniy ilmiy bilimlarni egallash yo'llari, usullari haqidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham dolzarbdir.

O'quvchiga bilim berishda:

- ✓ o'quvchini zeriktirmaslik;
- ✓ bilim berishda bir xil narsani yoki bir xil fanni o'rgatavermaslik;
- ✓ yangi mavzularni qiziqarli, asosan, ko'rgazmali bayon etish va hokazoga e'tibor berish kerakligini o'qtiradi.

Abu Rayhon Beruniy fan sohasidagi yodgorliklarni, ilmiy bilimlarga oid qoldirgan barcha boyliklarni qunt bilan o'rganishga da'vat etadi.

Olim ilm toliblariga qalbni yomon illatlardan, inson o'zi sezishi mumkin bo'lmagan holatlardan, behuda raqobatdan, ochko'zlikdan, shon-shuhratdan saqlanish zarurligini uqtirgan.

Shuningdek, har bir xalqning o'ziga xos ta'lim usullari, yo'llari, shakllari borligini ta'kidlash bilan birga, har bir xalqning ham o'qitish tizimi alifbodan boshlanishni ko'rsatadi. Grammatika, matematika fanlarini o'qitishga oid qimmatli fikrlar bayon etadi.

Beruniy til va adabiyot, tarix, geografiya, geodeziya, geologiya, mineralogiya fanlari, tibbiyot va dorilshunoslik, fizika, falakiyot ilmiga oid tadqiqotlarini o'zi targ'ib etgan nazariya hamda kuzatishlar natijasida amaliyotda

sinab ko'rib, fan haqiqat ustuvor turishini ta'kidlaydi.

U barcha illatlarning asosi ilmsizlikda deb bildi. Imlarni egallashda esa shaxsda sababi intilish va qiziqish, muhitni alohida ta'kidlaydi.

Bilim olishda tushunib o'rganish, ilmiy tadqiqotchining poklikka rioya etishga alohida e'tibor beradi, jamiyatning ravnaqi ma'rifatning rivojiga bog'liq degan g'oyani ilgari suradi.

Beruniy ta'lim berish kishi ruhiyatiga, qobiliyatiga mos, uni toliqtirmaydigan bo'lishiga e'tibor beradi va shunday yozadi: "Bizning maqsadimiz o'quvchini toliqtirib qo'ymaslikdir. Hadeb bir narsani o'qiy berish zerikarli bo'ladi va toqatni toq qiladi. Agar o'quvchi bir masaladan boshqa bir masalaga o'tib tursa, u xuddi turli-tuman bog'-rog'larda sayr qilgandek bo'ladi, bir bog'dan o'tar-o'tmas, boshqa bog' boshlanadi. Kishi ularning hammasini ko'rgisi va tomosha qilgisi keladi. "Har bir yangi narsa rohat bag'ishlaydi" - deb behuda aytilmagan".

Beruniy kishilar hayotidagi yomonlikni qoralaydi. Uning fikricha, bu illatni yo'qotishning asosiy yo'li uning ildizlarini topish va kesib tashlashdir. Yomonlikning shaxobchalari ko'p, ammo ularning asosi uch narsa: **ta'ma, g'azab** va **ilmsizlik**dir. Agarda bu asoslar qirqib tashlansa, shaxobchalar quriydi. Bu asoslarning negizi esa ishtaha va g'azabdir. Ishtaha insonga eng kuchli va eng halokatli dushman bo'lib, insonni ovqatlarni tanovul qilish lazzati va o'ch olish zavqi bilan aldaydi. Olimning tushuntirishicha, bu illatlar, ranj va gunohga olib keladi. Ularning ta'siriga berilib ketgan kishi insonlik qiyofasini yo'qotadi. Beruniy bunday kishilarni yirtqich va to'rt oyoqli hayvon, hattoki shayton va iblis deb hisoblaydi.

Beruniy rostgo'ylik, to'g'riso'zlikni ulug'laydi, yolg'onchilikni odamlar o'rtasiga nizo soluvchi illat sifatida qoralaydi. Olimning uqtirishicha, biror kishi keltirgan xabarni o'z ko'zi bilan ko'rish, bilish va u haqda aniq tasavvurga ega bo'lgan ma'qul deydi.

Xabarga yolg'on aralashmasligi lozim. Xabar rost va yolg'on bo'lishi mumkin. Chunki odamlarning maqsadlari xilma-xil bo'ladi. Shu sababli xalqlar o'rtasida tortishish yuz beradi. Beruniy yolg'onchilik tufayli kishi adolatdan yuz o'girishi mumkinligini aytib, yolg'on so'zlovchilar omonatga xiyonat qilishi, boshqalar mulkini hiyla bilan bosib olishi, o'g'irlik qilishi, umuman, jamiyat va xalqning buzilishiga sabab bo'lishini ta'kidlaydi.

Beruniy **rostgo'ylik**ni adolat bilan barobar qo'yadi. Uning fikricha, xalq adolatni sevgani kabi rostgo'ylikni ham sevadi. Ammo uning mohiyatini, yoqimlilikini bilishni istamaydigan kishi uni sevmaydi.

Beruniy "Hinduston" kitobining yettinchi bobida ma'rifat va bilimdonlik darajasi, kishilarning mulohaza yuritish holati to'g'risida fikr bildiradi. Bobdan o'rin olgan hikoyada olim shunday voqeani bayon etadi:

"Bir ustoz o'z shogirdlari bilan qorong'i kechada yo'l bosib borar edi. Ular yo'l bo'yicha tik turgan bir koroltinga duch keladilar. Ustoz shogirdlaridan uning nima ekanini aytishni talab qiladi. Shogirdlaridan biri bilmayman, ikkinchisi ham bilmayman va bilishga qudratim yetmaydi, deb javob beradi. Uchinchisi esa tong

yorishsa, ma'lum bo'ladi, qo'rqinchli narsa bo'lsa, tong yorishishi bilan yo'qolib ketadi. Qo'rqinchli narsa bo'lmasa ahvoli ravshan bo'ladi, deb javob qildi".

Beruniy uch shogirdning ahvolini, qobiliyatini ularning javoblaridan bilib oladi: olimga birinchi va ikkinchi shogirdning ilmsizligi, uchinchisining ishni keyinga surishi, ilmsiz bo'lsa ham, ma'rifatga intilishi namoyon bo'ladi. Shu tufayli Beruniy uning javobini ma'qullaydi.

Bu shogird koroltinga borib, bir-biriga chirmashib ketgan qovoq palagini ko'radi, koroltin jonsiz narsa ekaniga ishonadi, biror ihota emasmikan deb shubhalanadi-da, tepib yuboradi, koroltin ag'anadi. Shunda shogird uning ihota ekaniga to'la ishonadi. Barcha ko'rgan, bilganlari haqida ustoz Beruniyga xabar qildi va uning qarshisida e'tibor qozondi.

Demak, har bir narsani aniq, sinchiklab o'rganish, bilish va shundan so'nggina bir xulosaga kelish kerak. Beruniy bu ishda tajribaga asoslanishni alohida uqtiradi, nodonlik, erinchoqlik, ilmsizlikni tanqid qiladi.

Olimning ta'kidlashicha, sezgi o'z qo'zg'atuvchi a'zolari orqali yuzaga keladi. Qo'zg'atuvchilar bir me'yorda bo'lsa, yoqimli va zararsiz, agarda me'yordan ortiq bo'lsa, dardli va halokatli bo'ladi.

Ko'rish sezgisini nur qo'zg'atadi, hidlash havo bilan burunga uriladigan hidlar orqali paydo bo'ladi, ta'm-oziqaning mazasi bilan vujudga keladi. Bu to'rt sezgini his etuvchi maxsus a'zolar tanada mavjuddir. Beshinchi sezgi esa, butun badandagi voqeadir.

Beruniy ana shu xususiyatlari bilan insonning barcha mavjudotlardan ustunligini ta'kidlab, insonning asosiy vazifasi mehnat orqali ko'zlagan maqsadiga erishish, yaxshilik orqali yaxshilik ko'rishdir, degan g'oyani olg'a suradi va bu fikrini Robi'a qabilasidan chiqqan A'sho nomli shoirning quyidagi misralari orqali quvvatlaydi:

*Mening qalbim ikki biqinim o'rtasida turib,
Ko'zlarning ko'rgani quloqlarning eshitganini anglaydi.*

Bu satrlarda bilim eshitish va ko'rish orqali egallanishi va u qalbgga bog'liqligi ta'kidlanadi.

Beruniy bu fikr to'g'riligining isboti uchun shoir Abu Tammomning quyidagi misralarini keltiradi:

*Barcha donolar deydilarki,
Mardning tili – qalbining malayidir.*

Abu Rayhon Beruniy ham inson bilimlarni aqlning sezgi a'zolari bergan ma'lumotlar orqali egallashini aytadi.

Abu Rayhon Beruniy ruh va ruhiyat masalalariga zo'r qiziqish bilan qaraydi. Buning sababi bor, albatta. Eng avvalo olim o'zidan oldin o'tgan yunon va Rim, Sharq olimlari, jumladan Muhammad Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy va boshqa mutaffakirlarning asarlarini qund bilan o'rgangan va ruxiyatga doir qarashlarning ahamiyatini, mohiyatini tushunib yetgan. Qolaversa, insonni o'qitishda va

tarbiyalashda odam ruxiyatini bilish zarurligini anglagan. Bulardan tashqari insonlar bilan o‘zaro munosabatlarda ruxiy jarayonlarni bilish lozim ekanligini yaxshi tushungan.

Beruniy ruxiy jarayonlarni barcha hayvonlarga va odamlarga xos deb bildi. Hayvon ruxiyati ongsiz xarakterga, insonga esa ongli, mantiqiy fikrlashga, mantiqiy xulosalar chiqarishga qodir, odamga faol asab xizmatlari mavjud deb ko‘rsatadi.

Beruniy olamni ob‘ektiv reallik, inson irodasidan tashqarida, mustaqil ravishda mavjud bo‘lgan borliq sifatida qaraydi. Beruniy kishi ongi, tafakkuri va ruhiyatini moddiy jismdan keltirib chiqargan holda tasavvur etadi.

Hissiy bilish shakllari – sezgilar, idrok va tasavvur narsa va hodisalarni bilishdagi dastlabki bosqichdir. Inson sezgi va hodisalarni ma‘lum bir xususiyatini yoki belgisini bilish mumkin. “Agar sezgi a‘zolarimiz bo‘lmaganda olam haqida bilimga ega bo‘lmagan bo‘lardik va bundan tashqari olam haqida tasavvurga ega bo‘lmasdik. Umuman inson narsa va jismlarning rangini bilmagan bo‘lardi” deydi. Bunga Beruniy sezgi organlari faoliyatiga baho berib, materialistik pozitsiyada turganligini ko‘ramiz.

U hayvonga besh sezgi ato etilgan deb yozadi. Ko‘rish orqali hayvon axtarganini topadi, xavfdan saqlanadi va hakozo. Eshitish orqali hayvon ko‘rish mumkin bo‘lmagan narsalarni sezadi. Hidlash yordamida hayvon hidlarni farq qiladi, kerakli ozuqani tanlab oladi. Sezish sovuq va issiqni, qattiq va yumshoqni, xo‘l va quruqni, tekis va dag‘alni ajrata bilishga yordamlashadi. Beruniy sezgilarning tabiati, ularning paydo bo‘lishini bevosita tashqi tabiatning inson sezgi a‘zolariga ta‘sir etishi bilan bog‘laydi. Har bir sezgining qo‘zg‘atuvchisi bor deb sezgi organlarini tabiiy-ilmiy nuqtai nazaridan tushuntiradi.

Hissiy bilishning sezgiga nisbatan yanada murakkabroq turi idrok va tafakkurdir. Inson idrok va tasavvur orqali narsalar haqida to‘laroq ma‘lumotga ega bo‘ladilar.

Beruniy insonning barcha mavjudoddan ustunligini uning tafakkuri orqali ekanligi bilan izohlaydi. Shuning uchun ham yerdagi barcha hayvonlar unga bo‘ysunadilar, aks holda inson eng kichik hayvondan ham o‘jiz bo‘lar edi.

Beruniy inson tashqi olamni bilishda asosan aqlga tayanishi va shuning uchun ham u barcha jonzotdan ustun turishini ta‘kidlaydi. Olimning fikricha, aql hodisalarning birini anglashga yordam beradi. Inson aqlga muvofiq bilish orqali olamning mohiyati haqidagi bilimlarni o‘zlashtiradi. Lekin bilimning cheki yo‘q va hamma bilimlarni tez egallash mumkin emas. Shuning uchun inson o‘zi bilib olgan narsalar bilan kifoyalanib qolmay, doimo yangi bilimlarni o‘rganishga intilishlari kerak. Uning fikricha inson bilish, tushunish, fikrlash, mulohaza qilish, o‘ylab topish singari iste‘dodga ega.

Abu Rayhon Beruniyning asarlarini o‘rganar ekanmiz, u olamni bilish, tafakkur qilish jarayonlari haqida izchil ma‘lumotlar keltiradi.

Xotiraning ahamiyati haqida Beruniy ajoyib fikr aytgan.

“Xotira, – deydi u – dalili bor hamma narsalarni yaxshiroq, tezroq va uning‘ayroq eslab qoladi”.

Xotirani u Tangri taoloning tuhfasini deb hisoblaydi.

Olim bilim olishni axloqiy tarbiya bilan bog'laydi. Zero, insonda komillikning muhim mezonini yuksak axloqlilikdir.

Beruniyning "O'tmish avlodlaridan qolgan yodgorliklar", "Hindiston", "Mineralogiya", "Kitob as-saydona", "Al-qonuni al-Mas'udiy", "Geodeziya" va boshqa asarlarida inson, kamolotida axloqiy tarbiyaning muhim o'rnini ta'kidlaydi.

Uning fikricha axloqiylik insonning eng asosiy sifati bo'lishi kerak. Bu xislat birdaniga tarkib topmaydi.

U kishilarning o'zaro muloqoti, ijtimoiy muhit – jamiyat taraqqiyoti jarayonida tarkib topadi yoki u yaxshilik bilan yomonlik o'rtasidagi kurash natijasida namoyon bo'ladi. Yaxshilik va yomonlik insonning xulq-atvorini belgilaydigan mezon hisoblanadi. Yaxshi xislatlarga to'g'rilik, odillik, o'zini vazmin tutish, kamtarlik, lutf, sobitqadamlik, ehtiyotkorlik, saxiylik, shirinsuxanlik, rahbarlikda adolatlilik, tadbirkorlik kabilarni kiritadi.

Yomon illatlarga esa hasadgo'ylik, baxillik, nosog'lom raqobat, o'z manfaatini ko'zlash, mansabparastlik va hokazolarni kiritadi. Beruniy faxrlanishni yaxshi xulq ma'nosida ishlatib "Yodgorliklar"da shunday deydi: "Faxrlanish – haqiqatda yaxshi xulqlar va oliy fe'llarda oldin ketish, ilmu hikmatni egallash va imkoniyat boricha mavjud nopokliklardan tozalanishdir. Kimda shunday sifatlar topilsa, hukm uning foydasiga va kimda bular yetishmasa, hukm uning zarariga bo'ladi".

Demak, Beruniy insonning ma'naviy qiyofasidagi barcha axloqiy xislatlarini yaxshilik va yomonlik kabi ikki turga bo'ladi. Bu insoniyat yaratgan pedagogik fikr taraqqiyotida "qizil ip" bo'lib o'tganidek, shu an'anaga muvofiq Beruniyda ham axloqiy tushunchalar, axloqiy barkamollikning muhim tomonlaridir.

Beruniy saxovat (o'zaro yordam, bir-biriga foyda keltirish uchun hamkorlik), muruvvat (odamlarga xayrixoh bo'lish, halollik va haqgo'ylik, o'z mehnati bilan kun ko'rish va boshqalar)ni insonning axloqiy kamolotini ko'rsatuvchi xislatlar deb biladi.

Insonning axloqiy kamolga yetishi muammosi butun ta'lim-tarbiya tizimida markaziy masala bo'lib qolgan.

Olim ezgu tilakka yetishga to'sqinlik qiluvchi ziqinalik, yolg'onchilik, munofiqlik, manmanlik, takabburlik kabi nuqsonlarni qoralaydi, boylikka ruju qo'yish va ta'magirlik, g'azab va johillik inson uchun eng ashaddiy dushman deb qaraydi.

Mutafakkir ilgari surgan axloqiy xislatlardan yana biri adolatdir. U jamiyatda adolat, uni yovuzliklardan xolos etish uchun dono, adolatli hukmdor bo'lishi kerak, deydi. Beruniy kundalik turmushi masalalariga ham katta e'tibor bergan.

Har bir axloqan barkamol inson o'zining turmush tarzini ham uyg'un, go'zal eta oladi. Uyg'unlik go'zallik va nafosatning asosi sanaladi. Beruniy insoniy xislatlardan muhimi – ozodalik, tarbiyalilik bo'lsa, insonga eng yaqin narsa uning tabiati, ruhi deydi. Shuning uchun inson o'z tabiatiga yoqadigan ishlarni bajarishi zarur, deb ko'rsatadi. Bunda insonning ichki dunyosi bilan tashqi go'zalligi, turmush tarzidagi go'zallikning uyg'un bo'lishini talab etgan. Bunga inson kiyadigan kiyimdan tortib, kundalik turmushdagi yurish-turishi, so'zi, qalbi, qilgan

ishi – hammasining go‘zal bo‘lishi ta’kidlangan.

Har bir shaxsda sharm-hayo, nafis, did, iffat, latofat, shirinsuhanlikning tarkib topishi turmushdagi yanada go‘zal bo‘lishga olib keladi.

Olimning inson turmushiga xos xulq-odob qoidalari haqidagi fikrlari pedagogik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Inson ham ichki, ham tashqi tomondan go‘zal bo‘lsagina haqiqiy kamolotga erishishi mumkin deydi. U ozodalik va orastalikni olijanoblik bilan tenglashtiradi. Inson doimo bularga rioya etishi zarur deb ta’kidlaydi. Bunda inson o‘zini boshqara olishga qodir bo‘lishi, har bir yetuk inson uchun zarur bo‘lgan xislatlarni tarkib toptirishda kuch va irodaga ega bo‘lishi zarur, deydi.

“**Mineralogiya**” asarida bu fikrni quyidagicha ifodalaydi: “Inson o‘z ehtirolariga hukmron, ularni o‘zgartirishga qodir, o‘z jon va tanini tarbiyalar ekan, salbiy jihatlarni maqtagulik narsalarga aylantirishga hamda asta-sekin, axloq haqidagi kitoblarda ko‘rsatilgan usullar bilan illatlarni bartaraf etishga qodirdir”. Beruniy insonni kamolotga yetaklovchi xislatlardan yana biri olijanoblik deb ko‘rsatadi. Olijanoblikning mazmunini yaxshilik tashkil etadi. Bunda olim insonga inson sifatida muomala qilishni nazarda tutadi. Eng muhimi, mutafakkir, inson kamolotida, mehnat tarbiyasi haqida muhim fikrlarni bayon etadi. U har bir hunar egasining mehnatiga qarab turlarga bo‘ladi. Og‘ir mehnat sifatida binokor, ko‘mir qazuvchi, hunarmand, fan sohiblari mehnatini keltiradi. Ayniqsa, ilm ahli – olimlar mehnatiga alohida e‘tibor berish, xayrixoh bo‘lishga chaqiradi, ularni ma‘rifat tarqatuvchilar, jamiyat ravnaqiga hissa qo‘shuvchilar deb biladi. Olim bolalarni mehnatga o‘rgatish metodlari, yo‘llari haqida ham fikr yuritadi. Masalan, bolalarni eng kichik yoshidan mehnatga o‘rgatish kerak deydi. Mehnat tarbiyasida o‘sha davr tarbiya an‘anasiga binoan vorislikka katta ahamiyat beradi. Buni **E.To‘raqulov** va **S.Rahimovlar** “Abu Rayhon Beruniy ruhiyat va ta‘lim-tarbiya haqida” nomli risolalarida juda yaxshi bayon etishgan. Beruniyning “Mineralogiya” asarida faqat qimmatbaho metallar, toshlar haqida emas, hunarmandchilikka oid shogird tayyorlash jarayoni, ustalarning hunar o‘rganish metodlari haqida ham qimmatli fikrlar bayon etilgan. Bunda hozirgi zamon fani tili bilan aytganda, shaxsiy namuna metodidan foydalangani, ish jarayoni bevosita ham nazariy, ham amaliy jihatdan ustaxonaning o‘zida bajarilgani shogirdlarning malakali usta bo‘lib yetishishida katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Shuning uchun ham o‘sha davrda Xuroson va Movarounnahr matallurgiya, konchilik, to‘quvchilik zebi-ziynat buyumlari yasash, qog‘oz va oyna ishlab chiqarish va boshqa sohalarda dunyo bozorida nom chiqargan. Hunarmandchilikning bunday yakka holda o‘rgatilishi malakali kasb egalarining yetishib chiqishiga yordam bergan, halol va vijdonan mehnat qilishga yo‘llaganki, bu insonning kamolga yetishishda muhim pog‘ona bo‘lgan. Zero, qadimdan har bir yetuk inson u shohmi, oddiy fuqaromi, hunarning bir yoki bir necha turini bilishi zarur sanalgan. Shunga ko‘ra buyuk shohlar ham, beklar ham, mol-mulk egalari bo‘lgan beylar ham, oddiy fuqaro ham o‘z farzandini bilimli bo‘lishi bilan birga, hunarli bo‘lishga ham e‘tibor bergan va u yozilmagan qonunga barcha birdek amal qilgan. Chunki kishilik jamiyati paydo bo‘lgandan boshlab, kishilar o‘z mohiyati va hunari bilan kun kechirishga majbur bo‘lgan va bu hayot taqozosi sifatida qabul qilingan. Shuning uchun ham Beruniy

inson har tomonlama kamolga yetishi uchun u ilmi bo'lishi bilan birga mehnatsevar va hunar egasi bo'lishi ham kerak deydi. Beruniy inson kamolotida uch narsa muhimligini ta'kidlaydi. Bu hozirgi davr pedagogikasida ham e'tirof qilingan irsiyat, muhit va tarbiyadir. Ma'lum bir davrda olimlar inson kamolotiga **irsiyat, muhitning** ta'sirini inkor etib, faqat **tarbiyani** tan oladilar. Lekin Beruniy o'z zamondoshlari – buyuk mutafakkirlar Farobiy, Ibn Sinolar kabi inson kamolotida har uchalasini ham muhim deb hisoblaydi. Ya'ni u insonning kamolotga yetishida ilmu ma'rifat, san'at va amaliyot asosiy rol o'ynasa-da, nasl-nasab, ijtimoiy muhit va ijtimoiy turmush qonuniyatlari ham katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Abu Rayhon Beruniy nazarida inson kamolga yetishining eng muhim omillari ilmi-ma'rifatli bo'lish va yuksak axloqlilikdir.

Abu Rayhon Beruniy inson kamolotida mehnat va mehnat tarbiyasi haqida muhim fikrlarni bayon etadi. U har bir hunar egasini mehnatiga qarab turlarga bo'ladi. Og'ir mehnat sifatida binokor, ko'mir qazuvchi, hunarmand, fan sohiblari mehnatini keltiradi. Ayniqsa, ilm ahli-olimlar mehnatiga alohida e'tibor berish, xayrixoh bo'lishga chaqiradi, ularni ma'rifat tarqatuvchilar, jamiyat ravnaqiga hissa qo'shuvchilar deb biladi. Shu bilan birga og'ir mehnat qiluvchi konchilar yer ostida gavhar izlovchilar, dehqonlar haqida gapirib, ularning mehnatini rag'batlantirib turish kerak, deydi. Ayniqsa, podshohlar bunday mehnat ahliga g'amxo'r bo'lishi kerakligini alohida eslatadi. Chunki ana shu mehnat ahli ular hukmronligining tayanchi deb ta'kidlaydi. Beruniy bolalarni mehnatga o'rgatish metodlari, yo'llari haqida ham fikr yuritadi. Masalan, Beruniy bolalarni eng kichik yoshdan mehnatga o'rgatish kerak, deydi. Mehnat tarbiyasi, o'sha davr tarbiya an'anasiga binoan vorislikka katta ahamiyat beradi. Hunarmandchilikning bunday yakka holda o'rgatilishi malakali kasb egalarining yetishib chiqishiga yordam bergan, halol va vijdonan mehnat qilishga yo'llaganki, bu insonning kamolga yetishida muhim pog'ona bo'lgan. Zero, qadimdan har bir yetuk inson shohmi yoki oddiy fuqaromi hunarning bir yoki bir necha turini bilishi zarur sanalgan. Shuning uchun buyuk shaxslar ham, beklar ham, mol-mulk egalari bo'lgan boylar ham, oddiy fuqaro ham o'z farzandini bilimli bo'lishi bilan birga hunarli bo'lishiga ham e'tibor bergan va bu yozilmagan qonunga barcha birdek amal qilgan. Chunki kishilik jamiyati paydo bo'lgandan boshlab, kishilar o'z mehnati va hunari bilan kun kechirishga majbur bo'lgan va bu hayot taqozosi sifatida qabul qilingan. Shuning uchun ham Beruniy inson har tomonlama kamolga yetishi uchun u ilmi bo'lishi bilan birga mehnatsevar va hunar egasi bo'lishi ham kerak, deydi.

Beruniy ilmiy bilimga oid, ta'lim metodlari haqidagi qarashlari bilan ta'lim nazariyasida o'ziga xos maktab yaratdi. Yoshlarni tarbiyalashda esa axloqiy mehnat tarbiyasi, nafosat tarbiyasi, oila tarbiyasi, insonning shaxsiy gigienasi, xalqlar o'rtasidagi do'stlik, hamkorlik haqidagi tushunchalar katta ahamiyatga egadir. Olim axloqlilikning belgilari sifatida yaxshilik, to'g'rilik, adolat, kamtarlik, sahovat, olijanoblik, do'stlik va hamkorlik, mehnat va hunar egallash, poklik, go'zallikka intilish kabilarni ilgari surgan. Bularning barchasini u yaratgan asarlaridagi ijtimoiy-falsafiy fikrlarga bog'lab tushuntirgan. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Beruniyning komil insonni shakllantirishga oid bu fikrlari faqat o'z zamonasi uchun emas, hozirgi davr ta'lim-tarbiya ishlarini takomillashtirishda

ham katta ahamiyatga ega. Zero, uning o‘zi ham haqiqiy komil insonga xos xislatlarga ega ekanligini, hayoti va ijodiy faoliyati, yozgan asarlari bilan isbotlab, kelajak avlodlarga katta ma’naviy meros qoldirdi.

4.3. Abu Ali ibn Sinoning shaxs kamolotiga oid qarashlari

Sharqda “Shayx ar-Rais” nomi bilan mashhur bo‘lgan allomalaridan biri o‘rta asr mutafakkiri **Abu Ali ibn Sino**dir.

Ibn Sino ilmiy merosini shartli ravishda 4 qismga ajratish mumkin. Bular: falsafa, tabiiyot, adabiyot va tibbiyotdir. U o‘z davridagi fanlarning deyarli barchasi bilan muvaffaqiyatli shug‘ullanib, ularga oid ilmiy asarlar yaratgan. Turli qadimiy qo‘lyozmalarda uning 450 dan ortiq asari tilga olinib, ulardan 242 tasi davrimizgacha yetib kelgan. Mazkur asarlarning faqatgina 43 tasi tabobatga oid bo‘lib, 80 tasi falsafa, ilohiyot va tasavvuf, 27 tasi **ruhshunoslik**, 23 tasi tabiiyotga, 19 tasi mantiq, 7 tasi falakiyot, 4 tasi adabiyot va boshqa fanlarga bag‘ishlangan.

Ibn Sino ham boshqa zamondosh qomusiy olimlar qatori matematika, astronomiya, fizika, kimyo, biologiya, tibbiyot, dorishunoslik, ruhshunoslik (psixologiya), fiziologiya, falsafa, filologiya, ta’lim-tarbiya sohalarida ijod etgan va dunyoga mashhur yirik asarlar meros qoldirgan olim. Ma’lumki, Ibn Sino ham boshqa mutafakkirlar kabi o‘zining ta’lim-tarbiyaga oid qarashlarini ijtimoiy-falsafiy qarashlari bilan bog‘liq holda ifodalagan, maxsus risolalarda talqin etgan. Abu Ali ibn Sino kamolotga erishishning birinchi mezoni sanalgan ma’rifatni egallashga da’vat etadi. Chunki ilm-fan insonga xizmat qilib, tabiat qonunlarini ochib avlodlarga yetkazishi kerak. Bu maqsadga yetishish uchun inson qiyinchiliklardan qo‘rqmasligi zarur, deydi. “Ey birodarlar! Odamlarning botiri mushkulotdan qo‘rqmaydi. Kamolot hosil qilishdan bosh tortgan kishi odamlarning eng qo‘rqog‘idir”. Zero, ma’rifatli kishi jasur, o‘limdan ham qo‘rqmaydigan, faqat haqiqatni bilish uchun harakat qiladigan bo‘ladi, deydi u fikrini davom ettirib.



Abu Ali ibn Sino Aristotelning jon haqidagi ta’limotini tabiatshunoslikdagi va tibbiyotdagi o‘sha davrning yutuqlariga asoslanib yangi asosda qayta qurdi. Abu Ali ibn Sinoning ishlarida “**jon**” tushunchasi organizmni sezish, eshitish, ko‘rish qobiliyati deb tahlil qilingan. U jon haqida ajoyib ta’limot yaratdi. Ulug‘ olim asab tizimining tashqi bog‘liq va tanani harakati, tana sezgisini ta’minlab turuvchi bog‘liq funksiyasini juda yaxshi tushungan holda psixologik hodisalarni fiziologik jarayonlar bilan bog‘liqligi to‘g‘risidagi fikrlarni birinchilardan bo‘lib oldinga surdi. Asab tizimi, bosh miya bu psixikaning yuz berishi asosi deb ko‘rsatdi. Tana va muhit, a’zo va uning funksiyasi har doim o‘zaro bog‘liqlikda bir butunlikdadir, jon miyaning funksiyasi deb takidladi. Abu Ali ibn Sino bu fikrlarini rivojlantirib ruhiy kasalliklar miyaning ishini o‘zgarishi bilan bog‘liqdir deb ko‘rsatadi. Olim psixik jarayonlarning markazlari miyada degan fikrni ilgari suradi. U sezgi markazi miyaning old qismida, xotira markazi miyaning orqa qismida, xayolning markazi miyaning o‘rtasidagi jo‘yagining oldingi qismida o‘ylash, fikrlash bilan bog‘liq

markaz o'rtasida jo'yakda, ixtiyoriy harakatlanishi qobiliyati miyaning orqasida jo'yagiga joylashgan" – deb yozadi.

Abu Ali ibn Sinoning ruhiy jarayonlar va dunyoni bilish haqidagi fikrlari ham muhim ahamiyatga ega. U dunyoni bilish nazariyasini materialistik asosda tushuntiradi. U bilish – sezgilar yordamida hissiy bilish va tushunchalar yordamida fikrlash orqali bilishdan tashkil topadi deb yozadi. Sezish bu shunday quvvatki u tashqi narsalarning o'zi bo'lmay, balki bizning hislarimizda vujudga keladi. Sezgida narsa va hodisalarning ayrim tashqi belgilari, konkret tomonlari bilinsa, aql ularning mohiyatlarini, ichki tomonlarini mavhumlashtirish yordamida bila oladi deb ko'rsatadi. Abu Ali ibn Sino ham bilishning ikki bosqichi ya'ni sezgilar va tafakkur jarayoniga alohida e'tibor beradi. Abu Ali Ibn Sino Sharq tabobatida keng qo'llaniladigan "mijoz" tushunchasiga alohida e'tibor berdi. Uningcha "mijoz" insonning xususiyati uning sifati, tana va ruhga tashqi muhit faktorlarining ta'sirini idrok qilishdir.

Abu Ali ibn Sino organizm tashqi ta'sirlarni idrok qilish va uni organizmni javob reaksiyasini berishda mijozni turlicha ya'ni: issiq, sovuq, quruq, nam, kuchli va kuchsiz paydo bo'lishini aniqladi. Ular odamda mijoz shaklida tabiiy ravishda bo'lishini va bular orqali odam ovqatlarni, havo haroratini, yoqimli va yoqimsiz narsalarni bir-biridan farq qiladi deb ta'kidlaydi.

Ibn Sinoning shoh asari "Ash-shifo"da zoopsixologiyaga doir "Al-hayvon" bo'limi bor. Ibn Sino asarlarida nafs degan tushuncha reflekslar va ba'zi o'rinlarda instinkt tushunchasini anglatadi. "Ash-shifo"dagi "fizika" bo'limining oltinchi bobi – "Kitobi nafs"dir. Olimning sezgilar borasidagi xulosalari hozirgi eksteroretseptorlar tushunchasiga mos, interoretseptorlardan biroz farq qiladi: tashqaridan qabul qilinuvchi quyidagi sezgilardir: **ko'ruv, eshituv, hidlov, ta'm, sezuv**. Ichkaridan qabul qilinuvchilar: **xayol, fikrlov, faraz, saqlov va xotira**.

Olimning bilish haqidagi ta'limoti xususan hissiy bilish, sezgilar, sezgi organlari haqidagi fikrlari uning "Tib qonunlari" asarida inson fiziologiyasi va psixologiyasi asosida talqin etiladi. Ibn Sino sezgini tashqi va ichki sezgilarga ajratadi. Tashqi sezgi insonni tashqi olam bilan bog'laydi, ular 5ta – **ko'rish, eshitish, ta'm-maza, hid va teri sezgisi**. Bular insonning ma'lum organlari – teri, ko'z, og'iz, burun, quloq bilan uzviy bog'liq.

Ichki sezgilar – bu umumiy, chunonchi, taxmin etuvchi, ifodalovchi, eslab qoluvchi (xotira), tasavvur etugchi sezgilardir. Bu ichki sezgilar tashqi sezgilar asosida shakllanib tashqaridan olingan ayrim sezgilarni umumlashtirish, uni qabul etish, xotirada saqlash va so'ng tasavvur etish uchun xizmat qiladilar. Tibbiyotni chuqur o'rganish asosida Ibn Sino miyani barcha sezgilaridan boruvchi nervlar markazi, umuman inson nerv sistemasining markazi ekanligi haqidagi ta'limotni olg'a suradi.

Bilimsiz kishilar johil bo'ladi, ular haqiqatni bila olmaydilar, deb ularni yetuk bo'lmagan kishilar qatoriga qo'shadi. Bunday kishilardan ilmiy fikrlarni sir tutish kerakligini ta'kidlaydi. U haqiqatni bilish uchun bilimga ega bo'lish kerakligi, lekin har qanday bilim ham haqiqatga olib kelmasligi, inson o'z bilimining haqiqiylikini bilishi uchun mantiqni ham bilishi zarurligini o'qtiradi.

Ibn Sinoning ta'lim metodlari haqidagi ta'limoti asosida ham bilimlarni egallashda mantiqiy tafakkurga, shaxsiy kuzatish va tajribalarga tayanish kerak degan g'oya yotadi. Ibn Sino bilim olishda bolalarni maktabda o'qitish zarurligini qayd etar ekan, ta'limda quyidagi tomonlarga rioya etish zarurligini ta'kidlaydi:

- ✓ bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo'ymaslik;
- ✓ ta'limda yengildan og'irga borish orqali bilim berish;
- ✓ olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo'lishi;
- ✓ o'qitishda jamoa bo'lib maktabda o'qitishga e'tibor berish;
- ✓ bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish;
- ✓ o'qitishni jismoniy mashqlar bilan qo'shib olib borish.

Bu talablar hozirgi davr ta'lim tamoyillariga ham mos kelishi bilan qimmatlidir. Yuqoridagi masalalarga o'zining **“Tadbiri manzil”** asarida maxsus bo'lim bag'ishlaydi. **“Bolani maktabda o'qitish va tarbiyalash”** (**“Omuzish va parvarishi farzand dar madrasa”**) bo'limida ta'lim va tarbiya jarayonini ochib beradi. Yuqoridagi tamoyillar esa bolalarni yengil-yelpi bilim olish emas, balki har tomonlama chuqur va mustahkam bilim olishga yordam beradi. Talabaga bilim berish o'qituvchining mas'uliyatli burchidir. Shunga ko'ra Ibn Sino o'qituvchining qanday bo'lishi kerakligi haqida fikr yuritar ekan, shunday yo'l-yo'riqlar beradi. Bular quyidagilardan iboratdir:

- ✓ bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo'lish;
- ✓ berilayotgan bilimning talabalar qanday o'zlashtirib olayotganiga e'tibor berish;
- ✓ ta'limda turli metod va shakllardan foydalanish;
- ✓ talabaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilishi;
- ✓ fanga qiziqitira olish;
- ✓ berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olishi;
- ✓ bilimlarni talabalarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berishi;
- ✓ har bir so'zning bolalar hissiyatini uyg'otish darajasida bo'lishiga erishish zarur, deydi olim.

Ibn Sino ta'limotida bilimda qaysi metodlardan foydalanilmasin – u og'zaki ifodali, bilimlarni tushuntirishmi, jonli ko'rinishlardagi suhbatmi, tajribalarni, baribir talabada haqiqiy bilim hosil qilish, mustaqil, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, olgan bilimlarini amaliyotga tatbiq eta olish qobiliyatini tarkib toptirish asosiy maqsad bo'lgan. Uning nomi ham shunga ishora qiladi: **“Hay ibn Yaqzon”** (uyg'oq o'g'li tirik). Bu asar farosat ilmi haqida ekanligini Ibn Sinoning o'zi ham ta'kidlaydi. Olim bu asarida ilm-ma'rifatni o'rganishga kirishishi natijasida ko'zi ochilgani, uning natijasida Aql (Hay ibn Yaqzon) ko'ziga ko'ringani va ilm ham unga o'z jamolini namoyon qilganini hikoya qilar ekan, ilm-aqlni o'lim bilmaydigan uyg'oq, qarimaydigan, yoki beli bukilmaydigan – barvasta, nuroniy sifatida tasvirlaydi. Tafakkur qilib zarur bo'lgan va bilishi mumkin bo'lgan narsalarni o'qishga kirishgani, bu yo'lda aqlni ishga solib, o'zini yomonliklardan chetlashtiradigan turli xususiyatlarni bilib olganligini qayd etadi. Demak, **“Hay ibn Yaqzon”** mantiq ilmiga bag'ishlangani bilan ham aqliy tarbiyada

katta ahamiyatga ega. Shuningdek, insondagi yomon illatlarni ham bartaraf etishda ilmu fan, ziyoning ahamiyati, insondagi aql-tafakkur quvvatining yomon illatlaridan qutilishi, o'zligini anglash vositasi ekanligi bilan adabiy-falsafiy asargina bo'lib qolmay, tarbiyaviy asar sifatida ham qimmatlidir. Shu jihatdan olimning "Hay ibn Yaqzon" asari kishilarning didfarosatini o'stirish, fikr doirasini kengaytirishi bilan ta'limtarbiyada ham mohiyati katta hisoblanadi. Ibn Sino insonning kamolga yetishida uning axloqiy kamoloti muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Olim axloqlilikning asosini yaxshilik va yomonlik kabi ikki tushuncha bilan ta'riflaydi. Dunyoda mavjud bo'lgan jami narsalar tabiatiga ko'ra kamolot sari intiladi. Kamolot sari intilishning o'zi esa mohiyat e'tibori bilan yaxshilikdir...".

Ibn Sino inson kamolotining muhim axloqiy jihatlarini ham tahlil etadi va har biriga ta'rif beradi. Masalan, adolatni ruhiy lazzatning bosh mezoni sanaydi. Inson qanoat, jasurlik, donolik bilan adolatga ega bo'ladi, yomon illatlardan o'zini tiyib, yaxshilikni mustahkamlaydi, haqiqiy ruhiy lazzat oladi, deydi olim. Insondagi ijobiy axloqiy xislatlarga saxiylik, chidamlilik, kamtarlik, sevgi-muhabbat, mu'tadillik, aqllilik, ehtiyotkorlik, qat'iyatlilik, sadoqat, intilish, uyatchanlik, ijrochilik va boshqalarni kiritadi. Ibn Sino har bir axloqiy xislatning ta'rifini beradi:

Mo'tadillik – tan uchun zaruriy oziq va xulq me'yorlariga to'g'ri kelmaydigan ishlarni qilmaslik;

Saxiylik – yordamga muhtoj kishilarga ko'maklashuvchi insoniy quvvat;

G'azab – biror ishni bajarishda shoshma-shosharlikdan saqlovchi quvvat deydi.

Ziyraklikni narsalar va xattu-harakatlarning haqiqiy ma'nosini tezlik bilan tushunishga yordam beruvchi quvvat, achinish, kishilar baxtsizlik, azob-uqubatga duchor bo'lganda, ular bilan xushmuomalada bo'luvchi insoniy quvvat.

Kamtarlikka xudbin ishlar bilan shug'ullanishdan to'xtatuvchi kuch sifatida ta'rif beradi.

Ibn Sino insonning kamolotga yetishida to'sqinlik qiluvchi nuqsonlar sifatida **johillik, nodonlik, shafqatsizlik, takabburlik, nafratni** ko'rsatib o'tadi.

Johillikni – ilmga, **nodonlik**ni – zehni o'tkirlikka, **shafqatsizlik,** **takabburlik**ni – adolatga, **nafratni** – sevgi-muhabbatga qarama-qarshi illat sifatida ta'riflaydi.

Ibn Sino yuksak axloqiy xislatlarga yana kishilarning bir-birlariga do'st bo'lib yashashi, hamkorlik qilishni ham kiritadi. Chunki har bir kishi jamiyatda, odamlar bilan birga yashar ekan, ular bilan do'stona yashashga intiladi. Modomiki, inson aloqaga muhtoj ekan, boshqa birov bilan qo'shnichilik qilish uchun uning uyi yoniga uy soladi, o'zining ehtiyojini qondirish uchun esa ishlab chiqarish mahsulotlarini almashtiradi, dushmanlardan saqlanish uchun o'zgalar bilan birlashadi. Mana shu tariqa kishilarda birlik hissi, boshqalarga nisbatan sevgi-muhabbat va umumiy axloqiy negizlar ishlab chiqila boshlaydi. U insonda yaxshi xulqning shakllanishida xushxulq, ilmi, do'st muhim rol o'ynaydi, deydi. Olim do'stlikni shunday ta'riflaydi: Har qanday qiyinchiliklarga qaramay o'z do'stini

xavf-xatarda yolg'iz qoldirmaydigan do'stlik; Manfaatlari o'xshash va g'oyaviy yaqin do'stlik; O'z shaxsiy manfaati va ehtiyojini qondirishga qaratilgan do'stlik. Ibn Sino birinchi va ikkinchi xil do'stlikni haqiqiy do'stlik deb e'tirof etadi. Olim haqiqiy do'stlik natijasida sevgi-muhabbat paydo bo'lishi mumkinligini aytadi. U "Risolai ishq" asarida sevgi-muhabbatning asl mohiyatini ham ijtimoiy, ham fiziologik jihatdan yoritib beradi. Insonlarga ularning tashqi ko'rinishiga qarab emas, balki ularning ichki, ma'naviy dunyosiga qarab baho berish kerakligini o'qtiradi. Har bir kishi tabiatan sevgi tuyg'usiga ega, u tabiiy zarurat sifatida namoyon bo'ladi, lekin inson o'z tuyg'ularini boshqara olishi, aql va farosat bilan haqiqiy sevgini hirs tuyg'usidan, ehtiros kuchidan ajrata bilishi zarur deydi. Shundagina inson haqiqiy kamolotga erisha oladi. Chunki haqiqiy sevgi, olimning fikricha, inson zimmasiga axloqiy, haquqiy burch yuklaydi. Bu esa olimning sevgiga ijtimoiy omil sifatida ham qaraganligini ko'rsatadi. Ibn Sino aqliy tarbiya turli bilimlarni o'rganish natijasida amalga oshsa, axloqiy tarbiya ko'proq yaxshi axloqiy xislatlarni mashq qildirish, odatlantirish, suhbat orqali amalga oshadi, deb ta'lim berdi. Inson hissiy va ma'naviy talablarni ajratib olish imkoniyatiga ega ekan, bu imkoniyat asta-sekin inson fe'l-atvoriga xos xislatga aylana boradi. Olim insonning shakllanishida uning atrofni o'rab olgan tashqi muhit, odamlar alohida muhim rol o'ynaydi, ana shu tashqi muhit va odamlar insoning atrof dunyoni bilishinigina emas, balki uning xulqini yaxshi yoki yomon jihatlarning tarkib topishiga ham ta'sir etadi. Shuning uchun ham bolalarni tarbiyalashda ehtiyotkor bo'lish kerakligini, bola yomon odamlarga o'rganmasligi uchun, uni yomon odamlardan, yomon muhitdan uzoqroq saqlash zarurligini uqtiradi. Ibn Sinoning tarbiyaviy qarashlarida oila va oilaviy tarbiya masalalariga keng o'rin berilgan. Chunki inson avvalo oilada kamolga yetadi. Olim oilada ota-onaning vazifasi va burchiga katta e'tibor beradi. Oila munosabatlariga to'xtalar ekan, ayniqsa ota-onalarning oilada mehnatsevarligi bilan farzandlarini ham kasb va hunarga o'rgatish borasida muhim fikrlar bayon etadi. Insonning xulqi va ruhiga mehnatning ijobiy ta'sirini ta'kidlash bilan bir qatorda turli kasb egalari: hunarmand, dehqonlar mehnatini ulug'laydi va qimorboz, sudxo'r kabilarni qoralaydi. U mehnatsiz hayot kechirish insonga ham jismoniy, ham ruhiy tomondan salbiy ta'sir etishini to'g'ri talqin etadi. Olim aqliy, axloqiy tarbiya bilan bir qatorda inson kamolotida jismoniy tarbiyaning muhim ahamiyatini ham nazariy, ham amaliy jihatdan tahlil etadi. Ibn Sinogacha insonning kamolga yetishida jismoniy tarbiyaning ta'siri haqida bir butun, yaxlit ta'limot yaratilmagan edi. U birinchi bo'lib jismoniy tarbiyaning ilmiy-pedagogik jihatdan bir butun tizimini yaratdi. Bolaning yetuk inson bo'lib shakllanishida unga g'amxo'rlik, poklik, mas'uliyatni his etish, do'stona munosabatlar tuyg'usini singdirib borish zarur, deydi olim "Tib qonunlari" asarida. Xulosa qilib aytganda, Ibn Sinoning ta'lim-tarbiyaviy qarashlarida insonning ham aqliy, ham axloqiy-estetik hamda jismoniy tomondan rivojlanishi uning kamolga yetishishning asosiy mezoni sifatida talqin etadi.

Abu Ali ibn Sino tabiblik va ilmiy faoliyati davomida inson ruhiyatiga doir ko'p xulosalarni kashf etdi. Psixologiya fanidan ma'lumki, insonning psixologik holatlari ko'proq uning fiziologik holatlariga bog'liq bo'ladi. Bu borada Ibn

Sinoning fikri shunday: sog‘ va nosog‘ odamda bir xil ko‘rinish sodir bo‘lmaydi. Avval nosog‘ odamni sog‘lomlikka erishtirmoq, shundan keyin undan sog‘ odam qiladigan ishni kutmoq kerak.

Shaxs fazilatlarida haqida so‘rashganda Ibn Sino aytadi:

Har bir xayr va yaxshilik asosida tortinmoq, jasorat, hikmat va adolat yotadi. Inson shularga odat qilgan, ularning aksidan saqlangan holda kamolot kasb etadi.

Insonning fe‘li oldindan belgilangan qismat tufayli paydo bo‘ladimi? Ya‘ni xarakter genetik omilga yoki taqdirga bog‘liqmi? – degan savolga olim:

Qismatni belgilovchi Ollohning irodasi hamma narsaga bosh. Uning irodasidan tashqari hech narsa mavjud bo‘lmaydi. Ammo har bir mavjud narsaga oid ko‘p sifatlar borki, bu sifatlarni inson – har bir vujud muhit, tarbiya va turli ta‘sirler orqali kasb etadi, – deydi.

Agar bu kasb etilgan sifatlar salbiy bo‘lsalar, ulardan qutulish yo‘li qanday?

Salbiy sifatlardan qutulish uchun, agar ular tasodifiy ta‘sir tufayli paydo bo‘lgan bo‘lsalar, kishi o‘z irodasini safarbar etmog‘i lozim.

Ko‘p narsa insonning o‘ziga bog‘liq. Agar bu sifatlar odatga aylanib qolsa, kishining tabiatiga moslashib qoladi. Demak, yaxshi sifatlarga odatlangan odam yaxshilik kasb etadi: yomon sifatlarga odatlangan esa yomonlikka o‘rganib qoladi. Yaxshilik va saxovat oshiqchalik va yetishmovchilikning o‘rtasidir.

Ibn Sino tinglovchining qarashlaridan uning tushuna olmayotganini sezadi. Chunki suhbat falsafiy tus ola boshlasa, u mavhumlashib boradi. Masalan, – deydi Ibn Sino, – agar bemorda issiqlik ortib ketgan bo‘lsa, uni sovuqlikdan iborat ozuqa va dori bilan kamaytiramiz. Agar sovuqlik ortib ketgan bo‘lsa, uni issiqlik yordamida pasaytirish kerak bo‘ladi. Xuddi shuning singari o‘zimizda yetishmovchilik sezsak, ezgu sifatlarni oshirmoq hisobiga o‘sha yetishmovchilikni kamaytirmog‘imiz zarur.

Barcha sifatlar ichida eng asosiylari qaysilar?

Adolat, deydi Ibn Sino. Adolat himmat va saxovatning negizidir. Adolat barcha ruhiy kuchlarga aloqador.

Ushbu fikrlarni Ibn Sinoning shogirdi Juzjoniy tartib bilan qog‘ozga tushiradi va natijada Ibn Sinoning “Odob haqida” degan risolasi paydo bo‘ladi. Bu risolada ezgulik, uning juz‘iy tomonlari: karam, hikmat, sabr, xayr, sir saqlash, toqat, so‘zamollik, ziyraklik, qat‘iyat, jasorat, samimiyat, vafo, shafqat, nomus, tirishqoqlik, kamtarlik kabi shaxsga xos sifatlar ta‘rif va talqin qilingan. Bu sifatlarga zid bo‘lgan tushunchalarga ham izohlar berilgan.

Ibn Sinoning ruhning nomoddiyligi haqida qiziq bir fikri bor: “Ruh nuroniy moddadir. Kiruvchi ruh nur deyiladi. Ko‘z nurni ko‘rsa nafs sevinadi, qorong‘ulikda u siqiladi. Chunki yorug‘lik nafsni tashuvchi (markab)ga o‘xshash bo‘lib, qorong‘ilik uning ziddidir”.

Xursandlik, g‘am, xavf, g‘azab yurakda bo‘lgan ruhning maxsus ta‘sirilanishidan paydo bo‘lgan. Xursandlik bir turli lazzatdir, deydi olim. Lazzatda iste‘dod lazzatlanuvchining miqdor va kayfiyatida eng yaxshi holda bo‘lishini taqozo qiladi. Moddaning miqdorda ortiqligi quvvatning shiddatda ortiqiligini keltirib chiqaradi. Buning ziddi esa alamga bo‘lgan iste‘dodni bildiradi. Biror narsaga hozir turganda eng kichik turtki ham yetarli. Masalan, oltingugurt salgina

olov bilan yonib ketadi. O‘tin esa unga qaraganda ikki baravar ortiq bo‘lsada, darrov yona olmaydi. Shunga o‘xshash shodlanish qobiliyatiga ega bo‘lgan ruh sal narsaga sevinadi. Xursandlikning ketma-ket kelishi xursandlikka tayyorlaydi. G‘amning ketma-ket kelishi g‘amginlikka moslaydi. Quvnoq kishiga sabablarning eng kuchlisigina ta’sir qiladi, shodlantiruvchi sabablarning kuchsizi ham ta’sir qilaveradi. Buning ziddi esa g‘amginlikka yo‘llaydi.

Olimning ushbu fikrlari umumiy psixologiya fanining hissiyotlar, emotsiyalar, affektlar kabi mavzulari uchun o‘rganilishi muhimdir.

Olimning psixofiziologiyaga doir fikrlari:

Ko‘p miqdorli, sof, quyuq va suyuqligi mu’tadil bo‘lgan qon ruhni shodlantirishga hozirlaydi. Chunki undan ana shunday sifatli ruh tug‘iladi.

Agar qon suyuq, sersuv bo‘lsa qalbni zaif qiladi va qo‘rqoqlikka hozirlaydi. Chunki bunday qonning harakati qiyin va og‘ir. G‘aliz, quyqali va yuqori harorati bo‘lgan qon ruhni g‘am va g‘azabga chorlaydi. G‘am quyqa va xira ruhdan, g‘azab ruh haroratidan bo‘lgan alangalanishdan kelib chiqadi.

Olimning ijtimoiy fikrlari. Inson faqat jamiyat ichida yashay oladi. Agar bir odam yolg‘iz o‘zi bo‘lganda u allaqachon yo‘q bo‘lib ketgan bo‘lar edi. Insonning yashamog‘i uchun zarur kishilar bir-birlariga tayyorlab beradilar. Ularning o‘zaro muomalalari uchun eng qulay vosita – ovoz.

Ibn Sinoning psixologik qarashlarini aks ettirgan yana bir asar “Kitob ul-Aloiy” yoki “Donishnoma” (“Bilimlar kitobi”)dir. Undagi “Mantiq” bo‘limida olimning ijtimoiy-psixologik fikrlari – jamiyat va oilani boshqarish, o‘z-o‘zini boshqarish muammolari yoritilgan. “Fizika” bo‘limi insonning joni (nafsi) uning abadiyligi va bu abadiylikning holati to‘g‘risidagi mulohazalarga bag‘ishlangan.

“Tib qonunlari” kitobida gavdadagi eng issiq narsa ruh deyiladi. Ruhning paydo bo‘lish o‘rni yurakdir. Asarda inson mijozini tashkil etuvchi to‘rt unsur – ovoz, havo, yer, suv hamda xiltlar o‘rganiladi.

Olim insonning yosh davrlarini quyidagi to‘rt davrga bo‘ladi: o‘shish yoshi – o‘smirlik – tug‘ilgandan 30 yoshgacha davom etadi. O‘shishdan to‘xtash – yoshlik – 35-40 yosh; cho‘kish yoshi – 60 yoshgacha; kuchsizlik bilan cho‘kish yoshi – umr oxirigacha boradi. Bu keksalikdir.

Abu Ali ibn Sinoning mehnatsevarlik tarbiyasi borasidagi fikrlari ham diqqatga sazovordir. Uning fikricha, har bir bolani biror hunarga o‘rgatmoq shart. Yosh yigit biror hunarni o‘rgansa, uni hayotga tatbiq eta olsa va mustaqil hunar tufayli oilani ta‘minlaydigan bo‘lsagina otasi uni uylantirib qo‘ymog‘i lozim, deb hisoblaydi. O‘spirin hunar egallashi bilan unda nafaqat axloqiy hislar, balki xarakterning irodaviy xislatlari ham tarkib topa boshlaydi. Hunar egallash orqali o‘spirinlarda sabr-bardoshlik, chidamlilik, mehnatsevarlik, ishbilarmonlik, tadbirkorlik, zukkolik kabi insoniy sifatlar shakllanadi. Ibn Sino har bir insonning mijozidan kelib chiqqan holda unga alohida e‘tibor berish kerakligini ta‘kidlashi tufayli juda katta amaliy ish qilganligiga guvoh bo‘lish mumkin. Uning fikricha, har bir inson faqat unga tegishli bo‘lgan xususiyatlargagina egadir, unga o‘xshash insonlar kamdan-kam bo‘ladi.

4.4. Abu Nasr Farobiy, Abu Abdulloh al Xorazmiy, Yusuf Xos Hojiblarning

shaxs kamolotiga oid qarashlari

Abu Nasr Farobiy buyuk ensiklopedist olim. Forbiyning asarlari o‘z davri va keyingi davrlar uchun fan rivojlanishida katta ahamiyat kasb etdi.

Abu Nasr Farobiy bilishning ikki shakli, bosqichini hissiy va aqliy bilishni bir-biridan farqlaydi. U sezgi roliga to‘xtalib uni besh turga bo‘ladi. Olim **sezgini** bilishning manbai deb hisoblagan.

Abu Nasr Farobiy inson jonining bir tanadan ikkinchisiga o‘tib, ko‘chib yurishini inkor etadi va uni tana kabi individual “substansiyaning birligi” sifatida tushunadi.

Abu Nasr Farobiy ta’limoticha, to‘rtta element – **olov, suv, tuproq, havo** – ya’ni sodda substansiyalarning o‘zaro birikuvi jarayonida murakkab substansiyalar vujudga kelgan.

Abu Nasr Farobiyning ruhiy jarayonlar, ularning bilish va mantiq tizimi haqidagi ta’limoti o‘rta asrlar fanining katta yutug‘i edi.

Buyuk qomusiy olim Abu Nasr Farobiy kasb-hunar to‘g‘risida ilk fikrlarini bildirib, qimmatli maslahatlarni bergan, chunonchi ta’lim – so‘z va ko‘nikmalar majmui, tarbiya esa amaliy malakalardan iborat ish-harakat ekanligi, muayyan kasb-hunarga berilgan, u bilan qiziqqan kishilar shu kasb-hunarning chinakam shaydosi bo‘lishini aytgan. Bu mulohazalardan ko‘rinib turibdiki, kasb-hunar insoniyat uchun azaldan juda zarur hayotiy vosita bo‘lib kelgan. Abu Nasr Farobiyning ta’kidlashicha, “Ta’lim degan so‘z xalqlar va shaharliklar o‘rtasida nazariy fazilatlarini birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o‘rtasidagi tug‘ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish degan so‘zdir.

Ta’lim faqat so‘z va o‘rganish bilangina bo‘ladi. Tarbiyachi esa amaliy ish, tajriba bilan, ya’ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalaridan iborat bo‘lgan ish-harakat, kasbhunarga berilgan bo‘lishi, o‘rganishidir. Farobiy ta’lim-tarbiya ishlarini ikki yo‘l bilan amalga oshirishni nazarda tutadi. “Amaliy fazilatlar va amaliy san’at kasbhunarlar hamda ularni bajarishga odatlantirish masalasi”ga kelganda, bu odat ikki yo‘l bilan hosil qilinadi; bulardan **birinchisi** – qanoatbaxsh so‘zlar, chorlovchi, ilhomlantiruvchi so‘zlar yordamida odatda hosil qilinadi, malakalar vujudga keltiriladi, odamdagi g‘ayrat, intilish harakatga aylantiriladi. **Ikkinchi** yo‘l yoki usul – majbur etish yo‘li. Bu usul gapga ko‘nmaydigan qaysar shaharliklar va boshqa sahroiylar xalqlarga nisbatan qo‘llaniladi. Chunki ular o‘z istaklarigacha so‘z bilan g‘ayratga kiradiganlardan emaslar. Ulardan birortasi nazariy bilimlarni o‘rgatishga kirishsa, uning fazilati yaxshi bo‘ladi. Kasb-hunarlarini va juz’iy san’atlarni egallashga intilish bo‘lmasa, bunday odamlarni majbur etmaslik kerak. Chunki shahar xalqlariga tarbiya berishdan maqsad – ularni fazilat egasi qilish va san’at ahllariga aylantirishdir. Farobiyning fikricha, insonning kasbhunar va san’atdagi fazilatiga kelsak, bu fazilat tug‘ma emasdir, aks holda uning fikrufazilatida mutlaqo kuch va ulug‘lik bo‘lmas edi. Agar kasb-hunar fazilati tug‘ma bo‘lganda podshohlar ham o‘zlari ishlab va harakat qilib emas, balki podshohlik ularga faqat tabiiy ravishda muyassar bo‘lgan, tabiat talab qilgan va majburiy bo‘lib qolar edi. Nazariy va buyuk




fikriy fazilat ulug‘ tug‘ma fazilat va ulug‘ (kasb-hunar) fazilati odat, malaka bo‘lib qolgan odamda bu fazilatlar irodani hosil qilishning va odatga aylantirishning sababi bo‘ladi, bunday odamlar cheksiz, juda kuchli tabiat va irodaga egadirlar. Agar insonda mana shunday go‘zal xususiyatlar yoki fazilatlar birlashsa, uyg‘unlashsa, shundan so‘ng u o‘zidagidek go‘zal fazilat va irodani xalqlar va shahar aholisida hosil qilish yo‘llarini o‘rganishi kerak. Lekin xalqlar va shahar aholisida ahloq, odob, rasm-rusm, kasb-hunar, odat va irodani hosil qilgani uchun insondan zo‘r kuch va qudrat talab qilinadi. Bu ikki yo‘l bilan, ya‘ni ta‘lim va tarbiya yo‘li bilan hosil qilinadi. Ta‘lim degan so‘z xalqlar va shaharliklar o‘rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o‘rtasidagi tug‘ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish degan so‘zdir. Ta‘lim so‘z va o‘rganish yo‘li bilangina amalga oshiriladi. Tarbiya esa amaliy ish va tajriba bilan o‘rgatishdir. Ya‘ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalaridan iborat bo‘lgan ish-harakatlari, kasb-hunarga qiziqsalar, shu qiziqish ularni butunlay kasb-hunarga jalb etsa, demak, ular kasb-hunarning chinakam oshig‘i bo‘ladilar. Farobiyning fikricha, baxtning turli darajalarining bir-biridan afzalligi uch xil alomatga qarab aniqlanadi. Biz quyida ko‘rib chiqayotgan hunar va san’atlarning bir-biridan afzalligi ham xuddi shu alomatlariga qarab aniqlanadi. Hunar va san’atlar qaysi tur va sohalarga taalluqli ekanligiga ko‘ra bir-biridan afzal ko‘rinadi. Masalan, bo‘z to‘qish, shoyi to‘qish, attorlik, hovli supurish, raqs san’ati, fiqx ilmi, tabiblik yoki so‘z san’ati bir-biridan qanchalik afzal bo‘lsa, baxtga erishuv darajalari ham shunga o‘xshashdir. Bundan tashqari bir turdagi san’at, hunar sohiblari ham malaka miqdori jihatidan farqlanishi mumkin. Masalan, bir xattot o‘z hunarining ko‘pgina sirlarini bilishi, keng bilim egasi bo‘lishi mumkin. Boshqa biri o‘z hunari sirlarini kamroq bilishi mumkin. Xattotlikni yaxshi egallash uchun xattot tilni, so‘z san’ati, husnixat va hisob-kitob, riyoziyotni puxta bilishi zarur. Shu hunar egalaridan biri, masalan, husnixatni va riyoziyotni yaxshi biladi, boshqasi ish, so‘z san’ati va husnixatning ba‘zi jihatlarini yaxshi biladi, uchinchi mana shu ilmlarning hammasida mohir. Xattotlarning sifat jihatidan bir-birlaridan afzalligi shundaki, masalan, husnixat san’atini egallagan ikki xattotdan biri o‘zi tanlagan shu sohada kuchliroq, biri kuchsizroq bo‘lishi mumkin. Bu sifatdagi afzallikdir. Baxtlik darajasiga erishuvda ham insonlar yuqoridagiga o‘xshash bir-biridan afzalroq bo‘lishi mumkin. Boshqa shaharlarning aholisiga kelsak, bu odamlar fe‘li yomon bo‘lganligi uchun hunarlari ham ularning yomonligini tuzata olmaydi. Yomon xattot tabiatdan badbaxtligi tufayli yozuvi ham tobora xunuklashib boraveradi, uning hunari, san’ati tobora orqaga ketaveradi.

Abu Abdulloh al Xorazmiyning dunyoqarashining muhim tomoni, uning keng bilimi, ilmning ko‘p jabhalari masalalarini tushunishga ob‘ektiv yondoshishga qaratilgan. Xususan. Uning tib, odam anatomiyasi va fiziologiyasi sohasidagi bilimi hissiy sezgining moddiy asoslarini qidirishga yordam beradi. “Shaxsiy ruh – u miyada bo‘lib, undan badan a‘zolariga asab orqali tarqaladi” deydi. O‘rta asr sharq peripatetiklari uchun aql bilimning yana bir manbaidir. Ular aqlni ikki turga – **tug‘ma** va **orttirilgan** aqlga ajratishadi. Xorazmiy aqlni odam nafslarining kuchlaridan biri deb hisoblab, yuqorida qayd



etilgan uch turga bo'ladi.

Umuman olganda, Abu Abdulloh al Xorazmiyning psixologik falsafiy qarashlari o'z davri ilmiy dunyoqarashining rivojiga katta hissa qo'shgan



Qadimiy Sharq bu insoniyat sivilizatsiyasining eng qadimiy manzilgohlaridandir. Bu o'lkalardagi fanlar haqidagi ilk fikrlar o'zining ahamiyati jihatidan beqiyosdir. Chunki bu fikrlar dunyo madaniyatining ilk ko'rinishi sifatida paydo bo'lib, insoniyatning keyingi taraqqiyotiga katta ta'sir etgandir. Biz dunyo sivilizatsiyasini Sharq mamlakatlarisiz tasavvur qila olmaymiz. Dunyoga o'zining buyuk farzandlarini bergan Sharq hozirda ham fan sohasida o'z ta'sirini saqlab turibdi. Hozirgi kunda ham fan taraqqiyotining buyuk allomalari bo'lgan Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sinolar kabi insonlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ularning yozgan asarlarining ahamiyati hozirgi kunlar uchun ham o'z qimmatini yo'qotgan emas.

Yusuf Xos Hojibning o'sha davrda kosib hunarmandlarga naqadar xayrixohligi o'zo'zidan emasdi. Chunonchi, davlatning tinchosoyishtaligi, jahonda tutgan mavqei, boyligi, xalqning farovonligi ana shu toifadagi kishilarga bog'liq bo'lgan. Zero, kasb-hunar ta'limning ijtimoiy-siyosiy, moddiy va madaniy taraqqiyotining o'lchov birligi sanalardi. Yusuf Xos Hojib jamiyat taraqqiyoti va xalq farovonligida muhim o'ringa ega bo'lgan dehqonlar, chorvadorlar, savdogarlar, tabiblar, olimlar haqida ham muhim fikrlar bayon etadi va har birining jamiyatdagi o'rnini ko'rsatib beradi. Chunonchi, dehqonlar va chorvadorlarning ham ijtimoiy, iqtisodiy hayotda tutgan o'rnini yuqori baholaydi va ular mehnati eng ulug' va sharafli, muqaddas ekanligini ta'riflaydi. Ko'rinib turibdiki, olim jamiyatning rivojlanishiga hissa qo'shgan har bir kasb-hunar egasini ulug'laydi va ularni qadrlash zarurligini ta'kidlaydi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Markaziy Osiyo mutaffakirlari ijodida shaxs kamoloti masalasi qanday yoritilgan?
2. Abu Rayhon Beruniyning shaxs kamolotiga oid qarashlari haqida nimalarni bilasiz?
3. Abu Ali ibn Sinoning shaxs kamolotiga oid qarashlariga misollar keltiring.
4. Abu Nasr Farobiyning shaxs kamolotiga oid qanday qarashlari mavjud?
5. Shaxs kamolotiga oid Abu Abdulloh al Xorazmiyning qanday qarashlari bor?
6. Shaxs kamolotiga oid Yusuf xos Hojibning qanday qarashlari bor?
7. Shaxs kamolotiga oid Markaziy Osiyo mutaffakirlarining ijodini bugungi kundagi o'rni va ahamiyati qanday?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Umumiy psixologiya: O'quvqo'llanma / N.Sh.Umarova, D.N.Arzikulov; Mas'ul muharrir O.E.Hayitov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T., 2018.

2. Karimova V.M., Xolyigitova N.X. Psixologiya: O‘quv qo‘llanma. – T., 2014.
3. G‘oziev E. Umumiy psixologiya: Psixologiya mutaxassisligi uchun darslik / E.G‘oziev; O‘zR OO‘MTV, M.Ulug‘bek nomidagi O‘zMU. – T., 2010.
4. Karimova V., Hayitov O., Akramova F., Lutfullayeva N. Umumiy psixologiya: Nopedagogik va nopsixologik oily o‘quv yurtlari uchun darslik // V.M.Karimovaning umumiy tahriri ostida. – T., 2010.
5. Ajdodlar o‘giti, hikoyalar, hikmatlar. / To‘plovchi B.Ahmedov. – T., 1990.
6. Abu Ali Ibn Sino. Tib qonunlari. 1-jild. – T., 1994.
7. Amir Temur o‘g‘itlari: To‘plam. / Tuzuvchilar: B.Ahmedov, A.Aminov. – T., 1992.
8. Beruniy Abu Rayxan. Pamyatniki minuvshix pokoleniy. – T., 1997.
9. Beruniy Abu Rayxan. Indiya. Soch. t. 2. – T., 1993.
10. Farobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – T., 1993.
11. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. – T., 1972.

Elektron ta’lim resurslari

12. <http://ziyonet.uz>
13. <http://conferences.neasmo.org.ua/ru/art/2549>
14. <https://referat.uz/kurovaya-rabota/19140-19140.html>
15. https://drive.google.com/file/d/0Bxwxnt_0wPHqd25fTnp5WkpZT2c/view
16. <http://imombuhoriy.uz/uz/news/abu-ali-ibn-sino-inson-rukhiyati-khakida>
17. <https://cyberleninka.ru/article/v/kasbiy-tushunchalarni-shakllantirishda-shar-mutafakkirlarining-psihologik-arashlaridan-foydalanish>

5-MAVZU. SHAXS IJTIMOYILASHUVI VA IJTIMOYIY XULQ MOTIVATSIYALARI

Reja:

5.1. Shaxsning ijtimoiylashuvi

5.2. Oilaviy ijtimoiylashuv.

5.3. Iqtisodiy ijtimoiylashuv.

5.4. Siyosiy ijtimoiylashuv.

5.5. Ijtimoiylashuv vositalari, agentlari, mexanizmlari va bosqichlari.

5.6. Shaxsning ijtimoiy ustanovkalari

Tayanch iboralar: jamiyat va shaxs, ijtimoiylashuv, oilaviy ijtimoiylashuv, iqtisodiy ijtimoiylashuv, siyosiy ijtimoiylashuv, ijtimoiylashuv mexanizmlari, ijtimoiylashuv bosqichlari, ijtimoiylashuv agentlari, ijtimoiylashuv vositalari, ijtimoiy ustanovkalar.

5.1. Shaxsning ijtimoiylashuvi

Ijtimoiylashuv tushunchasi, jarayoni va ularning mazmuni.

“Ijtimoiylashuv” soʻzi dastlab siyosiy iqtisodiyotdan kelib chiqqan. U siyosiy iqtisodiyotda yer va ishlab chiqarish vositalarining umumlashuvi maʼnosini anglatgan.

“Ijtimoiylashuv” atamasini birinchi boʻlib amerikalik sotsiolog **F.G. Giddings** insonlarga nisbatan qoʻllagan. U oʻzining “Ijtimoiylashuv nazariyasi” (1887) kitobida hozirgiga yaqin maʼnoda “ijtimoiy tabiat yoki individ xarakterini rivojlantirish, insonni ijtimoiy hayotga tayyorlashdir” degan fikrni bildiradi.

N.M. Egamberdievaning yozishicha, XX asr oʻrtalarida ijtimoiylashuv inson rivojlanishini butun umri mobaynida oʻrganuvchi hamda fanlararo bogʻlanuvchi mustaqil ilmiy sohaga aylandi. Ijtimoiylashuvning turli konsepsiyalarini tahlil qilish uni, shartli ravishda, ikki asosiy yondashuvga ajratish imkonini beradi:

– **subʼektiv** → **obʼektiv**. Unda insonga jamiyat taʼsirining sust isteʼmolchisi sifatida qaraladi (**E.Dyurkgeym, T.Parsons**);

– **subʼektiv** → **subʼektiv**. Bunda ijtimoiylashuv jarayonida insonning faol oʻrni, uning hayotiy holatlarga taʼsir etish qobiliyati nazarda tutiladi.

Fikrimizcha, loyiha yuzasidan olib borilayotgan tadqiqotda, jamiyat va ijtimoiy moslashuv jarayonlarini tushunishning hozirgi talablariga ikkinchi yondashuv koʻproq mos keladi, chunki zamonaviy fanda ijtimoiylashuv insonning oilaviy merosni oʻzlashtirish jarayonidagi rivojlanishi va oʻzgarishi bilan belgilanadi.

Ijtimoiy psixologiyaga oid zamonaviy adabiyotlarda ijtimoiylashuvga turli davr mutaxassislari tomonidan qator taʼriflar keltirilgan boʻlib, quyida biz ulardan bir nechasini tahlil etamiz.

A.I. Kovalevaning yozishicha, **ijtimoiylashuv** – oʻz ichiga barcha ijtimoiy jarayonlarni qamrab olgan boʻlib, u individning belgilangan normalar,

qadriyatlarni o'zlashtirishi va jamiyat a'zosi sifatida ulardan keng qamrovda foydalanishida namoyon bo'ladi. Bunday sharoitlarda ijtimoiylashuv ikki yoqlama jarayon sifatida yuzaga keladi, ya'ni **birinchidan**, individ ijtimoiy tajribalarni tizimga aloqador holda muhitga kirib borishi orqali o'zlashtirsa, **ikkinchidan** esa bu tizimni yaratish, shakllantirish va rivojlantirish bevosita individning hayotiy faoliyati davomida amalga oshiriladi. Bu tizimda individ tomonidan faol tarzda o'zlashtirilgan normalar va ijtimoiy rollar muhim ahamiyat kasb etib, natijada, ijtimoiylashuv – ijtimoiy tajribalarni boshqa individlarga yetkazishdagi uzluksiz jarayon sifatida yuzaga chiqadi.

N.N. Pomuranning e'tirof etishicha, **ijtimoiylashuv** – bu individ tomonidan butun umr davomida o'z jamiyatiga taalluqli bo'lgan ijtimoiy rollar, odob-axloq normalari, milliy va ma'naviy qadriyatlarning o'zlashtirilishi jarayonidir. Bunda ijtimoiylashuv jarayoni yosh davrlari bo'yicha chegaralanmaydi, balki u individning butun hayoti mobaynida ijtimoiy ko'nikmalar va tajribalarni o'zlashtirishida namoyon bo'ladi.

V.M. Karimovanning ta'kidlashicha, ... **ijtimoiylashuv** tushunchasi sof ijtimoiy-psixologik va sotsiologik kategoriya bo'lib, bu shaxsning uni o'rab turgan tashqi ijtimoiy muhit ta'sirlariga berilishi, tashkilotda qabul qilingan norma va qoidalarni o'zlashtirishga moyilligi hamda ularni o'zlashtirganlik darajasini ifodalovchi jarayondir. Eng asosiysi, bu tushunchaning tub zamirida insonning tug'ilib, o'zini bevosita o'rab turgan tashqi muhit ta'sirida ulg'ayishi, shu jamiyat, shu atrof-muhit qurshovida tarbiyalanishi yotadi. Shuningdek, yana qator mualliflar «ijtimoiylashuv» tushunchasini asoslashda turli xil yondashuvlarni taklif etishadi.

Ushbu atama mohiyatini yoritishda xorijiy sotsiologlardan **N.Smelzer**: “**ijtimoiylashuv** – bajaradigan ijtimoiy rol mohiyatidan kelib chiqib, shaxsning ijtimoiy ustanovka va tajribani o'zlashtirish jarayoni”, – deya e'tirof etadi.

Ijtimoiy psixologlar (**A.R. Marshall, T.Shibutani** va boshqalar) bu tushunchaning mazmunini yoritishar ekan, “**ijtimoiylashuv** – jamiyat va boshqa kishilar bilan bo'ladigan qoniqarli aloqalar taraqqiyotida kutiladigan xulq-atvor va o'zlashtiriladigan rollarning namoyon bo'lish jarayoni”, deb tushunishadi.

Psixodinamika maktabi vakili hisoblangan **E.MakNeyl** esa bu tushunchaning mohiyatini “super-ego” taraqqiyoti bilan bog'lab o'rganib: “**ijtimoiylashuv** – bu quvvatning ijtimoiy faollik, ehtiyojlar va bazaviy xohish-istakni amalga oshirishini ta'minlash yo'nalganligini aniqlab beruvchi muhim jarayon”, – deb ta'kidlaydi.

Interaksionistlarning fikricha, “**ijtimoiylashuv** – bu bola va atrof-muhitning birgalikdagi xatti-harakatidir”.

5.2. Oilaviy ijtimoiylashuv

Oila muhiti har bir shaxs uchun **birlamchi**, dastlabki ijtimoiylashuv o'chog'i, maskani hisoblanadi. ijtimoiylashuvning **ikkilamchi** maskanlari ham mavjud-ki, unga Mehribonlik uylari, maxsus internatlar hamda harbiy bilim yurtlari kiradi. Chunki u yerda nisbatan uzoq vaqt mobaynida bola tarbiyalanadi,

o'sha yerning normalari, qadriyatlari va talablari ta'sirida dunyoqarashi shakllanadi, shaxs bo'lib yetiladi. Agar dastlabki yoki ikkilamchi ijtimoiylashuvdan chekinish, undan mahrum bo'lish yoki xulqning tashqi salbiy ta'sirotlar natijasida deviant shaklga kelishi qayd etilsa, unda ilmiy tilda aytganda, **resotsializatsiya** deb nomlangan jarayon nazarda tutiladi.

Sotsiolog olim **A.I. Antonov**ning ta'kidlashicha, oila ijtimoiy-psixologik yaxlitlik sifatida shaxsga shunday normativ va axborot ta'sirlarini ko'rsatadiki, oqibatda bola, eng avvalo, jamiyatdagi qonuniy normalar, xulq andozalarini o'zida mujassamlashtiradi. Oila qanchalik inoq, uyushgan va mustahkam bo'lsa, uning normativ ta'siri ham shunchalik samarali bo'ladi. Bunday oilada o'zining qadriyatlaridan tashqari, jamiyatning qadriyatlari, qonun-qoidalar va normalar hurmat qilinadi, bola boshidan jamiyatda yashashga o'rgatilgan bo'ladi. Uning ahamiyati shundaki, farzand maktabgacha ta'lim muassasasida ham, keyinchalik maktab, litsey yoki kollejda o'qiganda ham tartibli, intizomli, aytilgan vazifa, berilgan topshiriqlarni mas'uliyat bilan vijdonan bajaradigan bo'lib, bolalar jamiyatida hamisha o'zining o'rni hamda nufuziga ega bo'la oladi. Bunday farzandga turli stereotiplar, bemaza chaqiriqlar, da'vatlar ta'sir etmaydi, mustaqil fikrli, pok vijdonli inson bo'lib yetishadi. Chunki, oila bu kichik jamiyat, jamiyatning kichiklashgan andozasi, oila mustahkam bo'lsa, jamiyat ham mustahkam bo'lishini o'zbek xalqi juda yaxshi biladi, shuning uchun ham ayniqsa, mustaqillik yillarida oila bizning Vatanimizda qadrlanadi, nikoh muqaddas rishta sifatida e'zozlanadi.

Albatta, bolaning ijtimoiylashuv jarayoniga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi boshqa **ijtimoiy omillar** ham mavjud. Masalan, jamiyat miqyosida amalga oshirilayotgan islohotlar, davlatning yoshlar siyosati, ta'lim muassasalari va u yerlardagi ta'lim va tarbiya standartlari, diniy muassasalar (machitlar), bozor munosabatlari kabi qator jarayonlar ushbu masalaning mazmun va mohiyatini belgilaydi. Yuqorida aytilgan resotsializatsiya jarayonidan tashqari, oila muhitining o'zi ham ayrim holatlarda salbiy ma'nodagi ijtimoiylashuvga aloqador bo'lib qolishi mumkin. Olimlar o'tkazilgan qator tadqiqotlar asosida ana shunday omillarning **olti guruhini** ajratganlar:

- ota-onalar o'rtasida murosaning yo'qligi, oilaviy o'zaro munosabatlarni mustahkamlash borasida aniq belgilangan ahloqiy tamoyillarning mavjud emasligi;
- ota-onalarning ruhiy nosog'lomligi va qonunbuzarligi;
- yashash sharoitlarining yaxshi emasligi, bolaning to'laqonli o'sishi, dars tayyorlashi, jismonan chiniqishi uchun sharoitlarning yetarli emasligi;
- maktab sharoitining talab darajasida emasligi;
- mahalla hududida oila obro'sining yaxshi emasligi, notinch, noqobil oila maqomiga egalik;
- global axboratlashuv sharoitida turli axborot manbalari, jumladan, Internet tarmog'i orqali bola ongiga yetib kelayotgan turli ma'lumot, ig'vo, uydirma, mish-mish, oila qadriyatlariga zid axloq namunalari va boshqalar oxirgi yillarda bola ijtimoiylashuviga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan ijtimoiy omillar jumlasidandir.

Yuqoridagi holatlar ayniqsa, globallashuv davrida oila institutining bola ijtimoiylashuvi va ijtimoiy tarbiyasidagi oʻrni nechogʻli sezilarli ekanligini isbotlamoqda.

Oilaviy ijtimoiylashuvning qadri va ahamiyati shundaki, uning taʼsirida **birinchidan**, shaxs katta, mustaqil hayotga, jumladan, oilaviy hayotga tayyorlanadi, oʻziga yarasha sifat va fazilatlarni shakllantirib boradi, **ikkinchidan**, har tomonlama yetuk, barkamol, aqlli, sogʻ va salomat shaxs boʻlib yetishish imkoniyatiga ega boʻladi. Yaʼni, oila va uning sogʻlom maʼnaviy muhiti bolani jamiyatda yashashga, oʻziga oʻxshash shaxslar bilan murosa qilish, hamkorlikda faoliyat yuritish, kasb-hunarli boʻlish, muomalada ahloq-odob normalariga boʻysunishga oʻrgatadi, psixologik jihatdan tayyorlaydi.

Ijtimoiylashuvning dastlabki yillarida uning samaradorligi koʻproq yuqorida taʼkidlaganimizdek, oila, undagi ijtimoiy-psixologik muhit va ota-onaning tarbiyachilik burchini qanday ado etganligiga, xususan, **oilaviy ijtimoiylashuv**ga bogʻliq boʻlsa, uning keyingi bosqichlarida taʼlim muassasalari va mehnat jamoalarining roli ortib boradi hamda shunga mos ravishda yangi koʻrinishdagi ijtimoiylashuv usuli **iqtisodiy ijtimoiylashuv**ni oʻzlashtirilishini taqozo etadi.

5.3. Iqtisodiy ijtimoiylashuv

Mamlakatimizda iqtisodiy ijtimoiylashuvni oʻrganish va tadqiq etish muammosi soha mutaxassislari, xususan, ijtimoiy psixologlar oldida turgan va oʻz yechimini kutayotgan global masalalardan biri ekanligi bilan ajralib turadi.

Fanda birinchi marta "**iqtisodiy ijtimoiylashuv**" atamasidan birvarakayiga uch olim, yaʼni **S.Kumings** (S.Cummings), **D.Tibl** (D.Taebel) **V.Teybel** (V.Taebel), **B.Staeylar** oʻz ilmiy tadqiqotlari tahlilini yoritishda foydalanishgan.

Tadqiqotchi **G.O. Ochilova** izlanishlari natijasidan kelib chiqib: "Oiladagi **iqtisodiy ijtimoiylashuv** – bu shu oila aʼzolarining oiladagi yetakchi professional faoliyat, tadbirkorlik faoliyati taʼsirida ishlab chiqarish munosabatlariga oid normalarni idrok qilishi, anglashi va qabul qilib, shu kabi faoliyat turiga nisbatan ijtimoiy xulqni namoyon qilishga hozirligi jarayonidir", deb taʼriflagan.

Tarixga nazar tashlaydigan boʻlsak, oʻtgan asrning oʻrtalariga kelib, xorijiy ijtimoiy va kross-madaniy psixologiyada iqtisodiy ijtimoiylashuv jarayoni oʻrganila boshlangan. Adabiyotlar tahliliga qaraganda hozirgi vaqtda bu muammoni ilmiy jihatdan tadqiq etish boʻyicha xorijiy iqtisodiy psixologlarda yetarli darajadagi nazariy va empirik tajriba mavjud. Xorijiy psixologlar tomonidan iqtisodiy ijtimoiylashuvning mazmuni va mohiyatini yorituvchi ilmiy izlanishlarda:

- kattalar iqtisodiy dunyosining bolalar tomonidan anglanilishi (**Berti** va **Bombi**, 1998; **Bonn** va boshqalar, 1999 va hokazo);
- iqtisodiy munosabatlar sharoitida bolalarning oʻzini oʻzi boshqaruvi va iqtisodiy xulq-atvori (**Ford**, 1990; **Webley**, **Levine** va **Lewis**, 1991; **M.S. Sonuga-Barker** va **Webley**, 1993; **Doss** va boshqalar, 1995; **Webley** va boshqalar, 2001 va hokazo);
- bolalarning uy-xoʻjaligi iqtisodida bajaradigan rollari (**Goodnow**, 1988;

Hill, 1992; Pliner, 1994; Zabukovich va Polic, 1994; Lessarre, 1996 va boshqalar);

– cho‘ntak pullari (Abramovitch, 1991; Feather, 1991, Furnham, 2001 va boshqalar) kabi qator muammolar tadqiq etilgan.

Adabiyotlar tahliliga ko‘ra, uzoq yillardan beri bu muammo doirasida yana qator xorijiy olimlar, jumladan X.Dittmar (1997), P.Lunt (1996, 1997), A.Furnhan (1986, 1988, 1996, 2001), P.Webley, C.Bugouyne, S.Lea, B.Young (2001) va boshqalar; rus olimlari, jumladan, O.S. Deyneka (1999), A.B. Fenko (2000), M.A. Vinokurov va A.D. Karnishev (2000, 2001), T.V. Drobisheva (2000, 2002), N.N. Pomuran (2004) va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borishgan hamda fan uchun muhim ilmiy yangiliklarni qayd etishgan.

So‘ngi 10 yil ichida qator rus olimlari, jumladan, G.M. Andreeva, O.S. Deyneka, S.V. Azarenok, A.D. Karnishev, A.L. Juravlev, T.V. Drobisheva, A.V. Boyarinseva, V.A. Polyakov, A.S. Gotlib, I.A. Sasova, G.V. Semya, M.N. Stelmashuk, A.V. Filippovlar qisman bo‘lsa-da, iqtisodiy munosabatlar sharoitida iqtisodiy ong shakllanishini “iqtisodiy ijtimoiylashuv” jarayonining predmeti sifatida tadqiq etishgan.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida zamonaviy jamiyatga xos omillar va shart-sharoitlarga yoshlarning moslashuvchanligi hamda ijtimoiy taraqqiyoti masalalarini A.I. Kovaleva, P.A. Chukreev, V.A. Ddovlar ilmiy muammo sifatida tadqiq etishgan. Shuningdek, yoshlar ijtimoiy taraqqiyoti va iqtisodiy ijtimoiylashuvi hamda bozor munosabatlariga nisbatan qadriyatlar yo‘nalganligi dinamikasi muammolarini yuqori sinf o‘quvchilari misolida I.L. Vintin, L.G. Borisova, V.V. Gavriyuk, Yu.A. Zubok, Z.K. Selivanovalar o‘rganishgan.

V.G. Krisko ijtimoiy psixologiya bo‘yicha lug‘at (slovar-spravochnik)da **iqtisodiy ijtimoiylashuv** mohiyatini ochib beruvchi omillarning 1) **ijtimoiy** va 2) **individual-shaxsiy** kabi ikkita katta guruhini ajratib ko‘rsatadi. Muallifning fikricha, ijtimoiy guruh tarkibini – **makro-**, **mezo-**, va **mikroomillar** tashkil etib, bu omillar shaxs taraqqiyotining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, tarixiy, milliy va boshqa qator xususiyatlariga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. **Ijtimoiy omillarni** quyida ko‘rinishda to‘laqonli tasavvur qilish mumkin:

- **makroomillar**: mamlakat, davlat, madaniyat;
- **mezoomillar**: etnos (millat), hududiy shart-sharoitlar, shahar va qishloqlar, OAV;
- **mikroomillar**: oila, mehnat jamoasi, ta’lim muassasalari yoki diniy idoralar.

Shunday qilib, tahlillarga ko‘ra, **iqtisodiy ijtimoiylashuv** – bu butun dunyo iqtisodiy transformatsiyasi tayanch zamirini tashkil etuvchi va o‘z ichiga xususiy hamda umumiy mulkchilikning mavhum tomonlarini uyg‘unlashtiruvchi zamonaviy aralash iqtisodiyotning muhim xususiyatlaridan biridir. U ishlab chiqarish jarayonlarida: ijtimoiy talabni qayta hisobga olish, kishilar mehnati va hayotini insonparvarlashtirish, ijtimoiy differentsiatsiyani yumshatish, iqtisodiy sohalarini yuksaltirish kabi qator voqeliklar hamda hodisalarda namoyon bo‘ladi.

Ishlab chiqarish jarayonlarida ijtimoiy talabni qayta hisobga olish G'arbdagi barcha rivojlangan davlatlar iqtisodiy sohasining «ich-ichiga» singib ketgan. Shu bois, bu mamlakatlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish markazi bo'lib asosiy ehtiyojlar (ham shaxsiy, ham umumiy) ierarxiyasi xizmat qilmoqda. Ehtiyojlar tizimi, talab va ehtiyojlar tuzilmasi, hayotiy tasavvurlar va sifatlar, inson rivojlanishi shart-sharoitlari asosida bu borada ijobiy siljishlarga erishilmoqda.

Iqtisodiy ijtimoiylashuvning belgilari, asosan, jon boshiga aholi daromadini o'sishi va millat yashash tarzini farovonligida namoyon bo'ladi. Jamiyat ijtimoiy tuzilmasining o'zgarib borishi, o'z navbatida ijtimoiy-sinfy farqlarni yuzaga keltirib, ijtimoiy aloqadorlikni kuchaytiradi hamda ijtimoiy hamkorlikning turli xil ko'rinishlarini namoyon etadi. Mazkur omillar hammasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish davrida iqtisodiy ijtimoiylashuvga va jamiyatni sanoatlashtirishga bo'lgan xatti-harakatlarni kuchaytiradi.

Shaxs ijtimoiylashuvi, xususan, insonning ijtimoiy moslashuvi uning bilishga bo'lgan ob'ektiv ehtiyoji jarayonida paydo bo'ladi. Biroq bu bilan uzviy ravishda shaxsda boshqa bir ob'ektiv ehtiyoj – o'ziga xoslikni namoyon qilish hissi ham shakllanadi. Shaxs uni yuzaga chiqarish uchun turli usul va vositalarni qidira boshlaydi va buning natijasida uning individuallashuvi ro'y beradi. Shaxsning faqat o'ziga tegishli bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga ega xislatlari individual tarzda namoyon bo'ladi, uning ijtimoiy xulq-atvori esa takrorlanmas jihatlarga ega bo'ladi.

Fikrimizcha, oilada farzandning ijtimoiy rivojlanishi, xususan, uning professional o'sishi o'zaro bog'liq bo'lgan **ikki** yo'nalishda olib boriladi: **moslashuv** (oilaviy shajara, oilaviy merosni o'zlashtirish) va **individuallashuv** (mustaqillik, nisbatan o'ziga xoslikka ega bo'lish). Shunday qilib **ijtimoiylashuv tushunchasi zamonaviy fanda inson shaxsining moslashuvi va individuallashuvi jarayonlarini o'zaro bog'laydi**. Insonning aniq bir jamiyat sharoitlariga moslashuvi yoki undan ajralib chiqishi (individuallashuvi) ijtimoiylashuv jarayonining mazmunini tashkil qiladi. Moslashish sub'ekt va ijtimoiy muhitning o'zaro faol yaqinlashuv jarayoni va natijasidir (**J.Pia Je, R.Mertoj**).

Ijtimoiy moslashuv esa ijtimoiy muhit talablariga insonning munosabat bildirishidir. Shunday qilib, ijtimoiylashuv individning ijtimoiy mavjudotga aylanish jarayoni va natijasidir.

Individuallashuv insonning ob'ektiv ehtiyojlar bilan bog'liq holda jamiyatda ma'lum darajada alohidalikka intilishi bo'lib, uning yoshligidayoq o'z-o'zini namoyon qilishga bo'lgan harakatlarida paydo bo'ladi. Bu ehtiyoj quyidagicha namoyon bo'ladi:

- o'z qarashlariga ega bo'lish;
- o'ziga xosliklarga ega bo'lish;
- o'ziga tegishli bo'lgan masalalarni o'zi hal qilish;
- o'z mavqeini aniqlab olishiga xalaqit beradigan hayotiy holatlarga qarshi turish.

Agar shaxsning jamiyatga kirishida moslashuv va individuallashuv

jarayonlari o'rtasida tenglik yuzaga kelsa, insonning jamiyatga yaqinlashuvi ro'y beradi. Shu bilan birga, bunday hollarda shaxs va muhitning o'zaro ta'sir etishi ham sodir bo'ladi.

Shunday qilib, muvaffaqiyatli ijtimoiylashuv **moslashuv va individuallashuv o'rtasida muvozanat saqlangandagina amalga oshishi mumkin**. Bu jarayon uch asosiy sohada amalga oshadi:

– faoliyat turlarini kengayishi, uning shakl va vositalarini qo'lga kiritish, erkin mo'ljal olish;

– muloqot doirasini kengaytirish, uning mazmunini chuqurlashtirish, xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirish;

– shaxsiy “Men” obrazini faoliyatning faol ishtirokchisi sifatida shakllantirish, o'z ijtimoiy mansubligi va o'rnini anglash, o'ziga baho berishni shakllantirish.

Shaxsning iqtisodiy ijtimoiylashuvi jarayonini iqtisodiy, sotsiologik va psixologik jihatlarini tadqiq qilish natijasida olingan ilk ma'lumotlarni quyidagi 5.1-rasm ko'rinishida tizimlashtirimiz mumkin.

Tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, **iqtisodiy ijtimoiylashuvning madaniy-iqtisodiy ta'rifi** – bu butun dunyo iqtisodiy transformatsiyasi tayanch zahirini tashkil etuvchi va o'z ichiga xususiy hamda umumiy mulkchilikning mavhum tomonlarini uyg'unlashtiruvchi zamonaviy aralash iqtisodiyotning muhim xususiyatlaridan biridir. U ishlab chiqarish jarayonining “**jamoaviy-sub'ektiv → individual-ob'ektiv**” munosabatlar tizimida: ijtimoiy talabni qayta hisobga olish, kishilar mehnati va hayotini insonparvarlashtirish, ijtimoiy differentsiatsiyani yumshatish, iqtisodiy sohalarni yuksaltirish kabi qator voqeliklar hamda hodisalarda namoyon bo'ladi.



5.1-rasm. Shaxs iqtisodiy ijtimoiylashuvi jarayoniga ta'sir qiluvchi omillar guruhining har bir soha doirasidagi ko'rinishi

Uning **ijtimoiy-psixologik ta'rifi** – bu umumiy holda **shaxsning mavjud jamiyat iqtisodiy munosabatlari tizimiga moslashuvi jarayoni** sifatida e'tirof etish lozim.

Ushbu e'tirofga ko'ra, iqtisodiy ijtimoiylashuv jarayoni tadqiqot ob'ekti (shaxs), tadqiqot asosi (iqtisodiy munosabatlar tizimi), shuningdek, tadqiqot predmeti (shaxsning iqtisodiy munosabatlar tizimiga moslashuvi)ni o'z ichiga qamrab oladi. Ta'rifda keltirilgan **“moslashuv”** atamasidan tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda foydalanilgan bo'lib, mohiyatan u **1) “iqtisodiy ongning shakllanishi va vujudga kelishi”, 2) “indivud (u bola yoki katta yoshli kishi) tomonidan iqtisodiy faoliyatga kirishishini ta'minlovchi rollar: mulkdor, tadbirkor, sotuvchi, xaridor, aksionerga xos bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirish”** kabi iqtisodiy ijtimoiylashuv jarayonining **“jamoaviy-ob'ektiv → individual-sub'ektiv”** munosabatlari tizimini asoslanilishini nazarda tutadi.

5.4. Siyosiy ijtimoiylashuv

Shaxs xususiyatlarini ilmiy uslublar yordamida tadqiq etish falsafa, madaniyatshunoslik, psixologiya, pedagogika, sotsiologiya, politologiya, etnologiya kabi fan sohalari doirasida amalga oshiriladi. Ayniqsa, bugungi kunda demokratik qadriyatlarga nisbatan ehtiyojlarning oshib borayotganligi uni yana

ham dolzarb mavzu darajasiga ko'taradi. Chunki, shaxs – siyosatning ob'ekti va sub'ekti hisoblanadi. Shaxs muammosi keyingi yillarda tarmoqlararo tadqiqotchilarning ham e'tiborini tobora ko'proq tortmoqda. Garchi bu masala bugungi kunning mavzusi bo'lmasada, siyosiy psixologlar, siyosatshunoslik fanining yutuqlariga tayanib, mazkur masalani o'rganib bormoqdalar. Siyosiy psixologiya tadqiqotning sifatli va samarali yo'llari hamda qurollariga ega bo'lib, shaxs va siyosat, shaxsning siyosiy psixologiyasi, shaxsning siyosiy ijtimoiylashuvi kabi mavzularga oid bir qator tadqiqotlarni amalga oshirgan.

Barqaror rivojlanish davrida shaxsning siyosiy psixologiyasi masalasini ilmiy o'rganish naqadar muhimligini ta'kidlab, ilmiy jamoatchilik bu masalaga alohida yondashib kelmoqda, qiziqish bildirmoqda. Ilmiy tadqiqotlarning natijalarisiz siyosiy shaxslar, ayniqsa, siyosatga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatuvchi yetakchilarga oid fikrlarni yuritish o'rinsiz bo'ladi. Negaki, bu holda faqatgina umumiy gaplar bilan chegaralanib qolinadi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, bugungi kunda siyosatdagi alohida inson hanuzgacha chetda qolib ketmoqda, unga nisbatan hamon shaxs sifatida emas, balki ommaga taalluqli bo'lgan qism sifatida qarash davom etmoqda. Buning alohida sabablari mavjud bo'lib, bizningcha, ularning asosiylaridan biri bu siyosiy psixologiyada hanuzgacha tadqiqot uslubiyoti bo'yicha asarning yaratilmaganligidir. Jamiyat hayotini demokratlashtirish an'anasi siyosatga aholi yangi qatlamlarining kirib kelishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa, o'z-o'zidan siyosiy psixologiyaning oldiga yangidan-yangi vazifalarni qo'yimoqda. Albatta, mazkur holat shaxs masalasiga siyosiy psixologik nuqtai nazar asosida, alohida yondashishni talab etadi.

Siyosatda shaxs masalasiga oid ikki yondashuv ma'lum:

- ☞ “ob'ektli” yondashuv;
- ☞ “sub'ektli” yondashuv.

Ma'lumki, inson na shaxs, na siyosatchi, qo'yingki, na fuqaro bo'lib ham dunyoga keladi. Uning fuqaro yoki shaxs sifatidagi xususiyatlarini davlat yoxud jamiyat tarbiyalaydi hamda tan oladi. Fuqaroning bu qonunlarni tan olishi – davlatga, uning siyosiy tizimiga va siyosiy madaniyatiga mansubligini bildiradi. Shaxs uchun bu guruh yoki jamiyat tomonidan belgilangan maqsadlar va o'rnatilgan qadriyatlarni qo'yiladigan talablarga muvofiq qabul qilish, ijtimoiy rollarini to'g'ri bajarish, qabul qilingan me'yorlarga murosalari bo'lish va ulardan bosh tortganlik uchun sanksiyalarga to'qnashib ketmaslik demakdir.

Siyosiy ijtimoiylashuv – indiividning siyosiy tizimga mazkur tizim tajribasi bilan shu tizim zaminida vujudga kelgan siyosiy madaniyatda mustahkamlangan davlat bilan tanishtirish, shu tizim vositasida kirib borish jarayonidir. Bu individ bilan siyosiy tizimning shunday hamkorlik jarayoniki, uning maqsadi individning mazkur tizimga moslashishiga ko'mak berish, uni fuqaroviy shaxsga aylantirishdan iborat. Sotsiolog A.Xolbekov va siyosatshunos U.Idirov siyosiy ijtimoiylashuv - shaxsning mavjud jamiyatga xos bo'lgan siyosiy g'oyalar, bilimlar, siyosiy munosabat va xatti-harakat me'yorlarining o'zlashtirilishi deb ko'rsatganlar. Individning siyosiy tizim bilan o'zaro hamkorligi jarayonida **ikki qator** holat amalga oshadi. Bir tomondan, tizimda o'qitish, o'ziga xos a'zolari moslashtirish bilan tobora o'zini-o'zi ko'paytiradi, o'zini qayta ishlaydi. Bu jarayonda siyosiy

tizim siyosiy qadriyatlar va tizimning maqsadlarini asrab qolish mexanizmi rolini bajaradi, siyosatda avlodlar ustunligini saqlashga imkon beradi. Ikkinchi tomondan, siyosiy tizim talablari individual psixologik tuzilmalarga ko'chib boradi, shaxsning siyosiy xususiyatlariga aylana boradi. Boshqacha aytganda, shaxs, individning siyosiy tuzilishi kabi xususiyatlari shakliga kiradi. Natijada, siyosiy ijtimoiylashuv shaxsning siyosiy ongi va uning siyosiy xulq-atvorini shakllantiradi va umuman olganda, siyosiy ijtimoiylashuv jarayonida fuqarolarning shaxsga mazkur siyosiy tizim a'zosiga aylana borishi yuz beradi.

“**Siyosiy ijtimoiylashuv**” tushunchasi insonga ustunlikka ega bo'lgan siyosiy-mafkuraviy tizimning (siyosiy jarayonlar) shakliga aniq maqsadni ko'zlab, ta'sir yetkazishni o'z ichiga olibgina qolmaydi. Stixiyali («tizimdan tashqari») ta'sir, shuningdek, insonning o'z faolligi, o'zini o'rab turgan siyosiy olamni o'rganishga yo'naltirilgan faolligini ham o'z ichiga oladi. Inson o'z oldida turgan, taklif qilinayotgan siyosiy maslaklar yig'indisidan, o'zining ichki qarashlari va o'z fikrlariga mos keladigan, buning ustiga faqat o'zi anglaganlarigina emas, hali anglamagan qarashlariga qarab tanlash qobiliyatiga ega.

Siyosiy ijtimoiylashuv mexanizmlari **bir necha bosqichlarda** amal qiladiki, bularni umumlashtirgan holda, **umumijtimoiy, ijtimoiy-psixologik, individual** (yoki ichki ruxiy) bosqichlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Jamiyatning va uni hosil

qiluvchi katta guruhlarining **umumijtimoiy** bosqichida insonga o'zini o'zi baholashi lozim bo'lgan katta miqdordagi makroiijtimoiy va makrosiyosiy omillar ta'sir ko'rsatadi va shu baholash asnosida mazkur jamiyat va uning siyosiy tizimiga muvofiq keladigan munosabatni tarbiyalash lozim bo'ladi. **Ijtimoiy-psixologik** bosqichda siyosiy maqsadlar va qadriyatlar tizim a'zosi bo'lgan individ, katta va kichik guruhlar orqali yetkazib boriladi. **Individual** bosqichda siyosiy ijtimoiylashuv mexanizmlari sifatida individual-psixologik tuzilmalar ishtirok etadi. Ular asosida keyinchalik insonning siyosatdagi xulq-atvori, ongini boshqaradigan ehtiyoj, motiv, stereotip, maqsadlar asta-sekin shakllana boradi.

Siyosiy ijtimoiylashuv bir necha asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi. Siyosiy ijtimoiylashuv bosqichlari, avvalo, insonning shaxs sifatida shakllanishi, kamol topib borishidagi yosh jihatidan o'zgarishlar bilan bog'liq. Rivojlanishining birinchi bosqichida asosiy o'zgarishlar ro'y berib, fuqaroning shaxsga aylanishi va siyosiy ijtimoiylashuviga asos solinadi. Hozirgi kunda jamiyatimizda bu ancha erta boshlanadi. 3-4 yoshidanoq, o'z yoshiga yarasha, go'dak oilasi, o'zini o'rab turgan ijtimoiy muhit, ommaviy axborot vositalari orqali siyosat to'g'risidagi ilk ma'lumotlarga ega bo'ladi. Bu davrda qabul qilinishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar bola tafakkuriga ta'sir qilayotib, o'z samarasini beradi. Gap pozitiv va negativ

Сиёсий ижтимоийлашув – индивиднинг сиёсий тизимга мазкур тизим тажрибаси билан шу тизим замида вужудга келган сиёсий маданиятда мустақамланган давлат билан таништириш, шу тизим воситасида кириб бориш жараёнидир.

Сиёсий ижтимоийлашув – шахснинг мавжуд жамиятга хос бўлган сиёсий ғоялар, билимлар, сиёсий муносабат ва ҳатти-ҳаракат меъёрларининг ўзлаштирилиши.

qadriyatlarni ifodalash uchun siyosiy ramzlardan faol foydalanadigan siyosiy targ'ibot-tashviqot tizimida. Bola maktabga borganida siyosiy ijtimoiylashuvning yangi bosqichini bosib o'tadi. Maxsus ijtimoiylashtiruvchi institutlar ta'siri ostida siyosat bobidagi bilimlar miqdori ko'paya borishi bilan birga, ularning sifati ham o'zgara boradi. Maktab yoshida siyosatga ongli munosabat shakllana boshlaydi va keyingi o'smirlilik bosqichida siyosiy qadriyatlarning yangi elementlari ham qo'shib boradi. Shu bois, siyosiy-ta'lim tadbirlarini rejalashtirishda yosh, jins, hudud xususiyatlarini inobatga olish hamda amaliyotga tadbir etish va boshqarish davomida unga amal qilish maqsadga muvofiqdir.

5.5. Ijtimoiylashuv vositalari, agentlari, mexanizmlari va bosqichlari

Ijtimoiylashuv vositalari. Inson ijtimoiylashuvi u yoki bu jamiyat ijtimoiy qatlamlariga xos bo'lgan universal vositalar orqali amalga oshiriladi. Ularga quyidagilar kiradi:

- go'dakni emizish va g'amxo'rlik qilish usullari, maishiy va gigienik yurish-turish qoidalari;
- insonni o'rab turuvchi moddiy madaniyat mahsulotlari, ma'naviy madaniyat unsurlari (alladan boshlab ertaklargacha), muomala usuli va mazmuni;
- oilada jazolash va mukofotlash uslublari;
- insonning hayotiy faoliyatidagi ko'p sonli munosabatlari, ya'ni muloqot, o'yinlar, ma'naviy-amaliy faoliyat, sport bilan shug'ullanish.

Har bir jamiyat, davlat, ijtimoiy guruh ijobiy va salbiy, rasmiy va norasmiy qarorlar, ta'qiqdashlar, ruxsat berish, majburlash kabi chora-tadbirlarni ishlab chiqadi. Bu choralar yordamida inson xulq-atvori shu jamiyatda qabul qilingan me'yoriy qadriyatlarga moslashtiriladi.

Shaxs ijtimoiylashuvining yetakchi vositalari:

- **muloqot** (ota-onalar, tengdoshlar va boshqalar bilan);
- **faoliyat** (o'yin, o'qish, ijod, sport) hisoblanadi.

Psixologik-pedagogik tadqiqotlar jarayonida turli yosh davrlariga xilma-xil faoliyat turlari mos kelishi aniqlangan.

Ijtimoiylashuv agentlari. Insonning voyaga yetishida va shakllanishi jarayonida u bilan bevosita munosabatda bo'lgan kishilar muhim o'rin tutadilar. Ularni ijtimoiy pedagogikaga oid adabiyotlarda "ijtimoiylashuv agentlari" deb ham nomlanadi. Turli yosh davrlarida agentlarning tarkibi turlicha bo'ladi. Bolalar va o'smirlar uchun ota-ona, aka-uka, opa-singillar, qarindoshlari, tengdoshlari, qo'shnilar agent bo'lishlari mumkin. Yoshlik davriga kelib, agentlar qatoriga turmush o'rtog'i va hamkasblari ham qo'shilishlari mumkin. Ijtimoiylashuvdagi tutgan o'rniga, inson uchun ahamiyatiga qarab agentlar **faol ta'sir etuvchi va faol ta'sir ko'rsatmaydigan** agentlarga farqlanadi.

Ijtimoiylashuv mexanizmlari Insonning ijtimoiylashuvi turli **omillar**, **agentlar** bilan hamkorlikda va bir qator **mexanizmlar** asosida amalga oshadi. Fransuz olimi **G.Tard**, amerikalik **U.Bronfenbrenner**, rus olimlaridan **V.S.**

Muxina va **A.V. Petrovskiylarning** tadqiqotlarida ijtimoiylashuv mexanizmlariga turlicha yondashuvlar keltiriladi. Mavjud ma'lumotlarning umumlashtirilishi quyidagi mexanizmlarni alohida ajratib ko'rsatish imkonini beradi:

I.P. Podlasiy tasnifi bo'yicha, **ijtimoiylashuv mexanizmlari** quyidagilardan iborat:

1. Bostirish mexanizmi. Uning mazmuni muayyan g'oya, fikr, xohish, istaklarni ongdan chiqarib tashlashdan iborat. Bu mexanizmning tashqi va ichki turlari mavjud. Ichki mexanizm ham o'z o'rnida ixtiyoriy va g'ayri ixtiyoriyga bo'linadi. G'ayriixtiyoriy mexanizm unutishdir. Ixtiyoriy bostirish mexanizmi iroda kuchi bilan amalga oshiriladi. Tashqi bostirish mexanizmi tarbiyaning keng tarqalgan usulidir.

2. Ajratish mexanizmi. Bu mexanizm ijtimoiylashuv mexanizmi sifatida inson o'zi uchun yomon taassurotlardan voz kechishi bilan bog'liq. Ajratish mexanizmi, odatda, nizolarni hal qilishda kuzatiladi.

3. O'z-o'zini cheklash mexanizmi. Bu mexanizm ijtimoiylashuv jarayonida muhim o'rin tutadi. Agar shaxsga uning yutuqlari do'stlarinikidan ko'ra ahamiyatsizroq tuyulsa, uning o'ziga nisbatan hurmati pasayadi, yomon o'qiy boshlaydi. Bu esa uning o'z «Men»ini cheklab qo'yishi va qiyinchiliklar oldida ojiz qolishi, demakdir. Ba'zi hollarda o'z-o'zini cheklash mexanizmini qo'llashni oqlasa bo'ladi. Chunki bu holatda moslashuv sodir bo'lishi mumkin. Biroq uzoq muddatli o'z-o'zini cheklash o'z-o'ziga baho berishning pasayishiga olib keladi. Oqibatda shaxs o'z salohiyatini bilmay turib, ilk muvaffaqiyatsizlikdan so'ng boshlagan ishini tashlab qo'yib, oqimga qarab suza boshlaydi;

4. Loyihalash mexanizmining mohiyatini o'z kamchiliklarini boshqalarga tegishli, deb hisoblash tashkil qiladi. O'ziga yoki boshqalarga qarshi qaratilgan salbiy hissiyotlar yordamida inson o'ziga bo'lgan hurmatni saqlab qoladi. Shubhali inson boshqalardan gumonsiraydi, xudbin hammani xudbin deb hisoblaydi.

5. Identifikatsiyalash ijtimoiylashuvning yana bir asosiy mexanizmidir. Identifikatsiya jarayonida shaxs xayolan o'zini o'rtoqlari bilan qiyoslaydi. Identifikatsiya ob'ekti nafaqat real insonlar, balki tasavvurlardagi insonlar ham bo'lishi mumkin. Identifikatsiyaning to'liq, qisman, ongli, ongsiz turlari mavjud.

6. Identifikatsiya mexanizimi **introeksiya** mexanizmi bilan juda bog'liq. Bunda boshqalarning xislatlari, go'yoki «ketma-ket terilganday», maxsus o'zgartirilmagan holda shaxs ongida o'zlashtirib olinadi. Garchi bu mexanizm xayolan amalga oshirilsa-da, uning natijalarini anglab olish unchalik murakkab emas.

7. Empatiya mexanizmi boshqa odamning hissiy holatiga hamdard bo'lish. Bu mexanizm hissiyotga boy shaxslarning ijtimoiylashuvida muhim ahamiyatga ega.

8. Intellektuallashuv mexanizmida katta yoshdagi shaxs abstrakt fikrlay boshlaydi va vaziyatdan chiqib ketish yo'lini o'zi uchun emas, go'yoki boshqa odam uchun qidiriyotgandek tuyuladi. Bu mexanizm tarbiyalanuvchi hayotiy

muhim muammolarga (kasallik, boshqa maktabga o'tish, institutga kirish) duchor bo'lganda namoyon bo'ladi.

9. Harakatlarni bekor qilish mexanizmi fikr, hissiyot, harakatlarni susaytirish uchun qo'llaniladi. Shaxs kechirim so'raganida, uning xatolarining kechirilishi va sof vijdon bilan faoliyatini davom ettirishiga ishonadi. Ko'pchilik shu tarzda komillikka erishadi.

A.V. Mudrikning fikricha, psixologik va ijtimoiy-psixologik mexanizmlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Imprinting (xotirada saqdab qolish) – insonning unga ta'sir qiladigan hayotiy muhim ob'ektlarni eslab qolishi. Bu mexanizm, odatda, go'daklik davrida ko'p qo'llaniladi. Biroq keyingi yosh davrlarida ham imprintingni kuzatishimiz mumkin.

2. Eksiztensial bosim mexanizmi – tilni o'zlashtirish va o'zaro munosabatga kirishganda kerak bo'ladigan ijtimoiy xulq-atvor me'yorlariga anglamagan holda ega bo'lish.

3. Taqlid – biror-bir «namuna»ga o'xshash uchun harakat qilish. Bu holat insonning ijtimoiy tajriba to'plashining ixtiyoriy va asosan ixtiyorsiz yo'llaridan biridir.

4. Refleksiya mexanizmi – ichki suhbat. Unda inson jamiyatning turli institutlari, oila, tengdoshlar jamoasi, obro'-e'tiborli shaxslarga xos xususiyatlarga baho beradi, ularni ko'rib chiqadi yoki inkor etadi. Refleksiya insonning turli "Men" obrazlari orasidagi real va xayoliy shaxslarning ichki suhbatidir. Bu mexanizm yordamida insonning shakllanishi ro'y beradi.

N.M. Egamberdievaning yozishicha, ijtimoiylashuvning ijtimoiy-pedagogik mexanizmlariga an'anaviy va institutsional mexanizmlarni ham kiritisa bo'ladi:

1. An'anaviy mexanizm inson tomonidan oila, atrof-muhit, qo'shnilar, o'rtoqlariga xos me'yor, qarash stereotiplarini o'zlashtirishni ko'zda tutadi. Bu o'zlashtirish ongsiz ravishda amalga oshirilib, taassurotlar yordamida sodir bo'ladi.

2. Institutsional mexanizm insonning jamiyat institutlari va turli tashkilotlar bilan o'zaro munosabati jarayonida kuzatiladi. Bu jarayonda inson turli bilim va tajribalarni to'plashi mumkin.

Ijtimoiylashuv bosqichlari Ijtimoiy psixologlar, masalan, **V.M. Karimova**, ijtimoiylashuvning bosqichlari, funksiyalarini tafovutlash bilan birgalikda uning har birida **o'ziga xos ijtimoiylashuv usullari ustuvor bo'lishini** ham ta'kidlaydi. Masalan, rus sotsiologi **N.Andreenkova** ijtimoiylashuv jarayonini ikki katta bosqichda tasavvur qiladi. Uning **birinchi** bosqichi – individning ijtimoiy mavjudot sifatida shakllanishini ta'minlovchi hayot bo'lagini o'z ichiga olib, u inson hayotining qariyb uchdan bir qismini tashkil etadi. Bu davrda asosan bolaning:

– ilk ijtimoiylashuvi (bolalik davri);

– normativ xulqning marginal jihatlarini o‘zlashtirish davri (o‘smirlik davriga to‘g‘ri keladi);

– o‘spirinlikdan balog‘at yoshiga o‘tish davrini o‘z ichiga olgan ijtimoiylashuv oqibatlari yaxlit namoyon bo‘ladigan bosqich.

Ikkinchi bosqich – shakllanib bo‘lgan shaxsning jamiyatda faoliyat yuritishi davrlarini o‘z ichiga olgan hayot bosqichi. Bunda shaxs dastlab mehnatga yaroqli jamiyat a‘zosi sifatida, so‘ngra naqaqa yoshiga yetgan inson siftida o‘z o‘rniga ega bo‘ladi.

5.6. Shaxsning ijtimoiy ustanovkalari

Shaxs ijtimoiylashuvi muammosi ko‘tarilganda, ijtimoiy tajribaning u tomonidan qanday yo‘l bilan va qay darajada o‘zlashtirilganligi ijtimoiy ustanovka fenomeni orqali tushuntiriladi.

Ma‘lumki, ustanovka muammosi dastlab gruziyalik psixologlar, jumladan, *D.N. Uznadze* tomonidan fanga kiritilgan edi. Lekin ushbu jarayonning psixologik qonuniyatlarini o‘rganish oddiy ustanovka bilan ijtimoiy ustanovka o‘rtasida muayyan farqlar borligini isbotladi. Chunki *D.Uznadze* konsepsiyasiga muvofiq, “ustanovka sub’ektning yaxlit bir dinamik holatini, uning qandaydir faollik va harakatlarga tayyorligini bildiradi va asosan ikki omilning ta’sirida namoyon bo‘ladi: sub’ektning ehtiyojlari va muayyan ob’ektiv vaziyatning holati”. Ya’ni, konkret bir vaziyatlarda u yoki bu ehtiyojni qondirishga yo‘naltirilgan va qandaydir ma’noda odatiy shakl olgan holat ustanovka deb ataladi. Uznadze ustanovkani keltirib chiqaruvchi vaziyatni tahlil qilganda, uning ijtimoiy omillarga bog‘liq tomonlariga, shaxs hayoti mobaynida orttirgan ijtimoiy tajribasi nuqtai nazaridan qaramagan edi.

G.M. Andreevaning ta’kidlashicha, *Uznadze* taklif etgan ustanovkalar konsepsiyasi asosan insondagi oddiy fiziologik ehtiyojlarning qondirilishi bilan bog‘liq holatlarni tushuntirishga bag‘ishlangandir. Chunki uning tushunishicha, ustanovka ko‘proq ongsiz harakatlarni tushuntirishda qo‘l keladi. Hayotda ijtimoiy vaziyatlar ularda shaxs orttirgan tajribaning o‘zlashtirilishi katta ahamiyatga ega bo‘lganligi sababli, ijtimoiy psixologiyada, sotsiologiyada uni alohida psixologik holat sifatida qarash maqsadga muvofiqdir.

G‘arb ijtimoiy psixologiyasida ijtimoiy ustanovkalarni o‘rganish va uni tavsiflash uchun “*attitud*” – **attityud** tushunchasi qo‘llaniladi. Xorijlik olimlar attityudga ta’rif berganlarida uning ijtimoiy xulqqa aloqador ekanligini, individning ilgarigi tajribasi ta’sirida u yoki bu vaziyatlarga reaksiya berishi holati ekanligiga ko‘proq urg‘u beradilar. Shundan kelib chiqib, attityudning to‘rtta asosiy *vazifasi* mavjud ekanligiga e’tibor qaratilgan:

1. *moslashtiruvchi* – attityud sub’ektni uning maqsad va manfaatiga aloqador bo‘lgan ob’ektlarga yo‘naltiradi, moslashtiradi;

2. *bilish funksiyasi* – konkret ob’ektga nisbatan mavjud vaziyatda anchagina qulay bo‘lgan xulq-atvor shaklini tanlashga yordam beradi;

3. *namoyon etish funksiyasi* – individni shaxs sifatida, muayyan qadriyatlarga e'tiqodi bor inson sifatida tutishini ta'minlaydi;

4. *himoya vazifasi* – shaxsning ichki ziddiyatlarini bartaraf etish va turli vaziyatlardan chiqib ketishiga imkon beradi.

Bu funksiyalarni bajaruvchi attityud olimlar fikricha o'ziga yarasha *tizimga* ham ega bo'ladi. Amerikalik *M.Smit* attityudning uch komponentli tizimni farqlaydi:

Kognitiv komponent – bu ijtimoiy ustanovka ob'ektini anglash bilan bog'liq jihatlar;

Affektiv komponent – bu ob'ektga nisbatan hissiy munosabatlar, uni emotsional baholash, yoqtirish-yoqtirmaslik bilan bog'liq sub'ektiv holatlar;

Xulq-atvor komponenti (yoki konativ) – ob'ektga nisbatan real xatti-harakatni tushuntiruvchi jihatlar.

Bu uchala komponentlar o'zaro bir-birlari bilan bog'liq bo'lib, vaziyatga qarab u yoki bu komponentning roli ustunroq, sezilarliroq bo'lishi mumkin. Shuni ham ta'kidlash joizki, komponentlararo monandlik bo'lmasligi ham mumkin. Masalan, ayrim talabalar talabalik burchi va ichki tartib intizom bilan juda yaxshi tanish bo'lsalar-da, har doim ham unga rioya qilavermaydi. "Tasodifan dars qoldirish", "jamoatchilik joylarida tartibni buzish" kabi holatlarda kognitiv va xulq-atvor komponentlarida uyg'unlik yo'qligini ko'rsatadi. Bu bir qarashda so'z va ish birligi prinsipining turli shaxslarda turlicha namoyon bo'lishini eslatadi. Agar odam bir necha marta bila turib, ijtimoiy xulqqa zid harakat qilsa va bu narsa bir necha marta qaytarilsa, u bu holatga o'rganib qoladi va bu ustanovkaga aylanib qolishi mumkin. Shuning uchun ham biz ijtimoiy me'yorlar va sanksiyalar vositasida bunday qarama-qarshilik va tafovut bo'lmasligiga yoshlarni o'rgatishimiz lozim. Bu shaxsning ijobiy tajribasi uchun real asosdir.

Ushbu fenomenga qiziqish bildirgan, uning psixologik mohiyatini ochgan olimlar keyinchalik uning ijtimoiy xulqni muvofiqlashtiriga qaratilgan "dispozitsiyalar" nuqtai nazaridan o'rganganlar. Masalan, rus olimi *V.A. Yadov* insondagi turli ehtiyojlar va turli ijtimoiy vaziyatlarda namoyon bo'lishi muqarrar bo'lgan xulqqa oid bir necha jabhani o'z ichiga olgan *dispozitsion nazariyani* ilgari surgan. Uning fikricha, shaxsning ijtimoiy ehtiyojlari va uni o'rab turgan ijtimoiy borliqdagi faoliyati o'zaro bog'liq bo'lib, ular quyidagi jabhalarda namoyon bo'ladi.

Birinchi jabha – bevosita oilaviy sharoit bo'lib, unda insonning asosiy oddiy ehtiyojlari ilk yoshlikdan qondiriladi.

Ikkinchi jabha – bevosita muloqot amalga oshiriladigan kontakt, kichik guruhlar bo'lib, individ bu muhitda o'zini namoyon etadi.

Uchinchi jabha individ hayot-faoliyatini amalga oshiradigan kengroq ijtimoiy borliq bo'lib, unda u mehnat qiladi, dam oladi, maishiy muammolarini hal qiladi.

To‘rtinchi jabha shaxsni bevosita o‘rab turgan milliy-madaniy borliq, undagi mafkuraviy i madaniy qadriyatlarning o‘zlashtirilishi tufayli namoyon bo‘ladigan xatti-harakat aktlarini qamrab oladi. Bu konkret geografik hudud, Vatan, yurti va undagi qadriyatlardir.

Demak, yuqorida ajratilgan har bir jabhada inson o‘ziga yarasha alohida ehtiyojlarini qondiradi va u mos ravishda muayyan ish-harakatlarga tayyor bo‘ladi.

Yadov yuqoridagi jabhalarga mos keladigan konkret vaziyatlarni va ularning individga ta‘sir ko‘rsatish darajalarini ham ajratadi. Masalan, **birinchi**, eng quyi bosqichdagi vaziyatlarda oddiy predmetli muloqot va tez o‘zgaruvchan ehtiyojlarga aloqador holatlar namoyon bo‘ladi. **Ikkinchisida** ko‘proq guruh doirasidagi muloqot va undan orttirilgan tajriba nazarda tutiladi. **Uchinchisida** – nisbatan turg‘un bo‘lgan, xadeb o‘zgarvermaydigan ish faoliyat turlari, maishiy ehtiyojlar, professional sohalarda ko‘zga tashlanadigan ijtimoiy xulq nazarda tutilgan. Nihoyat, **to‘rtinchi** vaziyatlar bosqichi muayyan ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy vaziyatlarda ko‘pchilikda shakllanadigan qadriyatlarning namoyon bo‘lishini taqozo etadi. Muallif yuqoridagi jabhalar, vaziyatlar va ularning shaxs individual va ijtimoiy tajribasida namoyon bo‘lishini tushuntirish uchun ularga mos dispozitsiyalarni farqlaydi:

1. Dispozitsiyalarning birinchi darajasi shaxsdagi elementar, oddiy ustanovkalarni tushuntirib beradi. Bu *D.Uznadze* sxemasiga mos keladigan predmetli vaziyatlarda namoyon bo‘ladigan *oddiy qayd etiladigan ustanovkalar*dir;

2. Dispozitsiyalarning ikkinchi darajasi murakkabroq bo‘lib, ular insonning bevosita kichik guruhlarda ro‘y beradigan muloqoti, muomalasidan paydo bo‘lgan ijtimoiy tajribasini tushuntiradi. Bu o‘sha amerikaliklar ta‘kidlagan *attityuddir*;

3. Dispozitsiyalarning uchinchi darajasi shaxs umumiy dunyoqarashi, qiziqishlari asosida hosil bo‘ladigan ijtimoiy faolligini o‘z ichiga oladi va uning professional yo‘nalishi, ish faoliyati, dam olishi, bo‘sh vaqtini qanday o‘tkazishlarida ko‘rinadigan *asosli ustanovkalar*ida namoyon bo‘ldai;

4. Dispozitsiyalarning to‘rtinchi yuqori darajasi shaxsdagi mavjud qadriyatlar tizimi, turmush tarzi, yurti va Vatani taqdiriga, yurtdoshlaridagi qadriyatlar to‘g‘risidagi tasavvurlarga yaqin bo‘lgan bilim, malaka va ko‘nikmalari bo‘lib, unda davrga, zamon va makonga aloqador tushunchalar aks etadi va *ijtimoiy tajribaga* asos bo‘ladi.

Shunday qilib, taklif etilgan dispozitsiyalar nazariyasi shaxsning turli vaziyatlardagi munosabatlar tizimining muvofiqlashtirish va uning sabablarini tushuntirishga imkon beradi. Ijtimoiy psixologiyada shu kabi turli darajadagi ijtimoiy ustanovkalarni o‘zgartirish muammosi muhim bo‘lib, bu masala maxsus tadqiqotlar va tarbiya vositalarining ishlab chiqilishini taqozo etadi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Ijtimoiylashuv tushunchasi, jarayoni va ularning mazmuni qanday yondashuvlarda o'z ifodasini topgan?
2. Oilaviy, iqtisodiy va siyosiy ijtimoiylashuv tushunchalari o'zaro bir-biridan farqi qanday ajratiladi?
3. Ijtimoiylashuv vositalari, agentlari, mexanizmlari va bosqichlari asosini nimalar tashkil qiladi?
4. Ijtimoiy ustanovkalar nima va ularning shaxs dispozitsiyalari bilan bog'liqligi qanday?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Umumiy psixologiya: O'quvqo'llanma / N.Sh.Umarova, D.N.Arzikulov; Mas'ul muharrir O.E. Hayitov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T., 2018.
2. Karimova V.M., Xolyigitova N.X. Psixologiya: O'quv qo'llanma. – T., 2014.
3. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya: Darslik. – T., 2012.
4. Hayitov O.E., Umarova N.Sh. Yoshlarda professional o'sishga intilishni rivojlantirishning nazariy-amaliy asoslari (shajaralar negizi misolida): Monografiya. – T., 2011.
5. Nemov R.S., Altunina I.R. Sotsialnaya psixologiya. Ucheb. posob. – SPb., 2010.
6. G'oziev E.G., Melibaeva R.N. Ijtimoiy psixologiya: O'quv-uslubiy qo'llanma. – T., 2009.
7. Egamberdieva N.M. Ijtimoiy pedagogika: Darslik. – T., 2009
8. Hayitov O.E. Iqtisodiy psixologiya: O'quv qo'llanma. – T., 2009.
9. Samarov R.S. Siyosiy psixologiya: O'quv qo'llanma. – T., 2008.
10. Mayers D. Sotsialnaya psixologiya. Intensivnyy kurs. – SPb., 2007.
11. Andreeva G.M. Sotsialnaya psixologiya. Uchebник. – M., 2003.
12. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot: O'quv qo'llanma. – T., 1999.

Elektron ta'lim resurslari

13. <http://ziyonet.uz>
14. <http://conferences.neasmo.org.ua/ru/art/2549>
15. <https://referat.uz/kurovaya-rabota/19140-19140.html>
16. https://drive.google.com/file/d/0Bxwxnt_0wPHqd25fTnp5WkpZT2c/view
17. <http://imombuhoriy.uz/uz/news/abu-ali-ibn-sino-inson-rukhiyati-khakida>

AMALIY MASHG'ULOT
MATERIALLARI

**1-AMALIY MASHG‘ULOT MAVZUSI.
ShAXS HAQIDA TUSHUNCHA.
ODAM-INSON-INDIVIDUALLIK TUSHUNCHALARI**

**1-topshiriq. “ShAXSDAGI ASOSIY EHTIYOJLARDAN QONIQQANLIK
DARAJASINI O‘RGANISH” METODIKASI (A.Maslou)**

Yo‘riqnoma, quyida 15 ta jumalarni bir-biriga qiyoslab, juft-juft qilib baholang. M.: avval 1-ni 2-bilan, 3-bilan va hokazo, keyin 2-ni 3-, 4- va shu tarzda oxiragacha. Katakchalarga bahoni yozishda qaysi o‘rindagi ma’qul bo‘lsa, o‘sha sonni katakka yozing. M.: agar 1-bi-lan 2-ni taqqoslaganda , 2-ma’qul bo‘lsa, demak, “1” sonining tagidagi katakchaga «2» sonini yozasiz. Tanlash paytida ichingizda “**Men xohlagan bo‘lardim**” deb turib baholang.

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15

1. Obru-e'tiborga sazovor bo'lishni.
2. Odamlar bilan iliq, samimiy munosabatlarda bo'lishni.
3. O'zinning kelajagimni ta'minlash.
4. Hayot uchun yetarli mablag'ga ega bo'lish.
5. Yaxshi suhbatdoshlarga ega bo'lish.
6. O'z mavqeimni mustahkamlash.
7. O'z kuch va qobiliyatlarimni kuchaytirish, rivojlantirish.
8. Moddiy jihatdan bekamu-ko'st bo'lishni ta'minlash.
9. Mahorat va kompetensiyani oshirish.
10. Noxush hodisalardan yiroq bo'lish.
11. Yangilik va kashfiyotlarga intilish.
12. O'zgalarga ta'sir ko'rsatuvchi nufuzga ega bo'lish.
13. Yaxshi narsalarni xarid qilish.
14. Butun kuch-mahoratni talab qiluvchi ish bilan shug'ullanish.

15. Birovlarning meni doimo tushunishlariga erishish.

Kalit:

a) Ishni tugatgach, har bir tanlovingizga to'g'ri kelgan ballar miqdorini hisoblab chiqing.

5 ta eng ko'p ball olgan jumlani tanlab olib, ularni ierarxik tarzda joylashtiring. Ular sizdagi assosiy ehtiyojlar bo'ladi.

b) Shu 5 ta ehtiyojning qondirilish darajasi aniqlash uchun har birining balini quyidagi 5 ta seksiyadagi savollar bo'yicha hisoblang:

1.	Moddiy ehtiyojlar	4,	8,	13.
2.	Xavfsizlik ehtiyojlari	3,	6,	10.
3.	Ijtimoiy (shaxslararo) ehtiyojlar	2,	5,	15.
4.	Tan olinish ehtiyoji	1,	9,	12.
5.	O'zini ko'rsatish, ro'yobga chiqarish ehtiyoji	7,	11,	14.

Natija:

Har bir seksiyada to'plangan ballarni aniqlab, ularni pastdagi grafikning vertikal o'qiga joylashtiring. har bir balning nuqtasi bo'yicha umumiy natijalar grafigini chiqaring, ularning o'sha 5 ta ehtiyojlar qondirilishining zonalariga nisbati bo'yicha xulosa chiqaring.

2-topshiriq. "MULOQOTDA O'ZINI-O'ZI NAZORAT QILISHNI BAHOLASH" METODIKASI (M.Snayder)

Yo'riqnoma: Turli xil vaziyatlarga bo'lgan munosabatlarni ba-holaydigan quyidagi o'nta iboralarni diqqat bilan o'qib chiqing. Ularning har birini o'z xarakteringizga mos kelgan holda to'g'ri yoki noto'g'ri deb baholaysiz. Agar sizga mos kelsa tartib raqami oldiga "T", ma'qul kelmasa "N" harflarini qo'yib boring.

1. Men uchun birovlarining odatlarga taqlid qilish, juda ham murakkab ko'rinadi.
2. Atrofdagilarning e'tiborini jalb qilish yoki ko'nglini olish uchun men ko'p harakat qilaman.
3. Mendan yaxshi aktyor chiqishi mumkin.
4. Boshqa kishilarga men xuddi biror nimadan jiddiyroq xavotirlanayotgandek ko'rinaman, aslida unday bo'lmasa ham.
5. Davralarda kishilarning diqqat-markazida kamroq bo'lishga intilaman.
6. Turli kishilar va turli vaziyatlarga men o'zimning turlicha munosabatimni bildiraman.
7. O'zim ishongan narsagagina qat'iylik bildiraman.
8. Faoliyatda va munosabatlarda muvaffaqiyatlarga erishish uchun meni qanday bo'lishimni istasalar, shunday bo'lishga harakat qilaman.
9. O'zim yoqtirmagan kishilar bilan ham do'stona munosabatda bo'la olaman.
10. Men hamisha o'zgaruvchan xarakterli kishiman.

Snayder fikriga ko'ra, yuqori kommunikativ nazoratga ega shaxslar, doimo tartib-intizomli, har qanday vaziyatlarda o'zini boshqara oladigan, o'z hissiyotlarini jilovlay oladiganlardir. Shu bilan birga, namoyishkorona xususiyatlarni, bashorat qilib bo'lmaydigan vaziyatlarni xush ko'rmaydilar. Kam kommunikativ nazorat bilan farqlanadigan shaxslar esa ochiq tabiatli, ulardagi "MEN" barqaror bo'lgan, hamda turli vaziyatlarning o'zgaruvchanlik holatlariga befarq bo'lgan shaxslardir.

Natijalar:

1-, 5-, 7-savollarga "N", qolgan barchasiga "T" deb javob berilgan bo'lsa, bir ball dan qo'yib boriladi. Yig'ilgan ballarni hisoblang. Har bir savolga sitqidildan javob bergan bo'lsangiz demak,

0–3 ball, sizdagi quyi kommunikativ nazoratni bildiradi. Sizning xulq-atvoringizda barqarorlik mavjud. Kishilar bilan bo'lgan muloqotda dildan suhbatlashasiz, o'zingizni erkin his etasiz. Ba'zida sizdagi to'g'riso'zlik kishilarda hadikni ham keltirib chiqarishi mumkin.

4–6 ball, o'rtacha kommunikativ nazorat deb baholanadi. Siz sa-mimiylik bilansuhbatlasha olasiz. O'z his-tuyg'ularingizni qat'iy nazorat qilmaysiz O'zga kishilarning xulq-atvorlari bilan hisoblashasiz.

7–10 ball, demak sizda yuqori kommunikativ nazorat mavjudligini bildiradi. Munosabatlarni hech qiynalmay o'rnatishga oladigan, suhbatdoshni yaxshi tushunadigan, har qanday vaziyatdan erkin chiqishga oladigan kishisiz.

3-topshiriq. EPQ SO'ROVNOMASI

Yo'riqnoma: Taqdim qilinayotgan savollar Sizning kundalik xulq-atvoringizni baholashga asoslanadi. Savollarga birinchi paydo bo'lgan fikrga tayanib javob bering. Bu eng maqbul javob hisoblanadi. Agar Sizga mos kelgan javobni belgilash zarur bo'lsa, "ha" javob uchun (+), "yo'q" uchun (–) belgisini javoblar varaqasiga belgilang. Tez va aniq javob bering. So'rovnomada "to'g'ri" va "noto'g'ri" javoblari mavjud emas.

1. Sizning qiziqish doirangiz kengmi?
2. Siz biror ishni bajarishga kirishishdan oldin uning oqibatlarini atroflicha o'ylaysizmi?
3. Kayfiyatingiz vaziyatga qarab tez-tez o'zgarib turadimi?
4. Boshqa kishi bajargan ishni meniki deb, rag'batlantirishga da'vogarlik qilganmisiz?
5. Siz gapga chechanmisiz?
6. Qarzdor bo'lganingizda Sizni bezovta qilishganmi?
7. Siz asosli sababsiz o'zingizni baxtsiz odamman deb his qilganmisiz?
8. Sizda o'ylaganingizdan ko'proq narsa olish uchun qizg'anish bo'lganmi?
9. Siz tunda eshikni sekingina qulflaysizmi?
10. Siz o'zingizni quvnoq odam deb hisoblaysizmi?
11. Bolalar yoki hayvonlarni azoblanganini ko'rganingizda asabiylashganmisiz?

12. Siz tez-tez nega bu ishni qildim yoki bu gapni gapirdim deb afsuslanasizmi?
13. Sizga noqulay bo'lsa ham doimo va'dangizga turasizmi?
14. Siz parashyutdan sakrashdan qoniqish olganmisiz ?
15. Siz hislaringizga erk berib, quvnoq davralarda xotirjam hordiq chiqarasizmi?
16. Siz ta'sirchanmisiz?
17. Siz aybingiz bo'la turib, shu ish bo'yicha boshqa kishini ayblanganmisiz?
18. Sizda yangi tanishlar orttirish yoqadimi ?
19. Siz sug'urtadan foydalanishga ishonasizmi?
20. Sizni xafa qilish osonmi?
21. Sizni barcha odatlaringiz yaxshi va ma'qulmi?
22. Siz odamlardan panada bo'lishga harakat qilasizmi?
23. Siz g'ayri-tabiiy yoki xatarli holatga olib kelishi mumkin bo'lgan vositalar (alkogol, narkotiklar) qabul qilganmisiz?
24. Sizda ko'pincha hamma narsa jonga tekkandik tuyuladimi?
25. Siz o'zga kishiga tegishli narsani, hatto, u kichkina to'g'nag'ich yoki nina bo'lsa ham o'zingizga olganmisiz?
26. Sizda tez-tez mehmondorchilikda va jamoa ichida bo'lish yoqadimi?
27. Siz yoqtirgan kishingizni xafa qilishdan huzur olasizmi?
28. Sizni tez-tez aybdorlik hissi bezovta qiladimi?
29. Sizda o'zingiz yomon bilgan narsa haqida gapirishga to'g'ri kelganmi?
30. Siz odamlar bilan uchrashishdan ko'ra kitob o'qishni afzal hisoblaysizmi?
31. Sizning dushmanlaringiz borligi aniqmi?
32. Siz o'zingizni asabiy odam deb hisoblaysizmi?
33. Siz doimo boshqalarga qo'pollik qilsangiz uzr so'raysizmi?
34. Sizni do'stlaringiz ko'pmi?
35. Siz ba'zan odamlarga azob bersa ham yutuqli o'yin va hazil-mutoyiba uyushtirishni yoqtirasizmi?
36. Siz bezovtali odammisiz?
37. Siz bolalikda berilgan topshiriqlarni doimo shoshmasdan va sekin bajarganmisiz?
38. Siz o'zingizni betashvish odam deb hisoblaysizmi?
39. Sizning ozodaligingizni belgilovchi jihatlaringiz ko'pmi?
40. Sizni sodir bo'lmagan, ammo sodir bo'lishi mumkin bo'lgan noxush hodisalar bezovtalantiradimi?
41. Sizda o'zga kishining buyumini yo'qotib qo'yish yoki buzib qo'yish hollari bo'lganmi?
42. Siz odatda tanishuvda birinchi bo'lib tashabbus bilan chiqasizmi?
43. Agar biror kishi o'zining tashvishlari bilan o'rtoqlashsa uning holatini oson tushunasizmi?
44. Sizda tez-tez hatdan ortiq asabiylashish bo'ladimi?
45. Agar axlat tashlash qutisi bo'lmasa, keraksiz qog'ozni polga tashlaysizmi?
46. Siz o'zga kishilar davrasida bo'lsangiz ko'proq tinglab o'tirasizmi?
47. Siz nuqsonli buyumni eski andazadagi narsa sifatida uni bekor qilish kerak deb hisoblaysizmi?
48. Siz ba'zan o'zingizga norozilik bilan qaraysizmi?

49. Siz ba'zan ko'p maqtanasizmi?
50. Sizda zerikarli davrani jonlantirish qiyin emasmi?
51. Ehtiyotkor haydovchilardan asabiylashasizmi?
52. Siz sog'lig'ingizdan bezovtalanasizmi?
53. Siz o'zga odam haqida yomonlab gapirganmisiz?
54. Siz do'stlaringizga hazil-mutoyiba aytishni va hazillashishni yoqtirasizmi?
55. Siz uchun ko'pchilik taomlarning mazasi bir xil tuyuladimi?
56. Sizda ba'zan yomon kayfiyat hukm so'radimi?
57. Siz bolaligingizda ota-onangizni ranjitganmisiz?
58. Sizga odamlar bilan suhbatlashish yoqadimi?
59. Siz ishingizda xatoga yo'l qo'yganingizni sezsangiz azoblanasizmi?
60. Siz uyqusizlikdan bezovtalanasizmi?
61. Siz doimo ovqatlanishdan oldin qo'lingizni yuvasizmi?
62. "Qalovini topsang qor yog'ar" naqliga amal qiladigan insonmisiz?
63. Siz uchrashuvga belgilangan vaqtdan oldin kelib turish kerak deb hisoblaysizmi?
64. Siz hech qanday sababsiz o'zingizni majolsiz, charchagandek his etasizmi?
65. Siz qulay sharoit tug'lsa, paytni boy bermasdan yangi kishi bilan suhbatlashishni yoqtirasizmi?
66. Siz qachondir o'yinda ayyorlik qilganmisiz?
67. Sizning onangiz yaxshi insonmilar (yaxshi inson edilarmi)?
68. Sizda tez-tez hayot juda ham zerikarlidек tuyuladimi?
69. Siz qachonlardir boshqa kishidan o'z maqsadlaringiz uchun foydalanganmisiz?
70. Siz biron bir safarga hozirlanganingizda o'zingiz bilan vaqt talab etadigandan ham ko'proq narsani olasizmi?
71. Odamlar Sizdan qochishga harakat qilgan vaqt bo'lganmi?
72. Sizning tashqi qiyofangiz juda ko'p mashg'ul bo'lishni talab etadimi?
73. Siz yoqimsiz kishilar bilan ham xushmuomalalik bilan so'zlashasizmi?
74. Siz odamlarni o'z kelajagi, ehtiyot sharti, o'zini va hayotini himoyalash uchun ko'p vaqt sarflaydilar deb hisoblaysizmi?
75. Sizda qachonlardir o'lish xohishi paydo bo'lganmi?
76. Sizni bu borada ta'sir o'tkaza olmasliklariga ishonsangiz ham qo'shimcha daromad solig'ini to'lashdan qochganmisiz?
77. Siz davralarga jonlantirish kirita olasizmi?
78. Siz odamlarga qo'pollashmaslikka intilasizmi?
79. Siz xijolatga tushganingizda uni uzoq vaqt boshdan kechirasizmi?
80. Siz qachondir boshqalarni xohlaganingizdek ishni bajarishlariga majburlaganmisiz?
81. Siz tez-tez vokzalga poezd jo'nashiga oz vaqt qolgan daqiqalarda yetib kelasizmi?
82. Siz qachondir atayin odamlarga yoqimsiz yoki xafa qiladigan so'z gapirganmisiz?
83. Sizni asabingiz bezovta qilganmi?
84. Sizda o'rtoqlari ustidan hazil qiladiganlar davrasida bo'lish noqulaymi?

85. Siz o‘z aybingiz bilan do‘stlaringizdan osongina ayrilib qolasizmi?
86. Siz tez-tez o‘zingizni yolg‘izdek his etasizmi?
87. Sizning doimo gapingiz va ishingiz bir joydan chiqadimi?
88. Sizda ba‘zan hayvonlarning joniga tegish yoqadimi?
89. Sizni shaxsingiz va ishingizga tegishli bo‘lgan tanbehlardan tez xafa bo‘lasizmi?
90. Hayot sizga hech qanday xavf-xatarsiz, ortiqcha zerikarlilik tuyuladimi?
91. Siz ishga yoki uchrashuvga kech qolganmisiz?
92. Sizga jonli va zavq-shavqqa to‘lgan muhit yoqadimi?
93. Odamlarning Sizdan qo‘rqishlarini xohlaysizmi?
94. Siz ba‘zan g‘ayrat-shijoatli, ba‘zan esa hafsalasiz bo‘lib qolasizmi?
95. Siz ba‘zan bugun bajarilishi kerak bo‘lgan ishni ertaga qoldirganmisiz?
96. Sizni jonli va quvnoq odam deb hisoblash mumkinmi?
97. 97.Sizga tez-tez nohaq gapiradilarmi?
98. Siz bir qator hodisalar, voqealar va narsalarga nisbatan juda sezgirmisiz?
99. Siz doimo o‘z xatoyingizni tan olishga tayyormisiz?
100. Sizni qachonlardir hayvonni tuzoqqa tushib qolishi afsuslantirganmi?
101. Sizda savollarga javob berish qiyinchilik tug‘dirmadimi?

Natijalarni qayta ishlash:

Test kalitlariga mos kelgan har bir javobga 1 balldan beriladi. Mos kelmagan javobga esa 0 ball beriladi va har bir shkala bo‘yicha natijalar umumlashtiriladi. Natijalar so‘ngra belgilangan norma asosida tahlil etiladi.

1. Ekstraversii-introversiya shkalasi:

“yo‘q” (-): 22, 30, 46, 84;

“ha” (+): 1, 5, 10, 15, 18, 26, 34, 38,42, 50, 54, 58, 62, 65, 70, 74, 77, 81, 90, 92, 96.

2. Neyrotizm shkalasi:

“ha” javoblar (+): 3, 7, 12, 16, 20, 24, 28, 32, 36, 40, 44, 48, 52, 56, 60, 64, 68, 72, 75, 79, 83, 86, 89, 94, 98.

3. Psixotizm:

“yo‘q” (-): 2, 6, 9, 11, 19, 39, 43, 59, 63, 67, 78, 100;

“ha” (+): 14, 23, 27, 31, 35,47, 51,55, 71, 85, 88, 93,97.

4. Ochiqlik shkalasi:

“yo‘q” (-): 4, 8, 17, 25, 29, 41, 45, 49, 53, 57, 66, 69, 76, 80, 82, 91, 95;

“ha” (+): 13, 21, 33, 37, 61, 73, 87, 99.

1. Ekstra-introversiya shkalasi bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich: 7–15 ball.
2. Neyrotizm shkalasi bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich : 8–16.
3. Psixotizm shkalasi bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich: 5–12. Agar tekshiriluvchi psixotizm shkalasi bo‘yicha 10 balldan yuqori ball to‘plasa, uni “inson-inson”tipidagi kasblar bilan shug‘ullanishga tavsiya etilmaydi.
4. Samimiylik shkalasi: agar Agar tekshiriluvchi ushbu shkala bo‘yicha 10 balldan yuqori ball to‘plasa, uning natijalari ishonchsiz hisoblanadi.

EPQ metodikasi bo'yicha shaxs tiplari matritsasi

	Introversiya (< 7 ball)	O'rtacha (7-15 ball)	Ekstraversiya (> 15 ball)
Neyrotizm (> 16 b.)	M	MX	X
O'rtacha qiymat (8-16 b.)	FM	N	XS
Barqarorlik (< 8 b.)	F	SF	S

Har bir shaxs tipi quyidagi tashqi ko'rinishlar mos keladi:

1. Xolerik (X) – agressiv, qiziqqon, o'z qarashlarini o'zgartiruvchi.
2. Xolerik-sangvinik (XS) tipi – optimist, faol, ekstravert, muloqotmand, ochiq.
3. Sangvinik (S) – gapgachechan, tez ilg'ovchi, o'zini erkin tutuvchi, jonli.
4. Sangvinik-flegmatik (SF) tip – beg'am, lidirlik qiluvchi, barqaror, vazmin, bosiq.
5. Flegmatik (F) – ishonchli, o'zini boshqara oladigan, tinchliksevar, mulohazali.
6. Flegmatik-melanxolik (FM) tipi – tirishqoq, sustkash, introvert, sokin, odamovi.
7. Melanxolik (M) – tortinchoq, pessimist, hushyor, rigid.
8. Melanxolik-xolerik (MX) tipi – vijdonlik, injiq, asabiy, xafakash, bezovtali
9. Normal tip (N).

So'rovnoma 90 savoldan iborat: neyrotizm – 23, ekstra-introversiya – 21, psixotizm – 25, "samimiylik" – 21. So'rovnomaning 11 savol chet savollar hisoblanadi va ularga berilgan javoblar inobatga olinmaydi.

2-AMALIY MASHG‘ULOT MAVZUSI.
SHAXS IJTIMOIIY TA‘SIRLAR MAHSULI SIFATIDA: IJTIMOIIY
NORMALAR, SANKSIYALAR, ROLLAR

1-topshiriq: PSIXOLOGIK TAVSIFNOMA TUZISH

Ushbu masalani bajarish orqali psixologik tavsifnoma tayyorlash ko‘nikmalariga ega bo‘lasiz. Ijtimoiy-psixologik o‘rganish uchun biror shaxsni tanlang. O‘rganishda ushbu shaxs bilan ishlashni osonlashtirish uchun o‘zingizga yaqindan tanish bo‘lgan kursdosh yoki guruhdoshingizni tanlashingiz mumkin. Tanlangan shaxsni ijtimoiy psixologiyaning kuzatuv, hujjatlarni tahlil qilish, so‘rov va boshqa metodlarni qo‘llagan holda o‘rganing va quyida keltirilgan psixologik tavsifnomaning taxminiy tuzilishidan foydalanib psixologik tavsifnoma tayyorlang.

NAMUNA

Psixologik tavsifnoma

1. Familiya, ismi, otasining ismi _____
2. Tug‘ilgan yili, oyi va kuni _____
3. Jismoniy rivojlanganligi va sog‘lig‘i _____
4. Oilasi to‘g‘risida ma‘lumotlar

Ota-onasi to‘g‘risida ma‘lumot:

Familiyasi, ismi, otasining ismi	Tug‘ilgan yili	Ma‘lumoti	Ish joyi

Boshqa oila a‘zolari to‘g‘risida ma‘lumot:

Boshqa oila a‘zosi	Qarindoshlik darajasi	Tug‘ilgan yili

5. Oilaviy sharoiti (ijtimoiy-demografik, uy-joy, maishiy, ijtimoiy-psixologik, kriminogen) _____

6. Oiladagi o‘zaro munosabatlar, tarbiya xarakteri _____

7. Temperament tipi _____
8. Xarakterining o'ziga xos xususiyatlari:
emotsional xususiyatlari _____
intellektual xususiyatlari _____
irodaviy xususiyatlari _____
9. Xulq-atvorining ijobiy xislatlari _____
10. Xulq-atvorining salbiy xislatlari _____
11. Xotirasining o'ziga xos xususiyatlari _____
Diqqati _____
Tafakkuri _____
Xayoli _____
12. Fanlarni o'zlashtirish darajasi, intellektual salohiyati _____

-
- Yoqtirgan fanlari: _____
Yoqtirmagan fanlari: _____
13. Mehnatga munosabati:
o'qishga _____
ishga _____
ijtimoiy foydali mehnatga _____
o'z-o'ziga xizmat qilishga _____
14. Matnni o'qish xarakteri _____
15. Guruh va jamoadagi o'zaro munosabati, jamoadagi o'rni _____

16. Ota-onasi, qarindoshlari va tengdoshlariga nisbatan munosabati _____

17. O'z-o'ziga _____ munosabati

18. Jamoat ishlaridagi ishtiroki _____

19. Bo'sh vaqtlarida shug'ullanadigan ishlari _____

20. O'qishdan tashqari muhitdagi muloqoti _____

21. Manfaatlari va moyilliklari _____

22. Qobiliyatlari _____

3-AMALIY MASHG‘ULOT MAVZUSI.
CHET EL PSIXOLOGIYA SIDA SHAXS NAZARIYALARI: ENDOPSIXIKA
VA EKZOPSIXIKA, NATIVIZM VA EMPIRIZM, BIOGENETIK VA
SOTSIOGENETIK NAZARIYALAR

1-topshiriq: PSIXIK RIVOJLANISH HAQIDAGI NAZARIYA VA
TA'LIMOTLAR

1-vazifa: Psixik taraqqiyotning turli jihatlari bilan bog‘liq bo‘lgan qo‘yidagi tushunchalar qaysi olimlarning ilmiy qarashlarida markaziy o‘rin tutishini ko‘rsating. Bunda tegishli tushuncha keltirilgan jadval satrlari va muayyan olim ismi sharifi ko‘rsatilgan ustun o‘zaro kesishgan joyga biror belgi qo‘yish talab qilinadi.

№	Ilmiy tushunchalar	Olimlar						
		A.Adler	D.B.Elkonin	J.Piaje	Z.Freyd	L.Kolberg	E.Erikson	L.S.Vigotskiy
1	Egotsentrizm							
2	Edip kompleksi							
3	Taraqqiyotning eng yaqin zonasi							
4	Yetakchi faoliyat							
5	Dekalyaj							
6	Kemtiklik kompleksi							
7	Psixologik himoya							
8	Yosh inqirozi							
9	Ijtimoiy-psixologik identifikatsiya							
10	Ahloqiy dilemma							

2-vazifa: Z.Freyd tomonidan psixik rivojlanishni davrlashtirish bo‘yicha ilgari surilgan g‘oyaga ko‘ra turli yosh bosqichlari bir-birini qanday ketma ketlikda almashtirishini belgilab chiqing. Bunda har qaysi yosh bosqichi umumiy tizimda nechanchi o‘rinni egallasa, qo‘yida keltirilgan jadvalda bu bosqichga mos tartib raqamidan boshqa raqamlarni o‘chirish talab qilinadi.

Psixik taraqqiyot bosqichlarining nomi va umumiy tasnifdagi tartib raqami

Genital	Fallik bosqich	Oral bosqich	Latent bosqich	Anal bosqich
---------	----------------	--------------	----------------	--------------

bosqich																								
1	2	3	4	5	1	2	3	4	5	1	2	3	4	5	1	2	3	4	5	1	2	3	4	5

3-vazifa: E.Eriksonning inson psixik rivojlanishi davlari haqidagi nazariyasiga muvofiq har bir davrda qaysi psixik holat va xususiyatlar o‘zaro ziddiyatga kirishib psixologik inqirozni vujudga keltirishini ko‘rsating. Bunda qo‘yidagi jadvalda aralash holda keltirilgan va o‘zaro zid juftlikni hosil qiluvchi psixik holat hamda xususiyatlarning umumiy ro‘yxatdagi tartib raqamlarini jadval ostidagi ikki satr (javoblar maydoni) ning yuqori va past darchalariga juft-juft qilib kiritish talab qilinadi.

№	Psixik holat va xususiyatlar	№	Psixik holat va xususiyatlar
1	Atrof olamga ishonch	9	O‘ziga berilishlik
2	Tashabbuskorlik	10	Rollarning chalkashishi
3	Hayotiy faollik	11	Uyalish va ikkilanish
4	Yaqin munosabatlarga intilish	12	Aybdorlik hissi
5	Ego-integratsiya	13	Atrof olamga ishonchsizlik
6	Mustaqillik hissi	14	Kemtiklik hissi
7	Ego-identifikatsiya	15	Yolg‘izlanishga harakat qilish
8	Mehnatsevarlik	16	Afsuslanish

JAVOBLAR MAYDONI					

4-vazifa: J.Piaje ajratgan intellekt taraqqiyoti bosqichlarining har biriga xos xususiyatlarni belgilang. Bunda quyida sanab o‘tilgan intellektual faoliyat xususiyatlarining tartib raqamini tegishli bosqich nomi keltirilgan satrdagi javoblar ustuniga yozish talab qilinadi.

№	INTELLEKTUAL FAOLIYAT XUSUSIYATLARI
1	Bolaning o‘zini muayyan harakat ishtirokchisi sifatida anglay boshlashi
2	Bolaning narsa-buyumlarni faqat bir belgisiga muvofiq tasniflay olishi
3	Bolaning mantiqiy fikrlashga va taxminlarni tizimli tekshirishga qodir bo‘lishi
4	Bolaning narsa-buyumlarni muayyan so‘z va obrazlar orqali ifodalay olishi
5	Bolaning maqsadli harakatni amalga oshirishga qodir bo‘lishi
6	Bolaning miqdor, hajm va vazn saqlanishi qonunlarini tushuna olishi
7	Bolaning nazariy, mafkuraviy muammolar bilan, kelajak bilan qiziq

	boshlashi
8	Bolaning narsa-buyumlarni biror belgisi bo'yicha tartiblashtirishga qodir bo'lishi

№	Intellektual taraqqiyot bosqichlari	Javoblar maydoni
I	Sensomotor intellekt bosqichi	
II	Operatsiyalargacha bo'lgan bosqich	
III	Konkret operatsiyalar bosqichi	
IV	Formal operatsiyalar bosqichi	

2-topshiriq: TEMPERAMENTNING SHAXSLARARO MUNOSABATLARGA TA'SIRI

Ushbu masala orqali siz temperamentlar to'g'risidagi bilimlaringizni sinab ko'rasiz hamda ma'lum bir temperament tipidagi shaxslar bilan to'qnash kelganda ular bilan munosabat qilish ko'nikmalariga ega bo'lasiz. Buning uchun quyida keltirilgan topshiriqlarni bosqichma-bosqich bajarishga harakat qiling. Masalaning amaliy ahamiyati shundaki, birinchi bosqichda temperament asoslarini psixofiziologik tomondan tushunishni boshlab, ikkinchi va uchinchi bosqichlarda har bir temperamentni namoyon bo'lishining o'ziga xos xususiyatlari va shaxslararo munosabatlarga ta'sirini o'rganasiz. Oxirgi bosqichda esa, uchta bosqichda amalga oshirilgan ishlar natijalaridan kelib chiqib, har bir temperamentli shaxsga nisbatan keltirilgan xulosa bilan tanishib, tahliliy qobiliyatingizni shakllantirasiz.

Dastlabki bosqichlardagi topshiriqlarning to'g'ri bajarilmasligi, oxirgi bosqichda har bir temperamentga nisbatan noto'g'ri xulosa qabul qilishga olib kelishi mumkin. Shu sababli, har bir bosqichdagi topshiriqni bajarib bo'lgach, uning natijalari bilan psixolog-o'qituvchingizni tanishtiring va zaruriy maslahatni oling!

1. Qadimgi yunon tibbiyot olimi Gippokrat ta'limotiga ko'ra, inson tanasiga u yoki bu suyuq moddaning ustun kelishi insonning temperamenti bilan uzviy bog'liqdir. U inson tanasidagi suyuqliklarni temperamentlar bilan quyidagicha bog'laydi:

“o't (safro)” – xolerik

“shilimshiq” – sangvinik

“qon” – flegmatik

“qora o't” – melanxolik.

Siz nima deb o'ylaysiz? Temperamentlarga oid bilimlaringizga tayangan

holda Gippokrat gipotezasini tushuntirib bering.

2. Quyida har bir temperamentli shaxsning ijtimoiy xulq-atvori uchun mos keladigan shiorlar keltirilgan.

Topshiriqni bajarish uchun xislatlari orasida muayyan bir temperamentga xos xislatlari ustun keluvchi odamlarni kuzating va kuzatuv natijalariga ko'ra har bir shior qaysi temperamentli shaxsga tegishli ekanligini toping.

- a) "ishongin, lekin tekshirib ko'rgin"
- b) "bir daqiqa ham tinch qo'yma"
- v) "shoshilma"
- g) "zarar yetkazma"

3. Ushbu topshiriq orqali xulq-atvorida muayyan bir temperamentga xos xislatlari ustun keladigan insonlarning shaxslararo munosabatlarga ijobiy va salbiy ta'sirini o'rganasiz.

Topshiriqni bajarish uchun ijtimoiy psixologiyaning kuzatuv va so'rov metodlaridan hamda muloqot psixologiyasi qonuniyatlaridan foydalangan holda turli tipdagi shaxslarni o'rganing, ularning ijobiy va salbiy jihatlarini aniqlang va namunada keltirilgan tartibda jadvallarni to'ldiring.

Namuna

T Ye M P Ye R A M Ye N T	
Sangvinik	
Ijobiy xislatlari	Salbiy xislatlari
xushchaqchaqlik, quvnoqlik, shodmonlik	manmanlik, gerdayganlik
qiziquvchanlik, ishqivozlik	yengiltaklik, mulohazasizlik
hozirjavob, sezgir	yuzakilik, mohiyatga tushunib yetmaslik
rahmdil, ko'ngilchan	ishonchsiz
muloqotchan, kirishimli	

To'ldirish uchun

T Ye M P Ye R A M Ye N T	
Xolerik	
Ijobiy xislatlari	Salbiy xislatlari

T Ye M P Ye R A M Ye N T	
Flegmatik	

<i>Ijobiy xislatlari</i>	<i>Salbiy xislatlari</i>

T Y e M P Y e R A M Y e N T	
Melanxolik	
<i>Ijobiy xislatlari</i>	<i>Salbiy xislatlari</i>

4. Ushbu bosqichgacha erishilgan natijalar asosida siz a'zo hisoblanuvchi ijtimoiy guruh yoki jamoada muayyan tipdagi temperamentli shaxslar qo'shilganda, ularning shaxslararo munosabatlarga ta'sirini prognoz qilish hamda salbiy psixologik xislatlariga nisbatan immunitet shakllantirish uchun xulosa qabul qilishni mazkur topshiriqni bajarish orqali o'rganasiz. Quyida keltirilgan to'rtta xulosa siz o'rgangan to'rtta temperamentli shaxslarning xulq-atvoriga tegishli.

Siz ularning har birini qaysi temperamentli shaxsga tegishli ekanligini aniqlashingiz hamda kelajakdagi faoliyatingizda e'tiborga olishingiz lozim.

1-xulosa: u doimo ma'lum bir ish bilan mashg'ul bo'lishi lozim;

2-xulosa: uni har doim nazorat qilib turish kerak;

3-xulosa: uni qistovga olishdan foyda yo'q, chunki, uning o'zi o'z ishini qiladi;

4-xulosa: unga bosim o'tkazmaslik, baqirmaslik va kuchli tanbeh bermaslik kerak, u – ajoyib do'st.

4-AMALIY MASHG‘ULOT MAVZUSI. MARKAZIY OSIYO MUTAFFAKIRLARI IJODIDA SHAXS KAMOLOTI

1-topshiriq: PSIXOLOGIK TALQIN

? Quyida keltirilgan sharq allomalarining fikrlarini o‘rganib chiqib, psixologik talqin qilishga harakat qiling. Psixologik talqin qilish davomida ilmiy meroslarning shaxs, uning ijtimoiy-psixologik qiyofasi, ijtimoiy ustanovka va ijtimoiy normalar to‘g‘risidagi jihatlariga e‘tibor bering.

Masalan:

Инсонни сўз айлади жудо хайвондин,
Билким, гуҳари шарифрок йўқ ондин

Alisher Navoiyning ushbu misralarini psixologik talqin qiladigan bo‘lsak, unda til va nutq masalasiga jiddiy e‘tibor berilganligini ko‘ramiz. Nutq insonni boshqa jonzotlardan ajratib turuvchi, individni shaxsga aylanishi, ijtimoiylashuv, “Men” obrazini anglash va muloqotda asosiy vosita masalasini bajaradigan, shaxs faoliyatining psixik bilish jarayonidir. Shuningdek, ushbu misralar ijtimoiy hamkorlikda psixologik ta‘sir ko‘rsatishning verbal usullarini mustahkamlash uchun ham xizmat qiladi.

Endi quyida keltirilgan ilmiy meroslarni mustaqil ravishda ijtimoiy-psixologik talqin qiling.

A)

Forobiy “**Fozil odamlar shahri**” nomli asarida liderni fozil shahar hokimi timsolida ko‘radi va fozil shahar hokimining shaxsida mavjud bo‘lishi lozim bo‘lgan quyidagi o‘n ikkita fazilat to‘g‘risida so‘z yuritgan:

1) avvalo to‘rt muchasi sog‘-salomat bo‘lib, o‘ziga yuklangan masalalarni bajarishida biror a‘zosidagi nuqson halal bermasligi lozim, aksincha, u sog‘-salomatligi tufayli bu fazilatlarni oson bajarishi lozim;

2) bunday shahar hokimi tabiatan nozik farosatli bo‘lib, suhbatdoshining so‘zlarini, fikrlarini tez tushunib, tez ilg‘ab olishi, shu sohada umumiy ahvol qandayligini ravshan tasavvur qila olishi zarur;

3) u anglagan, ko‘rgan, eshitgan, idrok etgan narsalarni xotirasida to‘la-to‘kis saqlab qolishi, barcha tafsilotlarini unutmasligi zarur;

4) u zehni o‘tkir, zukko bo‘lib, har qanday narsaning bilinar-bilinmas alomatlarini va u alomatlari nimani anglatishini tez bilib, sezib olishi zarur;

5) u fikrini ravshan tushuntira olish maqsadida, chiroyli so‘zlar bilan ifodalay olishi zarur;

6) u (ustozlardan) ta‘lim olishga, bilim ma‘rifatga havasli bo‘lishi, o‘qish, o‘rganish jarayonida sira charchamaydigan, buning mashaqqatidan qochmaydigan

bo‘lishi zarur;

7) taom yeyishda, ichimlikda, ayollarga yaqinlik qilishda ochofat bo‘lmasligi, aksincha, o‘zini tiya oladigan bo‘lishi, qimor yoki boshqa o‘yinlardan zavq, huzur olishdan uzoq bo‘lishi zarur;

8) u haq va haqiqatni, odil va haqguy odamlarni sevadigan, yolg‘onni va yolg‘onchilarni yomon ko‘radigan bo‘lishi zarur;

9) u o‘z qadrini biluvchi va nomus-oriyatli odam bo‘lishi, pastkashliklardan yuqori turuvchi, tug‘ma oliy himmat bo‘lishi, ulug‘, oliy ishlarga intilishi zarur;

10) bu dunyo mollariga, dinor va dirhamlarga qiziqmaydigan (mol-dunyo ketidan quvmaydigan) bo‘lishi zarur;

11) tabiatan adolatparvar bo‘lib, odil odamlarni sevadigan, istibdod va jabr-zulmni, mustabid va zolimlarni yomon ko‘ruvchi, o‘z odamlariga ham, begonalarga ham haqiqat qiluvchi, barchani adolatga chaqiruvchi, nohaq jabrlanganlarga madad beruvchi, barchaga yaxshilikni va o‘zi suygan go‘zalliklarni ravo ko‘ruvchi bo‘lishi zarur. O‘zi haq ish oldida o‘jarlik qilmay, odil ish tutgani holda har qanday haqsizlik va razolatlarga murosasiz bo‘lishi zarur;

12) o‘zi zarur deb hisoblagan chora-tadbirlarni amalga oshirishda qat’iyatli, sabotli, jur’atli, jasur bo‘lishi, qo‘rqoqlik va hadiksirashlarga yo‘l qo‘ymasligi zarur.

B)

*Podshoh xodimi agar bo‘lsa pok – halol,
Moliga qo‘shilgay, topmagay zavol.
Xodimlari bo‘lsa gar shum, nopok, xiyonatkor,
Saltanatida darz ketib, bo‘ladi abgor.*

Xoja Samandar Termiziyning
“**Dastur ul-muluk**” asaridan

V)

“Podshoh haftada ikki kun zulm ko‘rganlarni qabul qilib, zolimlarning dodini berib, jazolab va raiyat so‘zlarini bevosita eshitib borishi kerak. Agarda xudovand podshoh dodxohlarini oldiga chaqirib, haftada ikki marotaba ularning so‘zlarini eshitadi va zolimlarning jazosini beradi, degan xabar mamlakatga tarqalsa, unda sitam qiluvchilar oqibatini o‘ylab qo‘rqib bedodlik qilmaydilar”

Abu Ali Hasan ibn Ali Tusiy Nizomulmulkning
“**Siyosatnoma**” asaridan

5-AMALIY MASHG‘ULOT MAVZUSI. ShAXS IJTIMOIYLASHUVI VA IJTIMOIIY XULQ MOTIVATSIYALARI

1-topshiriq: “MEN” VA BOS HQALAR

Djons va Nisbetning fikriga ko‘ra, odamlar o‘z xulq-atvorlarini tashqi vaziyatga oid omillar, boshqalarning xulq-atvorlarini esa ichki shaxsiy xususiyatlaridan kelib chiqib baholashga moyildir. Ushbu masala keltirilgan gipotezaning haqiqatga yaqinligini tekshirishga yo‘naltirilgan.

O‘zingizga yaqin bo‘lgan ikki kishini respondent sifatida tanlang va ular bilan so‘rov o‘tkazing. Ulardan olgan javoblaringizni quyida keltiriladigan savolnoma jadvalida aks ettiring. Savollar respondent tomonidan ikki nafar boshqa shaxsning xislatlarini baholash hamda o‘z-o‘zini baholash bilan bog‘liq. Har bir xulq-atvor komponentlari quyidagicha baholanishi lozim: “ha” (mazkur xulq-atvor turi ushbu inson uchun bevosita mos tushadi), “yo‘q” (mazkur xulq-atvor turi umuman ushbu insonga to‘g‘ri kelmaydi), “vaziyatga qarab” (vaziyatdan kelib chiqib ba‘zida “ha”, ba‘zida “yo‘q”). Yozishni soddalashtirish uchun “H”, “Y”, “V” qisqartmalaridan foydalaning.

Birinchi bo‘lib, respondentdan o‘ziga yoqqan insonning shaxsiy xislatlarini baholashni so‘rang. Undan ushbu inson to‘g‘risida yaxshi o‘ylab ko‘rib, har bir xislatga “ha”, “yo‘q” yoki “vaziyatga qarab” javobini berishni iltimos qiling. Intervyuni soddalashtirish uchun jadvaldagi savolnoma bo‘yicha savollarni bering va qabul qilingan javoblarni e‘tirof etilgan qisqartmalar bilan jadvalga tushiring. Keyin, respondent bilan huddi shu tartibda, faqat o‘ziga yoqmagan inson to‘g‘risida savol-javob o‘tkazing hamda natijalarini jadvalga tushiring. Intervyu yakunida, respondentdan o‘zining xislatlarini baholashini so‘rang va natijalarini jadvalda bayon qiling.

Shundan so‘ng, shaxsiy xislatlar (H va Y) to‘g‘risidagi javoblar chastotasi bilan vaziyatga oid (V) javoblar chastotasi bilan taqqoslash uchun to‘plangan ma‘lumotlarni yangidan kodlab chiqing. Agar Djons va Nisbetning gipotezasi to‘g‘ri bo‘lsa, unda siz respondentlar o‘zi to‘g‘risida gapirganida boshqalarga (yoqqan va yoqmagan shaxslar) qaraganda ko‘proq “V” javobini berganligini aniqlaysiz.

Individual baholar	tirishqoq	vazmin	sergap	ta'sirchan	mehribon	optimist	beadab orsiz	o'ziga haddan ishonadigan
1-respondent - menga yoqqan boshqa -menga yoqmagan boshqa - mening o'zim								
2-respondent - menga yoqqan boshqa -menga yoqmagan boshqa - mening o'zim								
<i>Baholar summasi</i>								
Boshqa (yoqqan va yoqmagan) Xislatlar bahosi miqdori (H va Y) Vaziyatga oid baholar soni (V)								
O'z-o'ziga baho Xislatlar bahosi miqdori (H va Y) Vaziyatga oid baholar soni (V)								

- ?**
1. Nima deb o'ylaysiz, Djons va Nisbetning gipotezasi qanchalik haqiqatga ega?
 2. Masalani amalga oshirish davomida ushbu qoida doirasida ma'lum bir istisno holatlari yuzaga keldimi, ular nimalardan iborat?
 3. Respondentlarni yaxshi taniganingiz sababli, ularning xulq-atvorlarini kuzatish orqali qaysi xislatlar bahosi o'rniga vaziyatli baho, yoki qaysi vaziyatli baho o'rniga xislat bahosini qo'yanligini bilib olishingiz mumkin.

2-topshiriq: MOTIVATSIYANI IDROK QILISH

Ushbu masala ayni davrda ta'lim olayotgan o'quv muassasasiga kirish motivlari bo'yicha sizning fikrlaringiz bilan kursdosh va do'stlaringizning javoblarini qiyoslash imkoniyatini beradi.

Quyida keltiriladigan jadvalda kursdoshlaringizni o'quv muassasasiga kirishga undagan ehtimoliy sabablar ko'rsatilgan. O'z nuqtai nazariningizdan kelib chiqib, ularning o'qishga kirish sabablarini besh ballik shkala asosida baholang: 1 – umuman muhim emas; 2 – unchalik muhim emas; 3 – o'rtacha muhim; 4 – yetarlicha muhim; 5 – haddan tashqari muhim. Shu tarzda bir yoki ikki nafar

kursdoshingizni baholang.

masala bo'yicha jadval

Ushbu o'quv yurtini tanlashga sabab	1-kursdosh (sabablarning muhimligi 1-5)	2-kursdosh (sabablarning muhimligi 1-5)
Ota-onasining xohishi		
Uydan chiqib ketishga intilish		
Kelajakda lavozimini ko'tarish istagi		
Yaxshi sharoitga ega turar joyi (shahar tipi, kommunikatsiya...)		
Bo'lajak turmush o'rtog'ini topish		
Yaxshi ijtimoiy vaziyat		
O'qishga kirishning osonligi		

- ?**
- 1.Ushbu ikki nafar kursdoshingiz motivlarini o'zingizniki bilan qiyoslang.
 - 2.Agar boshqa sabablar ham bo'lsa jadvaldagi sabablar ro'yxatini davom ettiring.
 - 3.Aniqlangan motivlar bilan ijtimoiy ustanovkalar bir-biriga mos kelishi to'g'risida to'xtamga keling.

KEYSLAR BANKI

QAROR QABUL QILISH KO'NIKMASI

Ushbu masalaning maqsadi yakka va guruhiy tartibda qabul qilinadigan qarorlarni qiyoslashdan iborat. Buning uchun siz, birinchi, guruhiy tartibda qaror qabul qilish jarayonida ishtirok etasiz. Undan so'ng, yakka tartibda o'zingiz qaror qabul qilasiz.

Qaror quyida keltiriladigan uchta alohida vaziyat bo'yicha qabul qilinadi. Vaziyatlardagi bosh personaj qaror qabul qilishning ikki yo'lidan birini tanlaydi. Unga taqdim qilingan variantlardan biri ehtimoli kattaroq bo'ladi, biroq, u katta tavakkalchilik bilan bog'liq.

Har bir vaziyatni o'qib chiqing va agar, bosh personaj tomonidan foydalanishi ma'qul deb hisoblagan variantni qo'llasa erishiladigan muvaffaqiyatni minimal nuqtai nazardan baholang. Masalan, agar siz variantni faqat aniq muvaffaqiyatga erishtira olsagina qo'llash lozim deb hisoblasangiz *"10 dan 10 % imkoniyat, ushbu variant muvaffaqiyatga olib keladi"* degan javobni tanlang. Yoki, siz variantni teng imkoniyatlar bo'lgandagina qo'llash lozim deb hisoblasangiz *"10 dan 5 % imkoniyat"* javobini belgilang. Quyida keltirilgan har bir vaziyat bilan tanishib chiqing va qaror qabul qiling.

1-vaziyat

Tajribali shaxmatchi "A" milliy shaxmat musobaqasida ishtirok etmoqda. Birinchi partiyalardan birida uning raqibi sifatida musobaqada yaxshi o'yin ko'rsatgan "B" tushib qoladi. "A" oldin o'tkazilgan musobaqalar natijalariga ko'ra past reyting olgan bo'ladi. "B" bilan bo'layotgan o'yinda esa "A" tavakkalchilik asosida yolg'on kombinatsiyasini qo'llagan holda g'alabaga erishish imkoniyati borligini aniqladi. Biroq, agar ushbu kombinatsiya ish bermasa, tavakkalchilik asoslanmagan bo'ladi va "A" umuman himoyalangan holatga qolib ketib o'yinda yutqizadi.

Tasavvur qiling, siz "A"ga maslahat berishingiz kerak. Maslahatning mazmuni "S" tomonidan tavakkalchilik asosida yolg'on kombinatsiyasini qo'llash bo'yicha qabul qilgan qarorining minimal imkoniyatini ko'rsatishdan iborat. Imkoniyatni masala yo'rig'ida ko'rsatilganidek, quyida keltirilgan imkoniyat variantlaridan tanlang.

10 dan 0 % imkoniyat, ya'ni "A" albatta o'yinda yutqizadi;

10 dan 1 % imkoniyat;

10 dan 2 % imkoniyat;

10 dan 3 % imkoniyat;

10 dan 4 % imkoniyat;

10 dan 5 % imkoniyat;

10 dan 6 % imkoniyat;

10 dan 7 % imkoniyat;

10 dan 8 % imkoniyat;

10 dan 9 % imkoniyat;

10 dan 10 % imkoniyat, ya'ni o'yin muvaffaqiyatli tugaydi va "A" albatta o'yinda g'alaba qozonadi.

2-vaziyat

“V” ayni davrda akademik litseyini tugatdi va oliy o‘quv yurtiga o‘qishga kirish uchun hujjatlarini topshirish arafasida turibdi. Kirish imtihonlarini topshirish maqsadida hujjatlarini topshirish uchun ikkita universitetdan birini tanlay olmasdan turibdi. Bular “X” va “Y” universitetlari. “X” universiteti oliy o‘quv yurtlari orasida yaxshi obro‘ga ega. Chunki, u yerda sifatli ta’lim beriladi va ushbu o‘quv maskanida talabalar zamon talablariga javob beradigan xodim sifatida yetishib chiqadi. Shuningdek, mehnat tashkilotlari ham birinchi navbatda ushbu o‘quv yurti bitiruvchilarini ishga olishga harakat qiladi. Biroq, ushbu universitetga juda ham ko‘p abituriyent hujjat topshirishi sababli raqobat katta va kirish imtihonlaridan o‘tish bali ham yuqori. “Y” universiteti esa talab darajasiga unchalik javob bermasa ham, kam sondagi abituriyentlar hujjat topshirishi va kirish bali unchalik katta bo‘lmaganligi sababli o‘qishga kirish ehtimoli kattaroq sanaladi.

Tasavvur qiling, siz abituriyent “V”ga maslahat berishingiz kerak. Maslahatning mazmuni “V” sifatli ta’lim olishi va kelajakda zamon talablariga javob beradigan kadr bo‘lib yetishib chiqishi uchun “Y” universitetiga emas, balki “X” universitetiga kirish imtihonlaridan o‘tish uchun hujjat topshirishi lozimligidan iborat.

Endi, abituriyent “V”ga bergan maslahatingiz asosida “Y” universitetiga emas, balki “X” universitetiga kirish imtihonlarini topshirib, o‘qishga kirish imkoniyatini quyida keltirilgan variantlaridan tanlang:

10 dan 0 % imkoniyat, ya’ni abituriyent “V” - “X” universitetiga o‘qishga kirolmaydi;

10 dan 1 % imkoniyat;

10 dan 2 % imkoniyat;

10 dan 3 % imkoniyat;

10 dan 4 % imkoniyat;

10 dan 5 % imkoniyat;

10 dan 6 % imkoniyat;

10 dan 7 % imkoniyat;

10 dan 8 % imkoniyat;

10 dan 9 % imkoniyat;

10 dan 10 % imkoniyat, ya’ni “V” ushbu universitetga albatta o‘qishga kiradi.

3-vaziyat

Talaba “S” – “X” kolleji futbol jamoasi sardori. “X” kolleji oxirgi mavsumiy o‘yinda o‘zining an’anaviy raqibi “Y” kolleji jamoasiga qarshi o‘ynamoqda. Oxirgi daqiqalarda “S” jamoasi o‘yinda uch ochkoga qolib ketadi. “X” kolleji jamoasiga faqat bitta murakkab kombinatsiyani qo‘llash orqali yutish imkoniyati uchun vaqt qoladi. Jamoa sardori “S” murakkab kombinatsiya o‘rniga mutloq oson kombinatsiyani qo‘llash orqali o‘yinni teng hisoblar asosida tugatish yoki tavakkalchilik asosida murakkab kombinatsiyani qo‘llash orqali o‘yinda g‘alaba qozonish qarorlaridan birini qabul qilishi kerak. Agar ushbu kombinatsiya ish bersa, “S” jamoasi haqiqatdan ham g‘olib chiqadi, agar aksi bo‘lsa, o‘yin hattoki teng hisoblar asosida ham tugamaydi va raqib jamoa “Y” kolleji yutib chiqadi.

Tasavvur qiling, siz “S”ga maslahat berishingiz kerak. Quyida futbol o‘yinida “X” kolleji jamoasi tomonidan tavakkalchilik asosida murakkab kombinatsiyani qo‘llash bo‘yicha ehtimoliy muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlari keltirilgan va siz ulardan birini tanlang.

10 dan 0 % imkoniyat, ya’ni “X” kolleji futbol jamoasi tomonidan qo‘llanilgan ushbu kombinatsiya ish bermaydi va o‘yinda “Y” kolleji jamoasi g‘alaba qozonadi;

10 dan 1 % imkoniyat;

10 dan 2 % imkoniyat;

10 dan 3 % imkoniyat;

10 dan 4 % imkoniyat;

10 dan 5 % imkoniyat;

10 dan 6 % imkoniyat;

10 dan 7 % imkoniyat;

10 dan 8 % imkoniyat;

10 dan 9 % imkoniyat;

10 dan 10 % imkoniyat, ya’ni tavakkalchilik asosida “S” tomonidan qo‘llash uchun qaror qilingan kombinatsiya ish berib, “X” kolleji futbol jamoasi mavsumiy o‘yin g‘olibga aylanadi.

?

1. Masalani jamoaviy muhokama qilib bo‘lgach, qabul qilingan guruhiiy qarorni quyida keltirilgan jadvalga kiriting. Undan keyin yakka tartibda qabul qilgan qaroringizni ham kiriting.

2. Har bir holat bo‘yicha jadvalning oxirgi ustuniga kimning qarori ko‘proq tavakkalchilik asosida qabul qilinganligini ko‘rsating: guruhiiy, yakka tartibdagi yoki ularning har ikkalasi ham bir xilmi? Ushbu natijalarda qandaydir qonuniyat bormi?

3. O‘zingiz erishgan natijalarni boshqa kursdoshlaringiz natijalari bilan solishtiring. Nima deb o‘ylaysiz, umumiiy natijalar asosida guruhiiy yoki yakka tartibda qabul qilingan qarorlarning tavakkalchiligi o‘rtasidagi farqlar to‘g‘risida

fikr yuritish mumkinmi?

4. Agar guruhiy qaror bilan o'zingizning mustaqil qaroringiz o'rtasida farq qilayotgan bo'lsa, sizni guruhiy muhokamada ushbu qarorni qo'llab-quvvatlashingizga nima turtki bo'ldi?

masala uchun jadval

Vaziyat	Guruhiy qaror	Yakka tartibda qabul qilingan qaror	Ko'proq tavakkalchilik asosida qabul qilingan qaror
1			
2			
3			

Keys-stadiga asoslangan o'quv mashg'ulotining texnologik chizmasi 1-variant (keys-stadi savolli)

*Keys bilan ishlashga 1 ta o'quv mashg'uloti ajratilgan.
Keys kichik yoki o'rtacha o'lchamli.*

Билимларни фаоллаштириш (блиц-сўров, ўйланг-жуфтликка
бўлининг-фикр алмашинг, аукцион)



Кейс-стадига кириш



Кейс-стади билан таништириш



Кейс-стади билан якка тартибда ишлашни ташкил қилиш (Ўқув
топшириғини тарқатиш, йўриқнома бериш).



Кейс-стадини жамоавий тарзда ечиш (мунозара – унинг тузилиши
кейс охирида келтирилган саволлар билан белгиланади, - муаммоли
вазиятни таҳлил қилиш ва ҳал этиш, бундай амалий вазиятдаги
фаолият бўйича тавсияларни ишлаб чиқишга қаратилган)



Ўқитувчи резюмеси



Тингловчиларнинг ўқув ютуқларини баҳолаш

GLOSSARIY

Affekt (latincha *affectus* – ruhiy hayajonlanish, qiziqish) qisqa muddatda va shiddat bilan sodir bo‘ladigan hissiy, hayajonli jarayon: hulq-atvor, hatti-harakat ustidan nazoratning susayishi tufayli ro‘y beradigan kuchli his-tuyg‘u (g‘azablanish, qo‘rqish, nafratlanish, shodlanish). Mutaxassislar normal va patologik affektlar borligini, shuningdek, affektiv reaksiyalarga ozroq yoki ko‘proq moyil bo‘ladigan shaxslar ham bo‘lishini ta’kidlashadi. O‘zida affektiv reaksiyaga nisbatan hislarga erk bermaslik insondagi normal psixik holat hisoblanadi. Affektlar ta’siriga beriluvchi kishilar odatda olomon orasida sarosimalik uyg‘otishga moyil bo‘ladilar.

Anglash – psixik mazmuni ongsizlikdan aktiv belgi shakliga ko‘chirishdan iborat psixik jarayoni bo‘lib, bu mazmuni boshqa kishilarga yetkazib berish imkonini beradi. Anglamoq o‘ziga xabar bermoq, o‘z tajribasi hisiyoti, ehtiyoji, qiziqishi va b. to‘g‘risida o‘ziga tushuntirish demakdir. Anglash demak nimadir to‘g‘risida o‘z-o‘ziga hisob berishdir. Sub’ektiv holda u yoki bu vaziyat, kechinma va boshqalarni aniq-ravshan va nazorat qilinadigan in’ikosidir.

Aql – insonning ma’naviy va ruhiy faoliyatida barcha oliy narsalar xodiaslarni qanday bo‘lsa, aynan shunday xolda bilish qobiliyati, mavhum fikrlash va tushunchalar yaratish xususiyati.

Ahloq – ijtimoiy ong shakllaridan biridir. Kishilarning tarixan tarkib topgan hulq – atvori, yurish – turish, ijtimoiy va shaxsiy xayotga o‘zaro, shuningdek jamiyatga bo‘lgan munosabatlarini tartibga solib turuvchi barqarormuayyan norma va qoidalar yig‘indisi.

Attraksiya – (lotincha so‘z – *attrahere* –yoqtirish, o‘ziga jalb etish) – bu bir insonning boshqa bir insonga ijobiy munosabati asosida yoqishi va yoqtirish, o‘zaro mobillikni tushuntiruvchi emotsional hisdir.

Aloqa – makon yo vaqtda bir – biridan muayyan masofada uzoqlikda joylashgan ikki yoki bir necha hodisa yo ob’ektning o‘zaro bog‘lanish xodisasi.

Anglash – psixik mazmuni ongsizlikdan aktiv belgi shakliga ko‘chirishdan iborat psixik jarayon bo‘lib, bu mazmuni boshqa kishilarga yetkazib berish imkonini beradi. Anglamoq o‘zicha xabar bermoq, o‘z tajribasi xissiyoti, extiyoji, qiziqishi va boshqalar to‘g‘risida tushuntirish demakdir. Anglash demoq nimalar to‘g‘risida o‘z – o‘ziga xisob berishdir. Sub’ektiv xolda u yoki bk vaziyat, kechikma va boshqalarni ochiq – ravshan va nazorat qilinadigan inikosidir.

Bilish – olamning inson ongidagi in’ikos etish jarayoni . inson o‘zini qamrab olgan atrof – muxit to‘g‘risida bilish va tasavvurga ega bo‘lmay turib, faoliyatning biron bir turi bilan shug‘ullana olmaydi. Bilishning maxsuli natijasi bilim bo‘lib, xar qanday kasbni egallash faqat bilim orqali ro‘y beradi.

Vijdon – ijtimoiy xodisa bo‘lib, kishining xayotida sodir bo‘layotgan ijobiy va salbiy xodisalarga munosabatida ifodalanadi. Vijdon kishining ma’naviy yetukligiga bog‘liq.

Guruhlarning tuzilishi – guruh qismlarining kichik guruhlariga nisbatan barqaror bo‘linishi, guruhga kiruvchi kishilar o‘rtasida guruh vazifalarining taqsim qilinishi.

Gallyusinatsiyalar (lat. *hallucinatio* - alahsirash, ko‘zga ko‘rinish) insonda kasal paytidagi psixikasiga ta’sir etishi natijasida hosil bo‘ladigan mavjud

bo‘lmagan, fantastik, xayoliy, uydirma obrazlar.

Guruh dinamikasi (grekcha dynamis – kuch) – bu guruhning o‘z holatini o‘zgartiradigan, rivojlantiradigan yoki buzadigan kuchlarning hamkorlikdagi jarayonidir. U asosan ikki xil yo‘nalishdagi jarayonlarda ko‘zga tashlanadi: guruh a‘zolarining birlashuvi va aksincha, keskinlashuvi.

Guruh munosabatlari – a) guruh faoliyatining xarakter iva mazmuni; b) guruhning umuman strukturadagi o‘rni, qadriyatli birligi va b. xarakteristikasi; v) guruh a‘zolarining sotsial individ sifatidagi o‘zaro shaxsiy munosabatlari; g) bu munosabatlarga jalb qilingan kishilarning individual pozitsiyalariga ko‘ra guruhda uning a‘zolari o‘rtasida qaror topadigan munosabatlardir.

Guruh roli (o‘rni) – guruh uchun bajaradigan vazifasiga ko‘ra insonning shu guruhdagi barqaror, mustahkam holati (o‘rni, pozitsiyasi).

Guruh – umumiy bo‘lgan bir yoki bir necha belgilarga ko‘ra birlashgan kishilar yig‘indisidir.

Guruhning birdamligi – fikrlar birligi, e‘tiqodlar, anhanalar birligida, shaxslararo munosabatlar, kayfiyatlarning ijobiy xarakterida va guruh psixikasining boshqa belgilarida, shuningdek, hamkorlikdagi amaliy faoliyatning birligida namoyon bo‘ladigan guruh a‘zolari birligining psixologik xarakteristikasidir.

Gipoteza – o‘rganilayotgan zaxodisanning sabablari va xususiyatlarini tushuntiradigan asosli tahmin tarzidagi bilim shakli.

Guruhda kuchlarning munosabati – bu guruhiy jarayonlarni hamda guruh a‘zolarining hulq-atvorini nazorat qilish imkoniyatlarining guruh ob‘ektlari o‘rtasida taqsimlanishidir. Liderlik tushunchasida, guruh dinamikasi va sh.k. larda namoyon bo‘ladi.

Geniy – bu yangiliklarni yaratuvchi va kashf qiluvchi shaxs.

Dunyo obrazi - insonga dunyoda harakatlana olish uchun mo‘ljal bo‘lib xizmat qiladigan olam to‘g‘risidagi, boshqa kishilar, o‘zi va o‘z faoliyati to‘g‘risidagi bir butun, yaxlit ko‘p darajali tasavvurlari tizimidir. Bu sub‘ektiv kechinmalar tilida yaratilgan tashqi dunyoning ichki modelidir. Ta‘kidlash lozimki, bu olamni idrok qilish natijasida hosil bo‘lgan, ichki rejaga noavtomatik tarzda ko‘chirilgan obrazlar emas, balki hayotiy faollikning har biri keyingi momentidagi hodisalarni bashorat qila oladigan, chuqur anglanmagan taxminlar asosida aktiv qurilgan tizimdir. O‘zini va tashqi olamni faol o‘zlashtirish davomidagi tekshirish usullari bilan (sinov va xatolar) yaratiladi.

Diqqat – ongning muayyan ob‘ektlar to‘plami, jarayonlarga (tashqi yoki psixikaga bog‘liq) tanlangan holda yo‘naltirilishidir. Ba‘zan nazorat va o‘z-o‘zini nazoratni ham diqqatga kiritishadi.

Dunyoqarash – tartibga solingan, aqliy ongli tizimga aylantirilgan bilim, taasvurlar va g‘oyalar majmui bo‘lib, u shaxsni ma‘lum bir qolipda, o‘z shaxsiy qiyofasiga ega tarzda munosib o‘rin egallashga chorlaydi.

Dil – jon,qalb,yurak,ko‘ngil markaziy osiyo falsafiy tafakkurida ushbu tushunchalar deyarli bir xil ma‘noda ifodalanib borliqning nomoddiy asosida hamda insonning tub mohiyatini ifodalash uchun xizmat qilib kelgan.

Deviant xulq-atvor – ijtimoiy deviantlikni kiritib chiqaruvchi xulq – atvor

Dadillik – kishining xayot va omonligi uchun omon bo‘lgan kishilarni yengishda ko‘rinadigan iroda kuchidir.

Do‘stlik – o‘zaro bir- birini tushunuvchi 2 inson o‘rtasida yuzaga keluvchi emotsional ijobiy xisdirodatda bir jins vakillari orasida yuzaga keladi.

Jamiyat – tabiatning bir qismi, borliqning aloxida shaklini ifodalaydigan falsafiy tushuncha odamlar uyushmasining maxsus shakli kishilar o‘rtasida amal qiladigan ko‘plab munosabatlar majmuasidir.

Individ – odamzodning vakili, o‘ziga xos takrorlanmas xususiyatlar egasi hisoblanish odam.

Innovatsiya – ijtimoiy amaliyotda sezilarli o‘zgarishlar tug‘diradigan turli xil yangiliklar yaratish va tadbiq etish.

Idrok – sub‘ekt tomonidan uning ongiga nisbatan tashqi dunyodan ajratib olinadigan ba‘zi butunlik va yaxlitliklarning bilish jarayoni va harakatlari davomida ongda aks ettirilishidir (bunga boshqa kishilar va inson o‘z tanasini aks ettirish ham kiradi). Aytaylik, insonning o‘z tanasining sog‘ligi yoki nosog‘lomligi to‘g‘risidagi ichki a‘zolaridan kelayotgan signal natijasida shakllanadigan obrazni idrok etish ham, etmaslik ham mumkin. Ko‘pincha esa idrok deganda tabiiy va sotsial dunyodagi predmetlarni in‘ikos ettirish tushuniladi. Ob‘ekt bo‘lsa tashqi muhitda tayyor holda bo‘ladi-yu, u insonga ta‘sir qiladi va natijada u inson tomonidan avtomatik tarzda aks ettiriladi, anglanadi, desak, unchalik to‘g‘ri emas. Aksincha, inson tartibsiz holdagi kechinma va tasavvurlar orasidan ba‘zi ob‘ektlarni ajratib oladi va bu bilan go‘yoki ushbu tartibsizliklarni tartibga keltiradi. Inson sezgi a‘zolariga ta‘sir qilish uchun biron narsa idrok etildi, anglandi deyishga hali erta. Predmet yoki predmet emas deb hisoblash insonning o‘ziga bog‘liq: kim uchundir tashqi muhitda musiqaviy ovoz va shovqinlar, ularda uyg‘unlashmaganlik (dissonans) va uyg‘unlik (konsonaj); kimgadir esa mashinaning ishlashidan darak beruvchi shovqin yoki hayvonlar tomonidan chiqarilayotgan ovozlar, kim uchundir suhbatdoshning nutqidagi mantiqiy urg‘u berishlar, kimgadir turar joylarni muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz rejalashtirish va boshqalar. Kimlar uchundir esa, agar u bunday narsalarni bilmasa, ular go‘yoki yo‘qdek “zo‘r berib eshitmaslik va ko‘rmaslik” payida bo‘ladi.

Iroda – insonning o‘z psixikasi va hatti-harakatlarini ongli ravishda boshqara olishida namoyon bo‘ladigan xususiyati (holati) dir. Iroda ongli tarzda o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga erishishi yo‘lida ro‘y beradigan to‘siqlarni yengib o‘tish davomida namoyon bo‘ladi. Uni o‘z-o‘zini zo‘rlab qiynash bilan tenglashtirmaslik kerak. Iroda hamma vaqt ham o‘z-o‘zini majburlash bilan bog‘liq emas. Bu baribir o‘z maqsadiga erishishishi yo‘lida ishonch, kelishish, ayyorlik, o‘rgatish, o‘z xususiyatlaridan mohirona foydalanish (odatlar, standart reaksiyalar, zaifliklardan) bo‘lishi mumkin.

Ijtimoiy norma – shaxs xaytida shunday kategoriyaki, u jamiyatning o‘z a‘zolarixulq – atvoriga nasbatan ishlab chiqqan va ko‘pchilik tomonidan e‘tirof etilgan xarakterlar talabi.

Ijtimoiy sanksiya – normalarning shaxs xulqida nomoyon bo‘lishni nazorat qiluvchi jazo va rag‘batlantirish mexanizmi.

Iste‘dod nishonalari – qobiliyatni o‘stirishning tabiiy zaminlari (ularning

biologik asosi). Ular tug‘ma yoki egallangan bo‘lishi mumkin. Ularni ro‘yobga chiqmagan qobiliyatlardan ham farqlash lozim. Farq shundaki, iste‘dod nishonalari inson xususiyatlari va fazilatlaridagi shunday biologik jihatlarki, ular keyinchalik u yoki bu qobiliyatga uning komponenti bo‘lib qo‘shiladi. Bir xil biologik jihat bir qancha qobiliyatlar tarkibiga kirishi mumkin va shunday tarkibda iste‘dod nishonalari rolini bajara oladi.

Individuallik – insonning individ, faoliyat sub‘ekti va shaxs sifatidagi betakror xususiyatlari tizimidir. Individuallikning mavjud bo‘lishi insonning ta‘lim, tarbiya, u bilan faol munosabatidagi individual yondashuvining asosi hisoblanadi. “Har bir kishigacha yetib borish” – bunday yondashuvning idealidir. Individuallikni inkor etish (nodonlik, ishonch yoki kam anglangan harakat tufayli, masalan, texnik yoki umumilmiy g‘oyalarning oddiy formulalariga sig‘inish oqibatida) zaruriy tarzda bir qator salbiy oqibatlarga olib keladi (shaxslararo va shaxslar ichidagi keskinlik, ixtirolar, ruhiy jarohatlar, nizolar ishtirok etganlarning asabiy holatlari va ta‘lim, tarbiya, mehnatdagi past samaradorlik natijalari sifatida).

Intellekt, aql – inson hayoti davomida bilish faolligiga tegishli bo‘lgan barqaror o‘ziga xos va rivojlanib boruvchi xususiyatlar va sifatlar tizimi, uning ichki va tashqi hayotiy holatlar, jumladan, ijtimoiy muhitda ham oqilona mo‘ljal ola bilishdir. Odatda sub‘ektning faoliyat sohasiga bog‘liq holda sotsial intellekt, texnik intellekt, gumanitar intellekt, verbal, ya‘ni og‘zaki, noverbal intellektlarni farqlashadi.

Ilmiy psixologiya – inson va hayvon psixikasi taraqqiyoti, paydo bo‘lish va mavjud bo‘lishi qonuniyatlarini aniqlashda foydalaniladigan texnologiya va murakkab tarmoqlangan belgilar tizimidir. Ilmiy psixologiyaning asosiy vazifasi – yangilikni aniqlash emas, balki bir tomondan ishonarli bilimlari egallash, boshqa tomondan esa, qaysi o‘rinda ular ishonarli, qay holda esa yolg‘on va noaniq ekanligini ayniqlashdan iboratdir.

Ijtimoiy ustanovka – shaxsning atrof muhitida sodir bo‘layotgan ijtimoiy xodisalarni, ob‘ektlarni, idtimoiy guruxlarga ma‘lum tarzda idrok etish, qabul qilish va ular bilan munosabatlar o‘rnatishga ruxiy ichki hozirlik sifatida odamlardagi dunyoqarashni ham o‘zgartirishga aloqador kategoriya.

Inson – tushunchasiga aniq tarif berish uchun olamda mavjud bo‘lgan boshqa biologik mavjudodlardag ajralib turuvchi eng muxim xususiyatlarni aniqlash zarur.

Insonporvarlik – gumanizm odamlarga mehr – muxabbat bilan qarash, ularni xurmat qilish, insonning moddiy farovonligini yuksaltirish va kishilardayuksak ma‘naviy fazilatlarini rivojlantirishga g‘amxo‘rlik qilish g‘oyalari bilan sug‘orilgan dunyoqarash.

Insof – insonning muayyan jamiyatda amal qilayotgan axloq me‘yorini nazorat qilish va axloqiy baxolash.

Ideal – orzu intilishning oliy maqsadi. Tor ma‘noda: shaxs qobiliyatlarini ifodalovchi namuna.

Illyuziya – tana azolarimizga bevosita ta‘sir etib turgan narsa va hodisalarni noto‘g‘ri (noadekvat) idrok qilishdan iborat bilish jarayonining hodisasi.

Insayt – oydinlashuv. Muammoning yechimi, ba‘zan birdan yorqin

yulduzday yalt etib paydo bo‘ladi. Bunday psixologik xolat psixologiyada insay – oydinlashuv deyiladi.

Ijtimoiylashuv – inson tomonidan ijtimoiy tajribani egallash va xayot faoliyat jarayonida uni faol tarzdao‘zashtirish jarayoni.

Image – obraz

Konformizm (lat. conformis – o‘xshash, mos keladigan) – inson tomonidan o‘zining haqligiga ichidan shubhalanmaydigan fikridan nosamimiy ravishda qaytish tufayli boshqalarning fikrlarini (ehtimol, noto‘g‘ri bo‘lsa ham) tanqidsiz qabul qilish.

Kundalik ong – kishilarning bevosita kundalik tajribasiga asoslanadigan va ular mansub bo‘lgan sotsial jamoalarda hukmronlik qiluvchi tasavvurlar, bilimlar, tushunchalar va harakatlarning yig‘indisidir.

Kayfiyat – insonning psixik hayotida namoyon bo‘ladigan, o‘rtamiyona yoki zaif samaradorlikning nisbatan davomiy, barqaror, emotsional holati bo‘lib, u yoki bu hissiyotning ustunligi bilan xarakterlanadi.

Kichik guruh – umumiy ishni bajaradigan va bir-birlari bilan bevosita shaxsiy aloqada bo‘lgan, 3 tadan 20-30 tagacha kishidan tarkib topgan, unchalik katta bo‘lmagan kishilar to‘plamidir. U guruh a‘zolarining hamdard bo‘lishi, “biz” ekanligini his etishi bilan bog‘liq xususiyatlarga ega.

Liderlik – guruhdagi shaxslararo munosabatlar tizimida hukmronlik va bo‘ysunuvchanlik, hokimlik va qaramlik munosabatlaridir.

Malaka – faoliyatning avtomatlashtirilgan ko‘nikmasi, mustahkam mahoratidir. Boshda ongni nazorat qilinadigan va bir me‘yordagi harakat bo‘lgan narsa har bir kishiga turmush tajribasiga ko‘ra avtomatlashtirishi mumkin. Ko‘nikmalar faqat oson payqash mumkin bo‘lgan harakatchan bo‘lmaydi, balki fikrlovchi, sotsial-kirishuvchan, tashkilotchi va boshqacha ham bo‘ladi. Avtomatizmdan iborat bo‘lgani holda ko‘nikmalar ayni paytda ishda ijodning zaruriy sharti hisoblanadi (bunga tushunarli misol quyidagicha: shu sozanda o‘z asbobida musiqa chalishning zarur texnikasi, ko‘nikmasini hosil qilgunga qadar u ijodkor bo‘la olmaydi, chunki u hali “musiqiy” asboblari klavishalarini, pozitsiyalar va b. ni chalkashtirib qo‘yishdan qo‘rqadi).

Muloqotdagi konstruktivlik – hamkorlarning aloqasi davomida ularning ehtiyojlarini qondirishni ta‘minlaydigan, birgalikda hal qilinayotgan masalalarning ijobiy yechim topishiga yordam beradigan, ularning individual betakrorligini saqlab qoladigan muloqotdir. Muloqotdagi konstruktivlik (yaratuvchanlik) tushunchasi kishilarning muloqot davomida o‘z salohiyatini o‘stirish, shaxsiy o‘sishi, sotsial yetuklikning shakllanishi tomon harakatlanishi yo‘nalishini ko‘rsatadi.

Munosabatning o‘zgarishi (deformatsiya) – bu munosabatlardagi shunday o‘zgarishlarki (buzilish, qiyinchiliklar, yanglishishlar), ular munosabatdagi samaradorlikning pasayishi yoki buzilishiga, hamkorliklarning sog‘lig‘iga, ularning obro‘sigaga yoki ruhiy osoyishtaligiga, moddiy qadriyatlariga va boshqalarga putur yetkazadi. O‘zgarishlarni ularning turiga qarab turlicha tushunish mumkin: mas., mening ustimdan kulishayotgani uchun bizning begona ekanligimizni, bizning do‘st emasligimiz, bir-birimizni tushuna olmasligimizni,

meni masxara qilishayotganligi va ko'plab boshqa narsalarni anglay boshladim.

Mazmun – bevosita hissiy kechinmalar davomida yoki ongda aks etuvchi qandaydir ob'ekt o'rtasidagi munosabatni xira bo'lsada anglash va sub'ekt hohishlariga ko'ra paydo bo'ladigan psixik yaxlitlikdir. Bir narsa men uchun kerak, ehtiyoji bor, boshqasi esa – yuq, kerakmasligini e'tiborga olib, aytishadiki, «bu men uchun mazmunga ega» yoki «buning men uchun mazmuni yo'q» tashqaridan qaraganda bir narsa bo'lib tuyulgan yumush (o'ra qazish) yollangan yer qazuvchi uchun daromad qilish mazmuniga ega, arxeolog uchun qandaydir buyuk tarixiy muammoni yechish, tasodifiy yo'lovchi uchun esa piyodalar yo'lining buzilayotganligi unga qandaydir buzg'unchilik mazmuniga ega bo'lib tuyuladi.

Me'yor – ob'ektning sifat va miqdoriy jixatlari o'zaro bog'liqligini anglatadigan, mazmukn va shakl imkoniyat va voqeilik o'rtasidagi zaruriy uyg'unlik ta'minlanishini ifodalaydigan falsafiy tushuncha.

Moslik – kishilardan harakat qilish kelishuvini va yaxshi o'zaro bir-birini tushunishini talab qiladigan birgalikda ishlash, vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish qobiliyati.

Motivatsiya – inson hulq – atvori, uning bog'lanishi va faolligini tushuntirib beruvchi psixologik sabablar majmuini bildiradi.

Mentalitet – individ yoki ijtimoiy guruxning millatning o'ziga xos tafakkur tarzi, voqelikni ma'lum bir tarzda tushunishi va va birlikda xarakat qilishga tayyorligi va moyilligi.

Motiv – shaxsdagi u yoki bu xulq – atvorga nisbatan turgan moyillik.

Mardlik – o'zini puxta bilish dadillik, qatitlik, chidam va toqat paytlarida namoyon bo'ladigan kuchli iroda.

Nutq – ovoz berilgan til, u yoki bu til belgilarini anglatuvchi ovoz signallarining inson tomonidan qo'llaniladigan tizimidir.

Ong – hayvonlar psixikasidan farqli ravishda butun inson psixikasini ifodalashda foydalaniladigan termin. Inson psixikasi (ong) belgililik (ong «hujayrasi» belgilarning murakkab tizimini hosil qiladi), qurollilik (istagan ong birligi predmetlar dunyosini aks ettirish vositasi sifatida foydalaniladi), predmetlilik (tashqi dunyo elementlari bilan mutanosibli va qat'iy uyushganlik (belgilar va qurollar tizimi ko'plab o'zaro mutanosib kategoriyalarni vujudga keltiradi) xususiyatlari bilan xarakterlanadi.

Ongsizlik anglab bo'lmaydigan – aniq, ravshan anglash nazorati uchun predmet bo'la olmaydigan ko'plab psixik hodisalar to'plami. Ongda har bir daqiqada bir vaqtning o'zida cheklangan miqdordagi tasavvurlar bo'lishi mumkin (o'rtacha taxmin qilishlaricha 7 ± 2). Bunda ushbu damdagi anglanmagan tasavvurlarni biz aniq ong zonasiga oson “chaqirishimiz” mumkin (“xohlaganing uchun esladig”), lekin juda ko'plab psixik boshqarib turuvchilar (regulyatorlar) shunday ishlaydiki, bunda inson na faqat o'z-o'ziga hisob bermasligi mumkin, balki buni u hattoki xohlagan taqdirda ham uni qila olmaydi. Masalan, soatning aylana shakldagi siferblatini idrok qilayotganda bizning ko'z qobig'imizda aylana emas, balki ellips (agar soatga yondan qarasak) hosil bo'lishi mumkin, biroq soat qanday holda tursa ham biz siferblatni “aylana” sifatida idrok qilamiz. Na faqat

sub'ekt idroki tomonidan anglana olmaydigan, balki psixologiyada yangi shug'ullanayotgan kishi uchun ham tushunarsiz bo'lgan bu geometrik ma'nodagi hol psixika mexanizmlari tufayli ro'y beradi (qarang: doimiylik idrok xossasi sifatida) hissiyotlarning ba'zi qismlari ("yaxshi", "madaniyatlilik" bilan sig'isha olmaydiganlarini) ongdan siqib chiqariladi, lekin Z.Freyd ta'limotiga ko'ra, ular hatti-harakatni sezilarli holda boshqarishda davom etaveradi va hattoki ichki ziddiyatlarga va asab kasallariklarini ham keltirib chiqaradi. Psixoanalizning (bu termin freydizm tomonidan mustahkam o'rnashib qolgan, shuning uchun har qanday psixika tahlilini (analizini) psixoanaliz deb atamaslik kerak) psixoterapevtik amaliyoti shunga asoslanganki, siqib chiqarilgan hissiyotlarni topib anglash predmetiga aylantirish lozim. Bu psixoanalitikdan juda katta va o'tkir mahoratni talab qiladi (o'zini shunday deb hisolaydiganning ko'pchiligi, afsuski, nafaqa bu borada malakasiz, balki manfaatparast hamdir).

Orzular – insonning kelajak to'g'risidagi, xayoliga kelgan va u uchun muhimroq ehtiyojlar va qiziqishlarni ro'yobga chiqarish borasidagi rejalaridir.

Optatsiya – (lotincha so'z – ortatio – xohish, tanlov) tanlov bosqichi. Odam tomonidan professional taraqqiyotning bosqichi tanlanishidir deb e'tirof etiladi. 11-12 yoshlar, 14-18 yosh davrlarni o'z ichiga oladi.

Optimizm – kechayotgan voqea va hodisalar jarayoniga nisbatan bildirilgan ikki xil qarama – qarshi fikrlar yoki munosabatlarni yaxshilikka yo'yish.

Panelog – guruh ichidagi munozaradir

Psixodiagnostika (grekcha psyche – ruh va diagnostikos – bilishga qodir) – psixologik fan sohasi bo'lib, shaxsning individual – psixik xususiyatlarini o'lchash va aniqlash usullarini ishlab chiqadi.

Psixoterapiya (grekcha therapeia – parvarish qilish, davolash) – ko'plab psixik, asabiy va psixosomatik xafagarchiliklarda inson hissiyoti, fikrlari, o'z-o'zini anglashiga kompleks davolovchi ta'sirdir (asosan nutq yordamida, biroq faqat uning yordamida emas). Shartli ravishda asosan mavjud alomatlarini yo'qotish yoki yumshatishga qaratilgan klinik maqsadli psixoterapiya va insonga uning sotsial muhiti va o'z shaxsiga nisbatan munosabatini o'zgartirishga yordam berishni vazifa qilib olgan shaxsiy maqsadli psixoterapiya mavjudligi e'tirof qilinadi.

Psixo analiz – ruhiy xastalikni davolash usuli va psixologik ta'limot.

Psixotexnika (grekcha techne – san'at, mahorat) – psixik jarayonlarni sodir bo'lish xarakteristikasini yaxshilash, mavjud psixik qobiliyatlarni o'stirish va yangilarini shakllantirishda qo'llaniladigan konkret metodik usullar yoki usullar tizimidir.

Predikatlar mantig'i – muhokama yuritish jarayonlarining muloxazalarning ichki strukturasi kelib chiqib tahlil qiladigan mantiqiy sistema. U muloxg'azalar mantig'ini o'z ichiga oladi. Predikatlar mantig'i tili muloxazalar mantig'i tiliga qo'shimcha simvollar kiritish yordamida hosil qilinadi.

Reproduktiv – fikrlashni bir turi.

Referent guruh (lot. referens – xabar beruvchi) – kishi uchun e'tiborli bo'lgan, qadriyatleri, fikrlash hulq-atvor, normalari va qoidalarini so'zsiz tan oluvchi va ularni o'zi uchun qabul qiluvchi kishilar guruhidir.

Refleksiya – aynan o‘ziga o‘xshash odamlar obrazi orqali o‘zi to‘g‘risidagi obrazni shakllantirish, jonlantirish.

Rol – shaxsga nisbatan shunday tushunchaki, uning konkret hayotiy vaziyatidagi huquq va burchlaridan iborat.

Sezgi – qo‘zg‘atuvchilarning idrok a‘zolari retseptorlaritga ta‘siri tufayli vujudga keladigan, ob‘ektiv dunyo xossalarining sub‘ektiv in‘ikosidir.

Sotsial individ – barcha kishilar uchun umumiy bo‘lgan, belgilar, qurollar bilan ishlashda bog‘liq bo‘lgan maxsus insoniy tavsiflarni aks ettirish, jamiyatda qabul qilingan norma va qoidalarni hisobga olish, sotsial vazifalarni bajarishdir. Gap shaxsiy yoki individual jihatlar to‘g‘risida ketayotgani yo‘q.

Sotsial muhit – insonning aniq maqsadlar rejalar asosida faoliyat ko‘rsatadigan dunyosi.

Sevgi – bu nafaqat xissiyot, balki boshqalarni seva olish qobiliyati va sevilish uning asosiy mezon – “insoniy fazilatlar” hisoblanadi.

Simpatiya – o‘zaro yoqtirib qolish, bu sevgining ilk bosqichi hisoblanadi. Bunda asosan sevgi ob‘ektning tashqi jozibasi rol o‘ynaydi.

Talant (grekcha talanron – dastlab o‘lchov, mezon, keyin esa ko‘chma ma‘noda – qobiliyatlar darajasi) – inson qobiliyatlarining, eng avvalo u yoki bu turdagi faoliyatda ulkan yutuqlarga erishishini ta‘minlovchi maxsus yuksak rivojlanish darajasi.

Tashabbuskorlik – xarakterning qimmatli xislati bo‘lib, bu xislat ko‘pchilik kishilarda ommaviy tus olgandir.

Temperament (lot. temreramentum – qismlarning tegishli muvofiqligi, mutanosibligi) – inson xulq-atvori va psixik jarayonlarining dinamik xarakteristikasi bo‘lib, ularning tezligi, o‘zgaruvchanligi, samaradorligi, ishchanligi va boshqalarda namoyon bo‘ladi.

Tafakkur – turli masalalarni (nazariy va amaliy) yechishga qaratilgan va bu yumushni ado etishni (javob topishni) ta‘minlaydigan ko‘plab psixik jarayonlar, harakatlar, holatlardir. Tafakkurni funksional tizim sifatida jalb qilish qisman ongli, qisman odatlar, malakalar va asab tizimi tomonidan yuzaga keltirilgan insonning ilgarigi taraqqiyoti, tarbiyasi, o‘z-o‘zini shakllantirishdan iborat beixtiyor harakatlari tufayli amalga oshiriladi.

Til – inson aloqalari, tafakkuri uchun axborotni asrash va avloddan avlodga yetkazib berish vositasi bo‘lib xizmat qiladigan belgilar tizimidir.

Unutish – eslash va yod bo‘lib qolgan yoki o‘zlashtirilgan materialni qayta xotirlash imkoniyatining asta-sekin so‘nib borishini aks ettiruvchi jarayondir.

Fantaziya – hayolning borliqdan, haqiqatdan biroz uzoqlashuv jarayonidir.

Fizionomika – odam yuz qirralari va ularning nisbati orqali odamning xususiyatlarini o‘rganish.

Faoliyat – insonning voqeilikni, o‘zini o‘zi ijodiy o‘zgartirish, takomillashtirish, mukammallashtirishga yo‘naltirilgan faolligi. Psixologik jihatdan ichki ehtiyojni qondirish deya talqin etiladi.

Xarakter (grekcha karakter – bosish, zarb qilish) – insonning faoliyati va munosabati tufayli shakllanadigan va namoyon bo‘ladigan barqaror individual xususiyatlari yig‘indisi bo‘lib, unga xos bo‘lgan hulq-atvor va hayotiy holatlarga

javob berish usullarini belgilaydi. Xarakterda inson uchun xos bo'lgan, standart vaziyatlarda qo'llaniladigan, hayotiy vazifalarni qo'yish va yechish usullari o'z ifodasini topadi.

His-tuyg'u – insonning nisbatan barqarorligi, umumiyliigi, uning shaxs sifatidagi taraqqiyoti davomida shakllangan ehtiyojlari va (xususan) qadriyatlariga mosligi bilan farq qiladigan yuksak o'zaro madaniy bog'langan hissiyotlaridir.

Hayajonlanish – (lot. emoveo – hayratga solmoq, hayajonga solamoq) – psixik hodisalarning alohida toifasi bo'lib, sub'ekt tomonidan bu hodisalar, predmetlar va vaziyatlar insonning o'z ehtiyojlarini qondirish uchun bevosita qiziqqon kechinmalari ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Xayol – insonning sub'ekt sifatidagi ongidan butun holda idrok qilinmagan yoki sezgi a'zolari yordamida idrok etila olmaydigan ob'ektlarning in'ikosining (tasavvurlar, sxemalar va boshqa obraz-modellarning) yoki jo'rttaga paydo bo'lishiga yoxud ataylab qurilishiga olib keluvchi bilish faolligidir. (mas., kelajakni mo'ljallagan tarix hodisalari idrok etila olmaydigan yoki umuman mavjud bo'lmagan dunyoning voqealari – miflar va ertaklardagi hayri-tabiiy personajlar va b.)

Hayotiy ma'nolar – bu inson uchun uning borliq bilan befarq bo'lmagan shunday aloqalari majmuasiki, ularda insonning uni o'rab olgan voqeilikdan ob'ektiv bog'liqligi sifatida ham, uning ehtiyojlari va intilishlari ko'rinishida ham o'z aksini topadi. Biz kundalik hayotimiz davomida hattoki, ko'p hollarda o'zimizning turmush psixologi ekanligimizni ham unutgan holda ulardan juda ko'p foydalanamiz. Bu o'rinda “turmush” so'zidan tashqari “kundalik psixologiya” yoki “odatiy psixologiya” deyish ham mumkin. Turmush (odatiy) psixologiyasi kundalik ong tarkibiga kiradi.

Xotira – insonning o'tmishi tajribasini eslab qolish, fikriy tashkil qilish, saqlash va qayta eslashga yo'naltirilgan ko'plab psixik jarayonlari, hatti-harakatlari, holatlaridir.

Xatti-harakat – insonning axloqiy o'z-o'zini ko'rsatish momenti bo'lib, bunda u boshqa kishiga nisbatan munosabati, o'z-o'ziga, guruh yoki jamiyatga, umuman tabiatga nisbatan shaxs sifatida o'zini namoyon qiladi. Hatti-harakat faoliyat yoki faoliyatsizlik; so'zlarda bildirilgan pozitsiya; imo-ishora ko'rinishida, qarash, nutq ohangi, matnning ma'nosi shaklidagi biron narsaga nisbatan munosabatda jismoniy to'siqlarni yengib o'tish va haqiqatni izlash tomon yo'naltirilgan harakatda kabilarda ifodalanadi. Hatti-harakat – sotsial hulq-atvorning asosiy birligidir, uning hamisha guvohlari bo'ladi: o'zining sotsial ifodasini topmagan ichki yechimi hali hatti-harakat bo'la olmaydi. Shuning uchun hatti-harakat orqaga qaytmas xarakterga ega, uni «qayta o'ynab» bo'lmaydi – aynan shu yerdan sodir etilgan hatti-harakat uchun shaxsiy javobgarlik vujudga keladi. Hatti-harakatda inson shaxs sifatidagina namoyon bo'lib qolmasdan, balki ushbu sifatda shakllanadi ham.

Shaxsiy kontakt – o'zaro hamkorlarni yagona sotsial butunlikka (ikki, uch yoki ko'proq kishilardan iborat) birlashuv darajasini anglatuvchi shaxsiy munosabat tavsifidir.

Shaxs erkinligi – insonlarning o'z xayoti va faoliyatini amalga oshirish,

ozod shaxs sifatida mehnat qilish, bilim olish, o'zi istagan kasb, hunarli, diniy e'tiqod va boshqalar ixtiyoriy tanlash.

Shaxs – inson aktivligiga xos psixik boshqaruvchilarning maxsus insoniy tizimi, psixikadagi shunday barqaror funksional tizimki, uning yordamida inson o'zi istiqomat qiladigan muhitda tashabbuskor, maqsad sari intiluvchan bo'libgina qolmasdan, balki yaxshilashga ham qodir bo'ladi. Inson shaxs sifatidagi fazilatlarni egallaganligining asosiy belgisi uning turli hatti-harakatlarni sodir qila olish qobiliyati, ya'ni bir-birini inkor etuvchi imkoniyatlarni tanlash, o'z hayoti hamda o'zgaralar hayoti bilan ham bog'liq bo'lgan ko'plab muhim momentlarni sarhisob qila olishi, o'z hatti-harakatlari uchun ma'suliyatni o'z zimmasiga ola bilishi kabilardir.

Shaxsiy aloqadorlik – bu bog'liqlikning dinamik jihati bo'lib, hamkorlar o'rtasidagi maqsadga erishishda qo'llaniladigan vositalarni kelishi, ulardan har birining qo'llaydigan strategiyasini koordinatsiya qilishni ta'minlaydi. Aloqadorlik bog'liqlikni ishtirokchilar manfaatiga moslashtirishning tez moslashuvchan mexanizmidan iborat. U kelishuv *o'zaro hamkorlik* yoki kurashga, har bir tomonning o'z maqsadiga erishishi uchun undashi, muammo va vazifalarni o'zicha tasavvur qilishi, ularni hal qilishning o'z usul va vositalaridan iborat bo'lishi mumkin.

Shaxsiy munosabat – bu hamkorlikdagi faoliyatning ehtiyojlari tufayli yuzaga keladigan va *o'zaro aloqadorlik*dagi strategiyalar kelishuvini *kontaktlar* o'rnatilishi va rivojlantirilishining murakkab va serqirra jarayoni, ular o'rtasidagi *munosabatlarning* o'rnatilishi va saqlab turilishidir. Kontakt, o'zaro aloqadorlik, munosabatlar, kommunikatsiya va idrok shaxsiy munosabatning komponentlari hisoblanadi.

Shaxsiy aloqalar – bu muayyan vaqt ichida ikki yoki undan ortiq kishilar o'rtasida qaror topadigan barqaror munosabatlardir. Dastlab o'zaro aloqadorlik ko'rinishida paydo bo'lib, keyin tez takrorlanishi tufayli u barqaror munosabatlarga aylanadi. Munosabatlarga misol: dushmanlik, musobaqa, muhabbat, do'stlik, ishbilarmonlik munosabatlari. “Jabrdiyda-agressor”, “xotinboz – farqiga yetadigan xonim”, “injiq boshliq – sustkash ijrochi” va boshqa shunga o'hshash qaror topgan munosabatlar ishtirokchilar ularni o'zgartirgunga qadar noaniq muddat davomida mavjud bo'lib turadi.

Ehtiyojlar – inson yoki hayvonning normal yashashi uchun zarur bo'lgan yetishmovchilikni aks ettiruvchi psixik yoki fiziologik keskinlik holatidir. Ehtiyojlar holat sifatida sub'ektning hayotiy faolligining shu ma'noda manbai hisoblanadiki, yuz bergan keskinlikni yo'qotishga qaartilgan sezilarli ta'sir kuchiga ega.

Qobiliyatlar – u yoki bu sermahsul faoliyatni egallash mahorati bilan bog'liq bo'ladigan insonning individual – psixologik xususiyatlari bo'lib, uning yordamida inson teng bo'lgan boshqa sharoitlarda ushbu faoliyatni tez va puxta, oson va mustahkam ravishda tashkil qilish va amalga oshirish yo'llarini o'zlashtirib oladi.

E'tiqod – shaxning shunday ongli yo'nalishki, unga o'y- qarashlari, prinslari va dunyoqarashga mos tarzda yashashga imkon beradi, e'tiqodning predmeti tarlicha bo'ladi. Vatanga, dinga, fanga, kasbga, axloqiy normalarga, oilaga,

go‘zallika va shunga o‘xshash.

Ehtiros – uzoq vaqt davom etadigan va barqaror bo‘lgan emotsional holat.

O‘ylar – insonning hayotidagi kelajak hayot manzaralarini aks ettiradigan shirin tasavvurlari, fantaziya va orzu-niyatlaridir.

Qayta hosil qilish – kuzatish mumkin bo‘lgan u yoki bu belgilar shaklidagi faollashgan mazmunning qayta tiklanishi va qayta qurilishidan iborat bo‘lgan aqliy hodisadir.

Qattiyat – ba’zi xollarda kishi qabul qiladigan qarshiliklar amalga oshirishda imkoniyatlarga ishongan xolda juda tez ma’lum bir qarorga kelish.

Home sapichs – aqli zot.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Maxsus adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi // <http://lex.uz/acts/20596>
2. O‘zbekiston Respublikasining 1997 yil 29 avgustdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi 464-I-son Qonuni // <http://www.lex.uz/docs/16188>
3. O‘zbekiston Respublikasining 2015 yil 4 sentabrdagi ““Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi O‘RQ-394-son Qonuni // <http://www.lex.uz/docs/2742233>
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 7 iyundagi “Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 472-son qarori // <http://lex.uz/pdfs/4367731>
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 14 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi huzurida Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni ilmiy-metodik ta‘minlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazi faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 658-son qarori // <http://lex.uz/search/nat?actnum=658>
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” PF-4947-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – 6(766)-son. – 70-modda. – B.25-151.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3031-sonli Qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – 23(783)-son. – 455-modda.– B.47-69.
8. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2019.
9. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2018.
10. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2018. – 592 b.
11. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma‘ruza, 2017 yil 14 yanvar. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 104 b.
12. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq / Sh.M.Mirziyoev. – Toshkent: “O‘zbekistan” NMIU, 2016. – 56 b.

Asosiy adabiyotlar

13. David G. Myers. Psychology. Tenth Edition // Hope College Holland, Michigan. – NY.: Worth Publishers, 2013. – P. 687.
14. Ivanov, P.I. Umumiy psixologiya: Pedagogika va psixologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun darslik. / P.I. Ivanov, M.E. Zufarova; Mas'ul muharrir D.M. Mirzajonova; O'zROO'MTV. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. – 480 b.
15. Karimova V., Hayitov O., Akramova F., Lutfullayeva N. Umumiy psixologiya: Nopedagogik va nopsixologik oily o'quv yurtlari uchun darslik // V.M.Karimovanning umumiy tahriri ostida. – T.: TDIU, 2010. – 328 b.
16. Umumiy psixologiya: O'quvqo'llanma / N.Sh. Umarova, D.N. Arzikulov; Mas'ul muharrir O.E. Hayitov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: “Fan va texnologiya”, 2018. – 220 b.
17. G'oziev E. Umumiy psixologiya: Psixologiya mutaxassisligi uchun darslik / E.G'oziev; O'zR OO'MTV, M.Ulug'bek nomidagi O'zMU. – T.: “O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2010. – 544 b.
18. Диянова, З.В. Психология личности. Закономерности и механизмы рахвития личности: учеб. пособие для бакалавриата и магистратуры / З.В.Диянова, Т.М.Щеголева. – 2-е изд., испр. и доп. – М.: Издательство Юрайт, 2019. – 173 с.
19. Имомов А. Шахслараро муносабатлар психологияси. – Т.: “Наврўз” нашриёти ДУК, 2016. – 192 б.
20. Кавун, Л.В. Психология личности: Теории зарубежных психологов: учеб.пособие для вузов / Л.В.Кавун. – 2-е изд., испр. и доп. – М.: Издательство Юрайт, 2019. – 109 с.
21. Каримова В.М., Холйигитова Н.Х. Психология: Ўқув қўлланма. – Т.: “ИҚТИСОДИЁТ”, 2014. – 175 б.
22. Морозюк, С.Н. Психология личности. Психология характера: учеб.пособие для академического бакалавриата / С.Н.Морозюк. – М.: Издательство Юрайт, 2019. – 217 с.
23. Серова, Л.К. Психология личности спортсмена: учеб.пособие для академического бакалавриата / Л.К.Серова. – 2-е изд., испр. и доп. – М.: Издательство Юрайт, 2019. – 124 с.

Qo'shimcha adabiyotlar

24. Umarova N.Sh. Iqtisodiy ijtimoiylashuvni aniqlashga xizmat qiluvchi metodikalar: Uslubiy qo'llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, Chircjiq: O'zDJTSU, 2019. – 44 b.
25. Qoraboev J.F., Mahmudov I.I. Psixodiagnostik ekspert tizimi. – T.: Akademiya, 2014. – 104 b.
26. Mahmudov I.I., Qoraboev J.F. Rahbar shaxs psixodiagnostikasi. – T.: Akademiya, 2013. – 120 b.
27. Yuldashev S.R. Ijtimoiy psixologiyadan masalalar to'plami. – T.: Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, 2012. – 78 b.

Internet resurslar

28. <https://president.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti
29. <https://www.gov.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Hukumat Portali
30. <https://strategy.uz> – “Taraqqiyot strategiyasi” Markazi
31. <http://www.openinfo.uz> – Korporativ axborot yagona portali
32. <http://ziyonet.uz>– Ta’lim portali Ziyonet
33. <http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
34. <https://minsport.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi
35. <http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi
36. <http://senat.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati
37. <http://uza.uz> – O‘zbekiston Milliy axborot agentligi
38. <http://huquqburch.uz> – Huquqiy axborot portali
39. <https://biblio-online.ru/viewer/psihologiya-lichnosti-sportsmena-438413#page/1>
40. <https://biblio-online.ru/viewer/psihologiya-lichnosti-zakonomernosti-i-mehanizmy-razvitiya-lichnosti-438896#page/2>
41. <https://biblio-online.ru/viewer/psihologiya-lichnosti-teorii-zarubezhnyh-psihologov-438035#page/5>
42. <https://biblio-online.ru/catalog/full/pedagogika-psihologiya-socialnaya-rabota/psihologiya/psihologiya-lichnosti>